

BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynutdinova

TAHRIR HAY'ATI

Baxtiyor SAIDOV
G'ayrat SHOUMAROV
Rustem REIMOV
Risboy JO'RAYEV
Shaxnoza XALILOVA
Boris BLYAXER
Iroda ABDULLAYEVA
Ayubxon RADJIYEV
Sharibboy ERGASHEV
Feruz QODIROVA

Mas'ul kotib

Sayyora Alimxodjayeva

Adabiy muharrir

Sayyora Alimxodjayeva

Kompyuterda sahifalovchi va dizayn

Mirtohir Xoliqov

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarining uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqriz qilinmaydi.

Mualliflarning familiyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

Muassislar:

O'quvchilarni kasb-hunarga
yo'naltirish va
psixologik-pedagogik
respublika tashxis markazi
"MAKTAB VA HAYOT" M.CH.J.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda
"MAKTAB VA HAYOT" dan olindi,
deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2001 yildan
chiqa boshlagan.

MANZIL:

100095, Toshkent sh.,
Olmazor t., Ziyo ko'chasi, 6A uy.
Tel: (0371) 246-21-02

E-mail: maktabvahayot@sarkor.uz

OBUNA INDEKSI - 1019

MUNDARIJA

U.U.SHARIFXO'JAYEV, A.G.IBRAGIMOV, I.X.XO'JAMOV. Milliy maktab uchun yangi avlod darsliklarini yaratishning konseptual asoslari.....	2
O.U.AVLAYEV. O'quvchilar xulqining psixologik himoya mexanizmlari bilan determinatsiyasi.....	4
D.AHMEDOV. O'smirlik davrining psixologik xususiyatlari	7
F.A. AKRAMOVA. Psixolog mutaxassisning oilaga psixologik xizmat ko'rsatishdagi asosiy vazifalari	8
S.M.YULDASHEVA. Shaxs kasbiy faoliyatining asosiy psixologik muammolari.....	10
I.YU.BOBOJONOVA. XXI asr ko'nikmalari va Blum taksonomiyasi	12
M.M.KASIMOVA. Inklyuziv ta'limda boshlang'ich sinf alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash.....	14
O.S.ISHMATOVA. Eshitishda nuqsoni bor bolalar og'zaki nutqini shakllantirishda fonetik ritmika texnologiyasining roli	16
G.ALIMOVA. Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonda aqli zaif bolalarni maktabga tayyorlash vazifalari	19
3.H.YPYHOBA. Технология дифференцированного подхода к формированию когнитивно-речевых знаний и умений у учащихся с нарушениями слуха	20
A.XOLMATOV, K. OTAJONOV. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni takomillashtirish.....	22
K.N.JO'RABOYEV. Kasbiy qiziqishlarni aniqlash amaliyoti.....	23
SH.H.TURDIALIYEVA. Bo'lajak logopedlarni tayyorlash jarayonida an'anaviy va innovatsion texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari	26
YO.I.ABDUMUTALIBOVA. Miya falajiga chalingan 2-4 yoshli bolalarning sensomotor tomonini rivojlantirish.....	28
I.NAZRULLAYEVA. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda iborali nutq rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	29
M. TOLIPOVA. Kasbning inson oldiga qo'yadigan talablari	31
G.ABDULLAYEVA. Nogironligi bo'lgan talabalarning oliy kasbiy ta'limini takomillashtirish yo'llari.....	33
N.B.ZAIROVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan nutq nuqsonlari va ularni bartaraf etish	34
M.A. SHKURULLAYEVA. Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni	36
G.X.JUMASHEVA, A.ULIKPANOVA. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirish.....	38
H.VALIYEVA. Yoshlarning sport haqidagi fikrini aniqlash bo'yicha ijtimoiy tadqiqot.....	40
B.O'.GENJEMURATOV. Pedagoglarning kasbiy kreativ malakasini oshirish texnologiyasi	41
D.R.BABAYEVA, M.G'.ZARIPOVA. Bolaning ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanishi.....	43



MILLIY MAKTAB UCHUN YANGI AVLOD DARSlikLARINI YARATISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

U.U.Sharifxo'jayev, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 1-o'rinbosari, i.f.d (DSe).

A.G.Ibragimov, A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti bo'lim mudiri, i.f.n., dotsent.

I.X.Xo'jamov, mazkur institut mustaqil tadqiqotchisi

В данной статье определена необходимость введения в учебные планы новых учебных предметов, а также обновления образовательного содержания учебных планов, что в свою очередь актуализирует создание учебников нового поколения для отечественной школы.

Ключевые слова и понятия: образование, учебная программа, наука, содержание образования, национальная школа, учебники нового поколения, услуги, спрос, население.

This article identifies the need to introduce new subjects into the curricula, as well as update the educational content of the curricula, which in turn actualizes the creation of new generation textbooks for the national school.

Keywords and concepts: education, curriculum, science, content of education, national school, new generation textbooks, services, demand, population.

1. Hozirgi vaqtda O'zbekiston yaxlit ta'lim siyosatini ishlab chiqdi, uning umumiy tamoyillari – O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, Taraqqiyot strategiyasi va Davlat dasturlarida belgilangan vazifalar ijrosi hamda ta'lim to'g'risidagi bir qancha qonun va qonun osti xujjatlari-ning qabul qilinishi ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirdi.

2. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar davlat va jamiyatda ta'lim tizimining ijtimoiy tartibini ifodalaydi. Rivojlanayotgan jamiyatda zamonaviy ma'lumotli, bilimli va tashabbuskor maktab boshqaruv jamoasiga, xususan: maktab direktori va o'qituvchi pedagog kadrlarga ehtiyoj bo'lib, ular ish faoliyatida mustaqil ravishda qaror qabul qilishlari, mumkin bo'lgan oqibatlarni bashorat qilib, ularni bartaraf eta olishlari va mamlakat ta'lim tizimi rivojiga hissa qo'shish uchun mas'uliyat tuyg'usiga ega bo'lishlari lozim.

3. Hozirgi vaqtda, ta'lim mazmunini takomillashtirish va yangilash muammosi va ushbu sohadagi tadqiqotlarni tahlil qilish dolzarbdir, chunki o'quvchilarni tarbiyalash, o'qitish ya'ni shaxsiy rivojlanishi va uning asosiy madaniyatini shakllantirishning asosiy vositalaridan biri bu ta'lim mazmunidir. Boshqa tomondan, yangi avlod darsliklarini ishlab chiqish va nashr etish, maktab darsligi o'quv jarayonining asosiy tarkibiy qismi sifatida o'quv dasturlarining o'ziga xos mazmunini, ta'lim va tarbiyaning asosiy maqsadlarini aks ettiradi. Yangi avlod darsliklarini yaratmasdan turib ta'limning zamonaviy sifatiga, uning shaxs, jamiyat va davlatning hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlariga mos kelishi-ga erishish mumkin emas.

4. O'zbekiston Respublikasida oxirgi yillar sifatli, yangi darsliklar yaratish uchun o'quv adabiyotlarini nashr etishga qaratilgan faol chora-tadbirlar ko'rilmogda. Biroq, darsliklarni ishlab chiqish nazariyasi va asoslari bo'yicha ko'plab ilmiy va amaliy ishlar mavjudligiga qaramay, ular evolyutsion rivojlanish jarayonida to'plangan milliy o'quv adabiyotlarining ilmiy va pedagogik salohiyatini yetarlicha ochib bermaydilar. Ushbu muammoga muvozanatli, konstruktiv yon-

dashuv, shuningdek, ta'lim mazmunini amalga oshirish, mavjud o'quv-uslubiy fondining katta qismi jismoniy va ma'naviy jihatdan eskirganligi sababli qayta tahrirlash va yangilashni talab qiladi. Shunga asosanib, ushbu ishlarni amalga oshirish muhiti qanday bo'lishi kerak? Ya'ni:

5. Maktablarda o'quv dasturlari va darsliklar sifatini oshirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish;

6. umumta'lim muassasalari uchun yangi o'quv adabiyotlarini ishlab chiqish, sinovdan o'tkazish va nashr etish ishlari- ni liberallashtirish;

7. o'quv dasturlari va darsliklarni tanlashda maktab jamoasini: zamonaviy ma'lumotli, bilimli va tashabbuskor maktab direktori va o'qituvchi-pedagoglarni jalb qilish;

8. maktab o'quvchilari uchun o'quv adabiyotlarini nashr etish qatnashchilarini qayta tayyorlashni tashkil etish (darslik mualliflari, ekspertlar va sinashda ishtirok etuvchi o'qituvchilar);

9. milliy va boshqa tildagi maktablar uchun darsliklar yaratishning konseptual asoslari hamda o'quv adabiyotlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish zarur.

10. Mamlakatimizda turli fanlar bo'yicha o'quv dasturlari va darsliklarni tayyorlash hamda tanlashda maktab jamoasining professional vakolatlari bo'yicha bir necha tadqiqotlar o'tkazilgan va olib borilmoqda, olib borilgan tadqiqot natijalari so'z yuritilayotgan mavzuda muammolar mavjudligini ko'rsatdi.

11. O'quv dasturlari va darsliklarni tanlashda maktab jamoasi faoliyati tahlil qilinganda, mamlakatimiz maktab direktorlari ta'lim-tarbiya masalalari bilan faol shug'ullanadilar. Maktab rahbarlarining 61 foizi o'quv dasturlari va ta'lim jarayonini tashkil qilishni asosiy vazifa deb hisoblasa, 59 foiz direktorlar uchun qo'shimcha darsliklarni tanlash muhimdir, shu bilan birga 57 foiz maktab direktorlari o'quv dasturlari mazmuniga katta e'tibor qaratishini bildirib o'tgan (1-ko'rsatkich)¹.


12. Direktorlarning javoblariga ko'ra O'zbekiston o'qituvchilariga ta'lim masalalari bo'yicha qarorlar qabul qil-

¹ A.Radjiyev, F.Karimov, A.Ibragimov. TALIS-2018 Xalqaro tadqiqotlari talablari asosida o'tkazilgan so'rovnoma va tadqiqot hisobotining ma'lumotlar to'plami. 2-qism. Toshkent-2022. 119 bet.



ishda katta mas'uliyat yuklanadi. Agar o'qituvchilarning fan dasturlari va o'quv materiallarini tanlashga jalb etilishi direktorlar faoliyati bilan taqqoslanadigan bo'lsa, maktab direktorlari o'quv materiallari mazmunini aniqlashda ko'proq ishtirok etadilar.


13. Niderlandiyada 91 foiz o'qituvchilar o'quv kurslari mazmunini aniqlashda ishtirok etadilar, boshqa mamlakatlarda bu quyidagicha taqsimlangan: Italiya 88 foiz, Daniya 84 foiz, Estoniyada 82 foiz, Rossiyada esa bu ko'rsatkich 46 foizni tashkil etadi. Juda past stavkalar (10% dan kam) esa Saudiya Arabistoni, Turkiya va Vetnamda ekanligi o'rganildi.



1-ko'rsatkich. Ta'lim jarayoniga doir masalalarni yechishda maktab direktorlari va o'qituvchilarning ishtiroki, foizda.

O'rtacha OECD davlatlarida o'quv kurslarni tanlashda maktab direktorlarining faolligi O'zbekistonga nisbatan yuqori (66%), o'quv materiallarini tanlash va kurslar mazmunini aniqlashda ularning ishtiroki esa past bo'lib, 48 va 40 foizni tashkil etadi. Argentina, Chexiya, Isroil, Italiya, Latviya, Rossiya, Singapur, Slovakiya Respublikasi va Amerika Qo'shma Shtatlaridagi maktab direktorlarning yarmidan ko'pi bu vazifalarning har uchtasini (1. Qo'shimcha darsliklarni tanlash, 2. Kurslar mazmunini aniqlash, 3. Kurslarni tanlash) bajarishmoqda.

Maktab rahbarlari jalb qilinishiga qaramay, OECD davlatlarida ta'lim-tarbiya masalalarida o'qituvchilar eng katta mas'uliyatni o'z zimmlariga oladilar. Ushbu davlatlarda o'rtacha 72 foiz o'qituvchilar darsliklarni tanlaydilar, 52 foiz o'qituvchilar o'quv dasturlari mazmunini aniqlashda ishtirok etadilar, shu bilan birga, o'quv dasturlari va kurslarni tanlashda esa 39 foiz o'qituvchilar mas'uldirlar (2-ko'rsatkich).



2-ko'rsatkich. Turli mamlakatlar o'qituvchilarining o'quv materiallarini tanlash uchun javobgarligi, foizda.

Belgiya, Islandiya va Italiyaning o'qituvchilari o'quv materiallarini tanlashda o'qituvchi mustaqilligining eng yuqori ko'rsatkichlariga (95%dan ortiq) egadirlar. Rossiyada bu ko'rsatkich 60 foizni tashkil etadi. Yaponiya, Saudiya Arabistoni, Xitoy, Birlashgan Arab Amirliklari va Vetnamdagi o'qituvchilar o'quv materiallarini tanlashda eng kam imkoniyatga (30% dan kam) ega ekanliklarini ko'rsatmoqda.

Maktablarda o'quv dasturlari asosida o'tiladigan fanlar va ularni o'tadigan o'qituvchilarning ulushi tahlil qilinganda, O'zbekistonda o'qish, ona tili va adabiyot sohasida ishlovchi o'qituvchilar ulushi nisbatan katta bo'lib, 20,5 foizni tashkil qiladi, chet tili fanlaridan dars o'tadigan o'qituvchilar ulushi esa 11,9 foizga tengdir, shu bilan birga matematika fani o'qituvchilarining ulushi 17,7 foizga teng bo'lgan. Eng kichik ulushdagi o'qituvchilar chizmachilik 0,2 foiz, musiqa madaniyati 0,6 foiz, davlat va huquq asoslari 0,8 foiz, iqtisodiy bilim asoslari 1,1 foizga tengdir (3-ko'rsatkich).



3-ko'rsatkich. Sinflarda o'tiladigan fanlarning ulushi, foizda.

Shuningdek, xalqaro PISA tadqiqotida qayd etilishicha, uning yetakchi davlatlar ta'lim tizimidagi maktablarga turli hududlardan har-xil tilda so'zlashuvchi o'quvchilar oqimini to'g'ri boshqarib, turli tilda o'qitishning maxsus dasturlarini ishlab-chiqishga harakat qilishmoqda. Bu borada O'zbekiston ta'lim tizimi maktablarida o'zbek tili ona tili bo'lmagan o'quvchilar sonining o'sish sur'ati davom etayotgan bo'lsa-da, turli tilda so'zlashuvchi o'quvchilar uchun maktablarda rus, qoraqalpoq, tojik, qozoq, qirg'iz, turkman va boshqa tilda darslar olib boriladigan maktab va sinflarning tashkil etilishi, amaliyotda o'qitishning maxsus dasturlari ishlab chiqilgani va joriy qilinganligi ta'lim sifatini oshirish muammosini hal qilishda sezilarli natijalarga erishishga sabab bo'lmoqda.

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra², 2021-2022-o'quv yili boshiga o'quvchilarni o'qitiladigan tillar bo'yicha taqsimlanishi tahlil qilinganda:

rus tili – 643 ming nafar o'quvchi;

qoraqalpoq tili – 126 ming nafar o'quvchi;

tojik tili – 65 ming nafar o'quvchi;

qozoq tili – 54 ming nafar o'quvchi;

turkman tili – 11 ming nafar o'quvchi;

qirg'iz tili – 8,2 ming nafar o'quvchi;

ingliz tili – 1,5 ming nafar o'quvchi ta'lim olayotgani ma'lum bo'ldi.

² O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. <https://stat.uz/uz/>.



Bizning fikrimizcha, yangi avlod darsliklarini yaratish, birinchi navbatda, ularni ishlab chiqishdagi mavjud tajribani o'rganish va nazariy tushunishni, o'tgan yillardagi mavjud o'quv adabiyotlarining ilmiy-pedagogik salohiyatini aniqlashni talab qiladi. Bu bosqichda ilgari olingan bilimlarni tizimlashtirish, o'tmishdoshlarning boy tajribasini tushunish va umumlashtirish, so'ngra harakat qilish muhimdir.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi ta'lim mazmunining konseptual asoslarini aniqlash, o'zbek madaniy-ma'rifiy va mintalitet birligini ta'minlash kabi vazifalarni hal qilishga qaratilgan, umumjahon bilim, ilm va ko'nikmalarning ajralmas tizimi yordamida yuqori sifatli, zamonaviy darslik va adabiyotlarni tayyorlash kerak.

Bundan tashqari, yangi avlod darsliklarini yaratish O'zbekistonda yagona ta'lim makonini saqlash va yanada rivojlantirishga, etnik va butun mamlakat xalqi ongining birligi asosida shakllanishiga qo'shgan hissiy bilan belgilanadi.

O'quv dasturlari va yangi avlod darsliklarini yaratishda, o'zbek tilida so'zlashuvchi mintaqaviy darajadagi madaniy-ma'rifiy, siyosiy va milliy-mintaqaviy ta'lim mazmunini shakllantirishning konseptual asoslarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Nazariy va amaliy tadqiqotlar xulosasiga asosan, o'quv dasturlari va yangi avlod darsliklarini yaratish O'zbekiston va boshqa mamlakatlarda ta'lim tizimlarida rivojlanayotgan maktab muhiti va boshqaruv madaniyatiga yaqindan qarash imkonini beradi va ularni nafaqat ta'lim tizimining an'anaviy qadriyatlarini nuqtai nazaridan tahlil qilish, balki ta'lim siyosati doirasida olib borilayotgan chora-tadbirlarni, ular ijrosi bo'yicha munosabatlarni kuzatish imkonini beradi.

O'quv dasturlari va yangi avlod darsliklarini yaratilishi ta'lim siyosati haqida o'qituvchilarning dunyoqarashini, metodik va kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bilan birga o'qituvchi mas'uliyatining chegaralarini bilishini oshirish o'z navbatida yuqori natijalar erishish va o'qituvchilarning o'z

ishlaridan qoniqish hosil qilish, kasbiy e'tiroz va norozilikning oldini olish uchun muhim shart hisoblanadi.

O'zbekiston ta'limini modernizatsiya qilish, sifati va samaradorligini oshirish - umumiy ta'lim mazmunini sezilarli darajada yangilashni nazarda tutadi, bu esa o'z navbatida yangi avlod o'quv adabiyotlarini ishlab chiqishni talab qiladi, chunki darslik o'quv jarayonining asosiy tarkibiy qismi sifati-da ta'lim mazmunini joylarda amalga oshiradi.

Ushbu maqolamizdagi tadqiqotlarimiz tarixiy tajriba va zamonaviy tadqiqotlarni hisobga olgan holda zamonaviy dunyoda zamonaviy maktab sizni qiyin muammolarni hal qilishga majbur qilishini, bugungi kunda har bir o'qituvchi o'zining pedagogik tajribasini qayta ko'rib chiqishi va yangi sharoitda qanday o'qitish kerakligini his etishga undashdir.

Adabiyotlar

1. R.X.Djurayev, S.T.Turg'unov. Ta'lim menejmenti. T.: "Voriz-Nashriyoti", 2006. 263 bet.
2. Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov. Ta'lim sifatini boshqarish. T.: "Turon-Iqbol", 2006. 592 bet.
3. N.M.Soatov. Statistika. Darslik. — T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2003. — 744 bet.
4. Андреас Шляйхер. Образование мирового уровня. Как выстроить школьную систему XXI века? Успешные реформы и высокие результаты. Пер. с англ.— М.: Издательство «Национальное образование», Москва, 2019. 336 с.
5. A.Radjiyev, F.Karimov, A.Ibragimov. TALIS-2018 Xalqaro tadqiqotlari talablari asosida o'tkazilgan so'rovnoma va tadqiqot hisobotining ma'lumotlar to'plami. 2-qism. Toshkent-2022. 119 bet.
6. OECD (2016) School Leader ship for Learning: Insights from TALIS-2013 – TALIS, OECD Publishing, Paris. <https://dx.doi.org/10.1787/9789264258341-en>.
7. TALIS – The OECD Teaching and Learning International Survey // OECD –<https://www.oecd.org/education/talis/>.

O'QUVCHILAR XULQINING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI BILAN DETERMINATSIYASI

O.U.Avlayev, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, psixologiya kafedrasida dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

В данной статье представлены комментарии к определению и диагностике поведения школьников с механизмами психологической защиты. В ней высказываются мнения о возможности обеспечения развития личности обучающихся через формирование адекватного поведения.

Ключевые слова и понятия: школьники, поведение, механизмы психологической защиты, диагностика.

This article provides comments on the definition and diagnosis of the behavior of schoolchildren with psychological defense mechanisms. It expresses opinions on the possibility of ensuring the development of the personality of students through the formation of adequate behavior.

Key words and concepts: pupils, behavior, psychological defense mechanisms, diagnostics.

Shaxsdagi mo'tadillik, ruhiy sog'lomlik ongning boshqaruv imkoniyati mavjudligini bildirib, ayrim hollarda hissiyotga berilishi esa uning o'z vazifasini bajarishdan chetlashganligini namoyish qiladi. Turli xususiyatli munosabatlar ong nazoratida amalga oshirilsa, shaxs xulq-atvorida, faoliyatida va muomala jarayonida, hеч qanday nuqsonlar, chetga og'ishlar sodir

bo'lmaydi. Shuning uchun shaxsning nisbatan barqaror va nisbatan o'zgaruvchan xususiyatlari inson xislatlarining yaxlitligi va o'zaro bog'liqligidan, tarkib topuvchi murakkab birlikdan iboratdir.

K. Rodgers sog'lom odamni – tashqi ta'sirlardan mustaqil va o'ziga suyangan holda, himoya reaksiyalaridan doimo foy-

dalanmaydigan, moslashuvchan va ochiq odam deb hisoblagan. Optimal aktuallashadigan, bunday odam hayotining har bir yangi daqiqasida to'liq yashaydi, u harakatchan, o'zgaruvchan sharoitlarga yaxshi moslashgan, boshqalarga nisbatan bag'rikeng, hissiy va mulohazali [2; 221-226 bb]. K.Yung esa, stereotiplar hujumidan ozod va o'zidagi ongsizlik tarkibini assimilyasiya qilgan odam sog'lom bo'lishini ta'kidlagan. V.Rayx nuqtai nazaridan, nevrotik va psixosomatik kasalliklar biologik energiyaning turg'unligi natijasi sifatida izohlanadi, demak, sog'lom holat energiyaning erkin oqimi bilan tavsiflanadi. Ammo insonning ongsiz sohalari ham uning xislatlariga ta'sir ehtimoli yuqoriligi ta'kidlash joiz.

Z.Freyd psixologik jihatdan sog'lom odam – zavq tamoyilini voqeyelik tamoyili bilan muvofiqlashtirishga qodir, deb hisoblagan [4; 398-b]. Mazkur hodisalarning psixologik tabiatini psixoxanalitik pozitsiyasidan turib tushuntirishga harakat qilgan Freyd ongsizlik deb, ijtimoiy normalar talabi bilan nizoli holat, qarama-qarshilik tufayli ongga kira olmagan, amalga oshmay qolgan mayllar qisilish mexanizmi yordami bilan begonalashib individ yanglish aytgan so'zida, gapda yanglishib ketishida, tush ko'rishida va hokazolarda aks etishini tushunadi. Inson psixikasining eng chuqur va ahamiyatli qatlami ongsizlikdir (3.Freyd). Bu ongga qanchalik bosim o'tkazuvchi emotsiya va xotiralar orqali instinktiv qo'zg'alishlarini saqllovchi, ammo ushbu anglashilmagan materiallar ko'pincha insonning kundalik faoliyatini belgilaydi [1; 144-b]. Bu shaxsning sog'lom turmush tarziga amal qilish natijasida vujudga keluvchi ziddiyatli, tashvishli holatlarni real hissiy-emotsional tarzda idrok etishi lozim edi. Ammo, psixika strukturasini, salbiy emotsiya va kechinmalarda kuzatiluvchi (ta'sirlanish, bezovtalanish va umidsizlik) frustratsiyaga olib keladi. Frustratsiya "Men"ni har xil "chiqarish klapan"lari yordamida zo'riqlashlarni olib tashlashga undaydi. Bular psixologik himoya mexanizmlari deyiladi. Psixologik himoya mexanizmi birinchi holatda insonni o'z-o'zini sog'lom his etishga, rivojlanishiga monelik ko'rsatishi, ehtimol.

O'quvchilarda xulqining shakllanishi bevosita himoya mexanizmlari bilan bog'liqligini aniqlash uchun Kellerman-Plutchikning psixologik himoya mexanizmlarini diagnostika qilish so'rovnasidan foydalansa bo'ladi.

Mazkur metod shaxsda ustunlik qiladigan psixologik himoya mexanizmlarini o'rganadi. Bizningcha psixologik himoya mexanizmlarining ayrim birlarining shaxsda barqaror shakllanganligi ulardagi valeologik ong shakllanishiga zamin hozirlashi mumkin. Masalan "Siqib chiqarish", "Regressiya", "O'rin almashtirish", "Rad etish", "Proeksiya", "Kompensatsiya", "Intellektuallashtirish", "Reaktiv shakllanish" kabi psixologik himoya mexanizmlarining yuqori yoki past bo'lishi shaxslarda valeologik ong shakllanishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir qilishi mumkin [3].

Natijalarni qayta ishlash. Sakkizta ego himoya mexanizmlari sakkizta shkalani hosil qilib, ularning har biriga alohida ta'kidlar to'g'ri keladi. Har bir psixologik himoya mexanizmlari bo'yicha natijalar quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi: $n/N \cdot 100\%$, bu yerda n – ushbu himoya mexanizmlari bo'yicha berilgan ijobiy javoblar soni, N – ushbu shkalaga mansub barcha ta'kidlar soni. Shunda psixologik himoya mexanizmlarining umumiy yuklamasi quyidagicha hisoblanadi $n/97 \cdot 100\%$, bu yerda n – himoya mexanizmlari bo'yicha berilgan ijobiy javoblar umumiy sonidir.

Ko'rsatma: Agar mulohazalar sizga to'g'ri kelmasa tasdiqlar qatoriga inkor "–" belgisini, bildirilgan mulohazalar sizga to'g'ri kelsa tasdiqlar qatoriga "+" belgisini qo'ying.

So'rovnoma matni

1. Men juda muloqotchan insonman, shuning uchun chiqish ketishim oson.
2. Istagan narsamga erishgunimcha sabrim chidamay intiqib ketaman.
3. Men o'xshashni istagan, havas qiladigan insonlar doimo mavjud bo'lgan.
4. Odamlar meni hissiyotli inson deb o'ylashmaydi.
5. Odobsiz filmlarni ko'rganimda o'zimni yo'qotib qo'yan.
6. Tushlarimni kamdan kam eslab qolaman.
7. Atrofdagilarni boshqaradigan odamlar menga umuman yoqmaydi.
8. Ba'zida devorga mushtim bilan qattiq zarba bergim keladi.
9. Insonlarning kekkayib gerdayib ketishi asabimni buzadi.
10. Orzularimning asosiy markazida o'zim ishtirok etaman.
11. Men hych qachon yig'lamaydigan insonlar sirasiga kiran.
12. Umumiy hojatxonadan foydalanishim zarur bo'lib qol-sa, o'zimni shunga majbur qilaman.
13. Bahs jarayonida ikkala tomonga ham quloq tutishga tayyorman.
14. Mening jahlimni chiqarish juda oson.
15. Olomon ichida kimdir meni itarsa men ham uni ita-rishga tayyor turaman.
16. Mendagi ko'p jihatlar odamlarga yoqadi.
17. Men jahl qilib asabimni buzishdan ko'ra, hamma nar-sani oxirigacha o'ylab ko'rishni afzal bilaman.
18. Men ko'p kasal bo'laman.
19. Men inson chehralarini yaxshi eslab qola olmayman.
20. Meni kamsitishganda o'z jonimga suiqasd qilish haqi-dagi fikrlar uyg'onadi.
21. Odobsiz gap eshitsam uyali ketaman.
22. Men doim narsalarning yaxshi tarafini ko'raman.
23. Men jahldor odamlarni yomon ko'raman.
24. Menga tegishli bo'lgan narsadan ayrilishim juda qiyin.
25. Men ismlarni qiyinchilik bilan eslab qolaman.
26. Menda haddan ziyod impulsivlik mavjud.
27. Maqsadga yig'i-sig'i bilan erishadigan odamlar nafratimni uyg'otadi.
28. Men bid'at va xurofotlardan xoliman.
29. Insonlar mening maftunkorligim haqida gapirishlari men uchun juda zarur.
30. Agar men sayohatga yo'l olsam har bir detalga ahami-yat beraman.
31. Ba'zida atom bombasi butun dunyoni portlatib yuborishini istab qolaman.
32. Pornografiya-yoqimsiz narsa.
33. Nimadandir jahlim chiqsa ko'p yeyishni boshlayman.
34. Odamlar hych qachon jonimga tegmaydi.
35. Yoshligimdagi ko'p hodisalarni eslay olmayman.
36. Ta'tilga chiqsam ishni ham birga olaman.
37. O'z fantaziyalarimda buyuk ishlarni amalga oshiraman.
38. Ko'p hollarda odamlar nihoyatda egoist bo'lganliklar uchun nafratimni qo'zg'atadilar.
39. Sirpanchiq narsaga teginish menga yoqmaydi.



40. Agar kimdir mening jonimga tegsa o'sha odamga bu haqda aytmayman, lekin boshqa odamga noroziligimni namoyon qilaman.

41. Ehtiyot bo'lmasangiz odamlar boshingizni aylantirib qo'yishadi.

42. Insonlardagi salbiy xususiyatlarni ko'ra olish uchun menga ko'p vaqt kerak bo'ladi.

43. Qandaydir fojia haqida eshitasam hyecham hayajonlanmayman.

44. Bahsda boshqa odamga nisbatan mantiqan to'g'riroq fikrlayman.

45. Men maqtovlarsiz tura olmayman.

46. Insofsizlik yaxshi emas.

47. Mashina haydayotganimda boshqa mashinani urib yuborish istagi ham paydo bo'lib turadi.

48. Men nimadir qila olmasam jahlim chiqadi.

49. Qonga belangan odam meni xavotirga solmaydi.

50. Menga ahamiyat berishsa, kayfiyatim buziladi va bu menga yoqmaydi.

51. Odamlar ishonuvchan ekanligim haqida ko'p aytishadi.

52. Men kamchiliklarimni yashiradigan kiyimlar kiyaman.

53. Men odobga to'g'ri kelmeydigan so'zlarni ishlata olmayman.

54. Menimcha men odamlar bilan ko'p bahslashaman.

55. Insonlarning soxtaligi menga yoqmaydi.

56. Odamlar meni mehrsiz inson deyishadi.

57. Bilishimcha, mening ma'naviy darajam boshqalarnikidan ancha yuqori.

58. Agar qandaydir ishni bajara olmasam yig'lab yuboraman.

59. Men hissiyotlarimni izhor eta olmayman.

60. Kimdir meni itarsa achchig'im chiqib ketadi.

61. Menga yoqmagan narsalarni kallamdan chiqarib tashlayman.

62. Men kamdan kam bog'lanib qolaman.

63. Men e'tibor markazida bo'lishga intiladigan odamlarni umuman yoqtirmayman.

64. Men ko'p narsalarni yig'aman.

65. Qiziqqan sohamda muvaffaqiyatga erishish uchun boshqalardan ko'ra, ko'proq mehnat qilaman.

66. Yosh bolaning yig'isidan bezovta bo'lmayman.

67. Shunaqa jahlim chiqadiki, atrofdagi hamma narsalarni barbod qilib yuborgim keladi.

68. Men doim optimistman.

69. Men ko'p aldayman.

70. Men ko'proq faoliyatga bog'lanib qolganimdan uning atrofiga kechayotgan munosabatlarga e'tibor bermayman.

71. Insonlarning ko'pchiligini xarakteri juda og'ir.

72. Jinsiy sahnalari bor filmlarni hech qachon tomosha qilmayman.

73. Odamlarga ishonib bo'lmasligi achchig'imni keltiradi.

74. Yaxshi taassurot qoldirish uchun qo'limdan kelgan barcha narsani qilaman.

75. Ba'zi xatti-harakatlarimni eslay olmayman.

76. Zo'rlash mavjud bo'lgan kino kartinalarni ko'rishga bardosh qila olmayman.

77. Dunyodagi vaziyat ko'pchilik o'ylagandan ko'ra, yaxshiroq.

78. Omadsizlikka duch kelgan bo'lsam yomon kayfiyatimni yashira olmayman.

79. Odamlarning plyaj kiyimlari axloq normalariga to'g'ri kelmaydi.

80. Hissiyotlarim ustimdan hukmronlik qilishiga yo'l qo'ymayman.

81. Men har doim bo'lishi mumkin bo'lgan eng yomon narsaga tayyor turaman.

82. Men shunchalik yaxshi yashaymanki, hammaning menga havasi keladi.

83. Meni shunchalik jahlim chiqqanidan, o'zimga shikast yetkazganman.

84. Ma'naviyati past odamlarga duch kelsam nafratlanib ketaman.

85. Men dastlabki, maktab yillarim haqida hyech narsani eslay olmayman.

86. Jahlim chiqsa o'zimni bolalardek tutaman.

87. Men o'z hissiyotlarimdan ko'ra, o'ylarim to'g'risida gapirishni xush ko'raman.

88. Menga hech bir ishim oxiriga yetmagandek tuyiladi.

89. Shavqatsizliklar xaqida eshitishim meni xavotirga solmaydi.

90. Mening oilamda hech qachon bir-birlariga qarshi chiqishmaydi.

91. Men odamlarga ko'p baqiraman.

92. Men o'z maqsadiga erishish uchun odamlarni ham toptab o'tadiganlarni yomon ko'raman.

93. Jahlim chiqsa ko'p janjal ko'taraman.

94. Menda ko'pchilikka qaraganda muammolarim kamroq.

95. Nimadir jahlimni chiqarsa, odatdagidan ko'p uxlayman.

96. Muvaffaqiyatga erishish uchun yolg'on gapiradigan insonlardan nafratlanaman.

97. Men axloqsiz so'zlardan ko'p foydalanaman.

Himoya mexanizmlarining nomi va ta'kidlar raqami

1. Rad etish: 1, 16, 22, 28, 34, 42, 51, 61, 68, 77, 82, 90, 94 – 13 ta.

2. Siqib chiqarish: 6, 11, 19, 25, 35, 43, 49, 59, 66, 75, 85, 89 – 12 ta.

3. Regressiya: 2, 14, 18, 26, 33, 48, 50, 58, 69, 78, 86, 88, 93, 95 – 14 ta.

4. Kompensatsiya: 3, 10, 24, 29, 37, 45, 52, 64, 65, 74 – 10 ta.

5. Proeksiya: 7, 9, 23, 27, 38, 41, 55, 63, 71, 73, 84, 92, 96 – 13 ta.

6. O'rin almashtirish: 8, 15, 20, 31, 40, 47, 54, 60, 67, 76, 83, 91, 97 – 13 ta.

7. Intellektuallashtirish: 4, 13, 17, 30, 36, 44, 56, 62, 70, 80, 81, 87 – 12 ta.

8. Reaktiv shakllanish: 5, 12, 21, 32, 39, 46, 53, 57, 72, 79 – 10 ta.

Xulosalar

1. Turmush tarzining o'ziga xosligi anglanmagan psixologik himoya mexanizmlari bilan determinatsiyalanadi.

2. Psixologik himoya mexanizmlari ba'zan ta'limga nisbatan bo'lgan munosabatlarga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3. Shaxslararo munosabatlarni shakllantirishning dastlabki bosqichida, psixologik himoya mexanizmlariga ta'sir etish ushbu munosabatlarni buzishi mumkin, birinchi marta himoya mexanizmlari vaqt o'tishi bilan "salbiy" ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki himoya funksiyasining yo'qolishi ijobiy yo'nalishdagi munosabatlarni rag'batlantiradi.



Shunday qilib, yashirin hayot tarzi determinizmga nisbatan taxminlarning empirik tahlili natijalari asosida o'quvchilar xulqining o'ziga xosligini ongsiz psixologik himoya mexanizmlari tomonidan aniqlanishi va psixologik himoya mexanizmlari hayot tarziga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin degan xulosalarga kelishimiz mumkin:

Adabiyotlar

1. Atajanov M. Psixoanaliz asoslari. – T.: O'zbekiston, 2004. – 144 b.

2. Березовская Р. А. Исследования отношения к здоровью: современное состояние проблемы в отечественной психологии // Вестник Санкт-Петербургского университета. Серия 12. Психология. Социология. Педагогика. 2011. Вып. 1. С. 221–226.

3. Доценко Е.Л. Психология манипуляции: феномены, механизмы и защита. – СПб.: Речь, 2004. – 304 с.

4. Фрейд Зигмунд. “Я” и “Оно” // Труды разных лет / Пер. с нем. Кн. 1, 2; сост. А.Григорашвили. – Тбилиси: Мерани, 1991. – 398 с.

5. Фром Э., Душа человека М., Гардарика, 2002. – 326 с.

O'SMIRLIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

D.Ahmedov, Namangan davlat universiteti psixologiya yo'nalishi magistranti

В статье рассматривается период подросткового возраста и его особенности, а также физические, психические и анатомические изменения, происходящие в психике подростков в этот период. Также проводится анализ психологических характеристик их познавательных процессов.

Ключевые слова и понятия: подростковый возраст, психологические изменения, ускорение, характер, мировоззрение, девиантность, девиантное поведение.

The article discusses the period of adolescence and its features, as well as the physical, mental and anatomical changes that occur in the psyche of adolescents during this period. An analysis of the psychological characteristics of their cognitive processes is also carried out.

Key words and concepts: adolescence, psychological changes, acceleration, character, worldview, deviance, deviant behavior.

O'smirlik bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik o'ziga xos jihatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti jadallik bilan rivojlanadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilishi ortadi, xarakteri shakllanadi, ma'naviy dunyosi rivojlanadi, ziddiyatlar avj oladi. O'smirlik balog'atga yetish davri bo'lib, yangi xislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli chigal masalalarni paydo bo'lishi bilan ham xarakterlanadi. Bu o'zgarishlar fiziologik hamda psixologik o'zgarishlardir. Ular o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar, ular o'zlarini layoqat va qobiliyat va imkoniyatlarini ma'lum darajada o'rtoqlari va o'qituvchilariga ko'rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo'li bilan xam osongina ko'rish mumkin. Shu sababli o'smirlik davri o'tish davri, krizis davri, qiyin davr kabi nomlarni olgan psixologik ko'rinishlari bilan xarakterlanadi. O'smirlik bu insoniyat rivojlanishining eng qiyin davrlaridan biri sifatida nisbatan qisqa muddatli bo'lishiga qaramay deyarli ko'p jihatdan insonning kelajakdagi hayotini belgilaydi.

Hozirgi davrda o'smirlarni tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari, hatti-harakat motivlarini shakllantirishning murakkab mexanizmlari mavjud. O'smirlarni tarbiyalashda ularning xususiyatlarini to'la hisobga olgan holda ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarni qo'llash, shaxslararo munosabatda anglashilmovchilikni vujudga keltirmaydi, sinf jamoasida iliq psixologik muhitni yaratadi.

Bu yoshdagi bolalarda ro'y beradigan biologik o'zgarishlar natijasida uning psixik dunyosida tub burilish vujudga keladi. Shuningdek, og'ishgan xulq-atvor shakllarining namoyon bo'lishi ehtimolligi nihoyatda yuqori bo'ladi. O'tish davrida vujudga keladigan morfologik va fiziologik o'zgarishlar, ya'ni 11-12 yoshda organizmdagi ichki sekret-

siya bezlari faoloyatining qayta qurilishi bola ruhiyatida ham ayrim burilishlarga sabab bo'ladi. Gipofizning old qismi ishlab chiqaradigan gormonlar gavdaning o'sishini taminlaydi. Gipofiz bilan bir qatorda qalqonsimon bezning funksiyasi ham kuchayadi, qalqonsimon bez faoliyatining kuchayishi qo'zg'aluvchanlik, asabiylashish va toliqishni keltirib chiqaradi. Bosh miya qobig'ida tormozlanish jarayonining susayishi shiddatli emotsional holatlarini vujudga keltiradi, xulq-atvorda parokandalik, g'ayritabiiylik paydo bo'ladi. Bola o'zining tashqi ko'rinishi (yuz ifodasi, rangi, gavda tuzilishi, bo'yi) va kiyinishiga jiddiy e'tibor bera boshlaydi. O'qishga bo'lgan munosabat ikkinchi o'rinda qoladi. O'g'il bolalarda jismoniy sifatlar tengdoshlari o'rtasida ajralib turishiga ta'sir qiladi, bir-birlariga nisbatan tazyiqlar kuchayadi.

O'smirlik xarakterdagi o'zgarishlar tub burilishlar yoshi, chinakamiga qiyin davr. Bu yosh atrofdagilar uchun, undanda ko'proq o'smirning o'zi uchun qiyin yosh sanaladi. O'zgaruvchan kayfiyat, xarakterdagi keskin burilishlar va o'ta ta'sirchanlik ba'zan vaziyatni to'g'ri baholay olmaslik va unga muvofiq holda o'zini tuta olmaslikka ham olib keladi.

Xarakterning o'zgarishi va qarashlarining paydo bo'lishi, yangi qiziqishlar va ehtirolar, mustaqil bo'lishga kuchli intilish o'smirning jamiyat me'yorlari va talablaridan cheklanib, tashqi me'yorlarni shubha ostiga olib, o'zi qimmatli deb bilgan sifatlarini namoyon etishga urinishga olib keladi. Bu beboshlik, intizomni buzish kabi bezarar g'ayriijtimoiy xulq-atvor shakllarida namoyon bo'lishi mumkin. Mazkur xulq atvorni psixologiyada og'ishgan yoki deviant, ya'ni jamiyatda qabul qilingan me'yorlardan og'ishgan xulq deb ham yuritiladi. O'smirlik davrida yuz berishi mumkin bo'lgan ehtimoliy xulqiy og'ishishlarni oldini olishda,



dastavval ularning bilish jarayonlari xususiyatlarini chuqur tahlil etish talab etiladi. Quyida esa o'smirlik davrida o'zgarishga yuz tutadigan ayrim bilish jarayonlariga qisman to'xtalib o'tamiz,

Bu davrga xos bo'lgan nutqning rivojlanishi bir tomondan so'z boyligining o'sishi hisobiga bo'lsa, ikkinchi tomondan tabiat va jamiyatdagi narsa, voqyea va hodisalarning mazmun-mohiyatini anglashlari hisobiga bo'ladi. Bu davrda o'smir til yordamida atrof-borliqni aks ettirish bilan bir qatorda inson dunyoqarashini ham belgilab berish mumkinligini his qila boshlaydi.

Aynan shu yosh oralig'idan boshlab, inson nutq bilish jarayonlarining rivojlanishini belgilab berishini tushuna boshlaydi. O'smirni ko'pincha muomalada so'zlarni ishlatish qoidalarini – “«Qanday kilib to'g'ri yozish kerak?» «Qanday kilib yaxshiroq aytish mumkin?»», «Nima deyish kerak?»», kabi savollar juda qiziqtiradi. O'smirlar maktabdagi o'qituvchilar, kattalar, ota-onalar nutqidagi kamchiliklariga, kitob, gazeta, radio va televidenie diktorglari xatolariga tez e'tibor beradilar. Bu holat o'smirning bir tomondan o'z nutqini nazorat etishga o'rgatsa, ikkinchi tomondan kattalar ham nutq qoidalarini buzishlari mumkinligini bilishlariga va o'zida mavjud xatoliklarni birmuncha barham toptirishlariga olib keladi.

O'smir so'zlarning kelib chiqish tarixiga, ularning aniq mazmuni va mohiyatiga juda qiziqadi. U o'z nutqida yosh bola kabi emas, balki katta odamlardek so'zlarni tanlab ishlatishga harakat qiladi. Nutq madaniyatini egallash borasida o'smir uchun o'qituvchi, albatta, namuna bo'lishi shartdir. Aynan maktab ta'limi o'smir bilish jarayonlarini rivojlanish yo'nalishini sifat jihatidan o'zgarishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Maktabdagi o'quv jarayonlarining to'g'ri tashkil etilishi va amalga oshirilishi bilan o'smir nutqining to'g'ri rivojlanishiga sharoit yaratiladi. Nutqni o'zlashtirishga harakat bu o'smirning muomala, bilish va ijodiy faoliyatga kirishishiga ehtiyoj va intilish hisoblanadi. O'smirlik yoshi dunyoqarash, e'tiqod, o'zligini anglash, baholash kabi shaxs xususiyatlari shakllanadigan davr hisoblanadi. O'smir ulg'aygan sari unda «Ideal Men», «Axloqiy Men» va «Haqiqiy Men»

singari shaxsga oid tizim, dunyoqarash, e'tiqod va boshqalar shakllana boradi, undagi o'zi to'g'risidagi tasavvurlar ancha aniq va barqaror bo'lib qoladi.

O'smir o'z faoliyatini muayyan tamoyil, e'tiqod va shaxsiy nuqtai nazari asosida tashkil qila boshlaydi. O'smir shaxsini tarkib toptirishda uning atrof-muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim. Psixologik tadqiqotlardan ko'rinadiki, o'smirlarning ko'pchiligi qat'iyatlilik, kamtarlik, mag'rurlik, samimiylik, dilkashlik kabi ma'naviy, ahloqiy tushunchalarni to'g'ri anglaydilar. Ularning turmush tajribasida fan asoslarini egallash natijasida barqaror e'tiqodiy va ilmiy dunyoqarash tarkib topadi, shular zaminida axloqiy ideallar yuzaga kela boshlaydi.

Ma'lumki, o'smirlik davrida o'smirning «men»i qaytadan shakllana boradi. Uning atrofida qilari ayniqsa, o'z-o'ziga bo'lgan munosabati, qiziqishlari, qadriyatlarini yo'nalishi keskin o'zgaradi. O'smir yoshdagi bolani birinchi galdagi intilishi, u o'zini endi kichkina bola emas, balki katta bo'lib qolganligini atrofida qilargalari ishonitirishdan iboratdir. Mustaqil ishlar qilishga uringan o'smir shunday qilishga xaqqi borligiga o'zini-o'zi ishonitiradi, chunki men endi «katta bo'lib qoldim» deb o'ylaydi. Shuning uchun xam psixologlar «katta bo'lib qolganlik tuyg'usi»ni shaxsning o'smirlik yoshidagi eng asosiy yangilik sifatida talqin qiladilar.

Adabiyotlar

1. A.Turg'unbayeva «O'smirlik davrida uchraydigan xulqi og'ishlarga ijtimoiy-psixologik yondashuv», 2015, 34-35.
2. Jumanazarov Yo., Mullaboyeva H. O'smirlar va otanalar munosabatlari. Ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Namangan 2009, 79-80
3. Nishanova Z.T., Xalilova H.I., «Psixokorreksiya» T. 2006
4. Jumanazarov.Yo., Raxmonov A., «Yosh va pedagogik psixologiya (muammoli maruzalar matni)» Namangan 2004.

PSIXOLOG MUTAXASSISNING OILAGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISHDAGI ASOSIY VAZIFALARI

F.A. Akramova, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Umumiy psixologiya” kafedrası v.b.professori, psixologiya fanlari doktori

Данная статья посвящена основным задачам психолога в оказании психологической службы семье, а также рассматривается вопрос необходимости знаний о типах семьи и даны рекомендации по стабилизации внутрисемейных межличностных отношений.

Ключевые слова и понятия: психолог специалист, оказание психологической службы, климат семьи, задачи семейного психолога, типы семьи и проблемы.

This article is devoted to the main tasks of a psychologist in providing psychological service to the family, and also discusses the need for knowledge about family types and provides recommendations for stabilizing intra-family interpersonal relationships.

Key words and concepts: specialist psychologist, provision of psychological service, family climate, tasks of a family psychologist, family types and problems.

Mamlaktimizda oilalar farovonligini ta'minlashda oilalar va mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitning barqarorligini saqlash, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashda

oilalar bilan ishlaydigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, mahallalarda oilalar bilan ishlaydigan mutaxassislarni zarur psixologik, huquqiy bilimlarga ega bo'lishi dolzarb

vazifalardir. Shu o'rinda barcha rivojlangan mamlakatlarda oilani mustahkamlashga qaratilgan chuqurlashtirilgan ilmiy tadqiqotlar, shuningdek oila, oila psixologiyasi, ijtimoiy psixologiyaga mo'ljallangan mutaxassisliklar bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda amaliyotchi psixolog mutaxassisligining zaruriy ehtiyoj sifatida qabul qilinishini oila muammolari hal etilishida qo'yilgan eng muhim qadamlardan biri deyish mumkin. Shu bois bu borada amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalardan biri kerakli metodik qo'llanmalar, tavsiyalarni ishlab chiqish va amaliy metodikalarni yaratishdan iboratdir.

Oilaga psixologik xizmat ko'rsatadigan psixologning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Oilalarning turlarini bilgan holda har bir oilaga individual yondashib, psixologik maslahat ishlarini olib borish;

2. Oila muhitidagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar, oilaviy nosog'lom muhitning sababini aniqlay olish;

3. Oila a'zolarining yosh, jins xususiyatlariga ko'ra psixologik diagnostika metodlarini qo'llay olish, tahlil etish hamda ular bilan psixokorreksion ishlarni o'tkazish;

4. Oila a'zolarining psixologik savodxonligini oshirish faoliyatini uyushtirish;

5. Psixologik maslahat olish uchun murojaat qiluvchi oila a'zolarining psixologik xususiyatlarini o'rganish;

6. Oila muhitida psixologik muhitni o'rganish va uni barqarorlashtirish;

7. Oilada shaxslar, ularning o'zaro munosabatlariga oid ilmiy-amaliy ma'lumotlarni qo'llay olish.

Oilaga psixologik maslahatni qo'llash vujudga kelgan bevosita muammo bilan psixologga murojaat qilingandan keyin boshlanadi. Oilaga psixologik xizmatni amalga oshirishda:

1) muammoni aniqlash va anglash, so'ngra uni hal qilish yo'llarini topish;

2) oila muammosi haqida umumiy xulosaga kelish;

3) psixologik maslahat berish jarayonida eng muhim jihat - mavjud muammoni murojaat qilgan insonning o'zi hal qilishiga imkon yaratib berish;

4) psixologik maslahat jarayonida oilaning har bir a'zosining individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olishga e'tiborli bo'lish;

5) oila a'zosining hissiy-psixologik holatlarini boshqarish, o'zini o'zi tarbiyalashga oid usullarni tavsiya eta olish;

6) oilada o'zaro munosabatga kirishish va muloqot o'rnatish uquvini rivojlantirishga ahamiyat berish;

7) psixologik maslahat jarayonida oila a'zosi bilan olib borilgan psixologik xizmat natijasida oila a'zosining o'zini anglash va o'zgarishini yuzaga keltirishga erishish.

Oilaga psixologik xizmat ko'rsatishda ob'ekt - oila muhitidagi turli yoshdagi oila a'zolari, jumladan, farzandlar, ota-onalar hisoblanadi. Oilaning bu a'zolarini indi-

vidual, yakka, guruhiiy shaklda o'rganish va psixologik maslahat ko'rsatish mumkin.

Oilaga psixologik xizmat ko'rsatishning maqsadi oilada sog'lom muhit yaratish bo'lib, bu borada ta'lim tizimi sohalari, mahalla maskanlarida faoliyat olib boradigan yuqori saviyali psixolog kadrlar bilan ta'minlash va ular malakasini oshirishni tashkil etish ishlarini olib borish ham muhim bo'lib, quyidagilarni amalga oshirishga ahamiyat berish maqsadli:

1. Oila a'zolarining psixologik xususiyatlari, ularning qiziqishi, mayli, oila motivlarini o'rganish kerak bo'ladi.

2. Oiladagi farzandlar, kattalar, er-xotinlar xulq-atvorida uchraydigan kamchiliklar, shaxs fazilatlaridagi buzilishlarni diagnostika qilish zarur bo'ladi.

3. Boshqa sohaning mutaxassislari (otinoyi, imom xatib, huquqshunos, vrachlar) bilan birgalikda oila muammolari xilma-xilligini hisobga olgan holda oilaga psixologik maslahatni amalga oshirish maqsadli bo'ladi.

4. Oila a'zosining yoshi, jinsi, mavqeyidan qat'iy nazar, psixologik yordam ko'rsatishda individual darajada so'zlashish va maslahat ko'rsatish kerak bo'ladi.

5. Psixolog odamlar bilan muloqot qilishda xushmuomala bo'lishi, hurmatni saqlashi hamda maslahat oluvchining individual-psixologik, yosh, jins xususiyatlarini bilib olishga intilishi kerak bo'ladi.

6. Jinsi, yoshi, millati, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi holatidan qat'iy nazar tahqirlashga yo'l qo'ymaslik.

7. Maxfiylik - oila bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni begonalarga oshkor qilmaslik.

8. Oilaga yordam ko'rsatishda mutaxassis-psixolog inson qadr-qimmatini, shaxsiyati, fikri, hayotiy qadriyatlarini hurmat qiladi va e'tibor qaratishi ham zarur bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, oilaga ko'rsatiladigan psixologik maslahat ishlari samarali va muvaffaqiyatli bo'lishida psixolog mutaxassis o'z oldiga to'g'ri va asosli vazifalarni qo'ya olishi mumkin va muhimdir.

Adabiyotlar

1. Akramova F.A. O'zbekistonda oilaviy psixologik xizmatning ijtimoiy-psixologik muammolari. Monografiya. - T.: OOO "NORI" MChJ, 2019. - 186 b.

2. Akramova F.A., Bilolova Z. Oilada kelishmovchiliklarni bartaraf etish psixologiyasi. Ilmiy-uslubiy qo'llanma. - Toshkent.: OOO "NORI" MChJ, 2019. - 32 b.

3. Akramova F.A. Oilada shaxslararo munosabatlarining oila mustahkamligiga ta'siri masalalari. Monografiya - T.: OOO "NORI" MChJ, 2019. - 130 b.

4. Karimova V. Oilaviy hayot psixologiyasi: O'quv qo'llanma. - T.: 2006 - 142 b.



SHAXS KASBIY FAOLIYATINING ASOSIY PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

S.M.Yuldasheva, Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Psixologiya" kafedrası o'qituvchisi

В данной статье теоретически анализируются основные психологические проблемы индивидуальной профессиональной деятельности. Описаны результаты ряда исследований, касающихся важных задач профессионального образования, этапов профессионального становления, выбора профессии.

Ключевые слова и понятия: личность, профессиональная деятельность, профессиональные устремления, профессиональное образование, профессиональная адаптация, профессиональное самоопределение, профессиональный выбор.

This article theoretically analyzes the main psychological problems of individual professional activity. The results of a number of studies related to the important tasks of vocational education, the stages of professional development, and the choice of a profession are described.

Keywords and concepts: personality, professional activity, professional aspirations, professional education, professional adaptation, professional self-determination, professional choice.

Shaxsning kasbiy kamoloti masalasi uning hayotida muhim o'rin tutadigan faoliyat yo'nalishidir. Bu faoliyat yo'nalishini to'g'ri tanlash va belgilash keng ko'lamdagi shaxsiy muammolarni hal etishga olib keladi. Shunga ko'ra, quyidagi mulohazaga e'tibor qaratish ancha muhimdir. "Kasb tanlash – kasb talablaridan kelib chiqib, bir qancha variantlar orasidan shaxsiy xususiyatlari va xislatlari ustuvorligiga ko'ra munosibrog'ini tanlashni bildiradi. Kasb tanlash kasbiy yo'nalganlikka nisbatan bir muncha murakkabrog' jarayon. Chunki shaxsda kasbga xos xususiyatlar – muayyan kasbni egallashga tayyorgarlik (bilim, tajriba, dunyoqarash doirasining kengligi) darajasining mavjudligini aniqlash talab etiladi. Kasbiy shakllanish va kasbiy faoliyat muammolarini tadqiq etish dolzarb va keng qamrovli psixologik-pedagogik muammo sifatida baholash uchun barcha asoslar mavjud. Mazkur muammo ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida shaxs oldiga yanada kattaroq talablar qo'yadi.

Ilmiy manbalarining tahlili shundan dalolat beradiki, kasb tanlash, kasbga yo'naltirish, kasbiy o'zlikni anglash va aniqlashga taalluqli umummetodologik va nazariy muammolar borasida qator izlanishlar olib borilgan, bular: L.A.Aza, G.M.Belokrilo, A.ye.Golomshtok, V.I.Jukovskaya, ye.A.Klimov, M.X.Titma, P.A.Shavir, M.G.Davletshin, N.Sh.Shodiev, B.R.Qodirov, E.G'.G'oziev va boshqalar [1-14].

Qator tadqiqotlar kasb tanlash, kasbiy faoliyatga yaroqlik va shaxsning kasbiy o'zligini anglashi masalalari, kasbiy faoliyatning psixologik talablari va individ faoliyatining psixofiziologik asoslari, kasbiy qiziqishlarning shakllanishini o'rganishga bag'ishlangan. Bu yo'nalishlarda M.X.Titma, Ye.A.Klimov, V.G.Maksimov, A.P.Chernyavchkaya, Ye.A.Golomshtok, K.M. Gurievich, N.D.Levitov va boshqalarning olib borgan tadqiqot ishlarini misol qilib keltirish mumkin [7-10].

Kasbiy o'zlikni aniqlash borasidagi izlanishlarning tahlilidan kasbiy faoliyatning har bir bosqichiga tizim sifatida qarash kerak, degan xulosani chiqarish mumkin. T.M.Buyakas, N.D.Levitov, O.N.Rodinalar o'z tadqiqotlarida kasbiy kamolotning bosqichlaridan biri hisoblangan kasbiy maslahatga alohida e'tibor qaratib, uni shaxsning ma'lum kasbiy faoliyatga moslashuvi jarayonida yo'naltiruvchi sifatida baholaydilar hamda faoliyat samaradorligini shaxsning qobiliyatlariga bog'lab tushuntiradilar.

Biz o'z izlanishimizda bugungi kunda talabalar shaxsining kasbiy shakllanishidagi tasavvurlari, kasb tanlashga sabab bo'luvchi omillar va kasb tanlashga nimalar ta'sir ko'rsatayotganligi, kasbiy faoliyat motivlarining darajalari, shaxsiy va kasbiy maqsad, qiziqishlari hamda kasbiy qarorlari nimadan iborat ekanligini aniqlashga e'tibor qaratdik. Shunday bo'lsa ham hozirgacha ilmiy tadqiqotlarda kasb tanlashning turli xil sabablari mavjudligi aniqlangan.

Kasbiy ustanovkani aniqlash metodikasi savolnomasi (I.M. Kondakov)

To'rtburchak ichida berilgan jummalarni diqqat bilan (lozim bo'lsa qayta-qayta) o'qib chiqing.

Har bir topshiriq kasb tanlayotgan yoshlarning ruhiy holatini tavsif etuvchi 5 ta jumladan iborat. Ularning ba'zilari Sizdagi vaziyatga ko'proq mos kelsa boshqalari Sizdan uzoqroq yoki Sizni tavsif etmaydi. Sizdan mazkur jummalarni o'zingizga yaqin-uzoqligiga ko'ra tartiblab chiqish so'raladi. Ya'ni, Sizni eng ko'p xarakterlaydigan jumlaning tartib raqamini javob varaqasining 1-katakchasiga, ikkinchi navbatda mos keladigan jumlaning tartib raqamini 2-katakchaga yozib qo'yiladi va hok. Demak, Sizga nisbatan eng «uzoq» fikr ifoda etilgan jumlaning tartib raqami-5-katakchaga kiritiladi.

Marhamat, boshlang!

I-topshiriq

1. Kasblar olamini yaxshi bilmayman.
2. Kasb tanlashda o'tkinchi havaslardan qochishni afzal ko'raman.
3. O'zinga mos kasbni to'g'ri tanlash uchun ko'p narsadan kechishga roziman.
4. Har qanday kasbning uddasidan chiqa olaman.
5. Kasb tanlashim haqida menga berilgan har xil misollarni diqqat bilan tinglayman.

II-topshiriq

1. Kasbni to'g'ri tanlash uchun yordamga muhtojman.
2. Har xil o'y-xayollar bilan vaqtni bekor ketkazmasdan bo'lajak kasbinga aniq qadamlar qo'yish zarur deb o'ylayman
3. Nasib qilsa, tanlagan kasbim o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.
4. Kelajakda yuksak malakali mutaxassis bo'lishimga shubha yo'q.



5. Tengdoshlarim qatori biron bir kasb egasi bo'lsam, shu men uchun kifoya

III-topshiriq

1. Kasb tanlashda qat'iyatli emasman.
2. Kasbni to'g'ri tanlash uchun aniq reja tuzib olishim kerak, deb o'ylayman
3. Bo'lajak kasbinga munosib bo'lishim uchun ko'p xislatlarimni o'zgartirishga tayyorman.
4. Mendagi xislatlar har qanday kasbga mos keladi.
5. Mening bo'lajak kasbim boshqalarni ham bezovlantirsa, o'zimni bardamroq his etaman.

IV-topshiriq

1. Bo'lajak kasbni tanlashda o'z imkoniyatlarim, otanam istagi va hok. asoslanishimni bilmay ikkilanaman.
2. Turli kasblarga har xil odamlar tomonidan berilgan ijobiy yoki salbiy tavsiflarga ishonaverish maqsadga muvofiq emas.
3. Bo'lajak kasbim mening barcha imkoniyatlarimni ro'yobga chiqarishimga yordam beradi.
4. Yaxshi mutaxassis bo'lishim uchun barcha imkoniyatlarim yetarli.
5. Menimcha yoshlarni bo'lajak kasblarni tanlashlari uchun odatda kattalar yaxshi sharoit yaratib berishmaydi.

V-topshiriq

1. Kasbiy hayotimni nimadan, qanday boshlashimni mutlaqo bilmayman.
2. Bo'lajak kasb allaqachon tanlangan bo'lsa ham, u mavzusida qayta-qayta o'ylab ko'rilsa zarar qilmaydi.
3. Tezroq biror joyda ishlab erkinlikka erishishni juda ham xohlayman.
4. Kasbiy hayotda o'zimni munosib o'rinimni topishimga hech qanday shubha yo'q.
5. Kasb tanlashda odamlarning maslahatlariga, har xil hayotiy o'rnaklarga ko'p e'tibor beraman.

VI –topshiriq

1. Gohida kasb tanlashda o'ta beqarorligimdan xafa bo'lib ketaman.
2. Kasb tanlash va kasbiy mahorat sirlarini chuqur o'rganishni, juda muhim deb bilaman.
3. Ba'zan bo'lajak kasbimni menga ochadigan imkoniyatlarini o'ylab, ko'ngil yorishib ketadi.
4. O'zimdand kechib bo'lsa ham kasbiy hayotimda uchragan har qanday to'siqni albatta yengib o'taman.
5. Hozircha «Katta bo'lishga» (ya'ni biron kasb egasi bo'lishga) intilishni unchalik zarur emas, deb o'ylayman.

VII –topshiriq

1. Omadsizligim tufayli kasb tanlashda ham baxtim chopmaydi, deb qo'rqaman.
2. Kasb tanlashda kasblarni tashqi «jilo»siga uchishni noto'g'ri deb bilaman.
3. Istiqboli keng bo'lgan kasbni tanlashda birinchi navbatda qalbim amriga ishonaman.
4. Men tanlagan kasb qat'iy bo'ladi, uni hyech qachon o'zgartirmayman.
5. Agar atrofdagilar mening biror bir kasbni egallashim ustida qattiq turib olishsa, e'htimol ularga ko'nishim mumkin

VIII –topshiriq

1. Bo'lajak kasbim to'g'risida aniq bir tasavvurga ega emasman.
2. Kasb tanlashga hissiyotlarga emas, fikr mulohazaga tayanishni ma'qul ko'raman.
3. Umid qilamanki, bo'lajak kasbim menga baxt keltiradi.
4. Kelajakda kasbiy hayotimda favqulodda bir yangilik kiritmoqchiman.
5. O'qishini davom ettirish imkoni bo'lsa edi, ish topishga hech qachon shoshilmagan bo'lar edim.

JAVOB VARAQASI

Familiya _____ Ismi _____

Topshiriqlar	1	2	3	4	5
I					
II					
III					
IV					
V					
VI					
VII					
VIII					

NATIJALARNI HISOBLASH

	1-ustunda	2-ustunda	3-ustunda	4-ustunda	5-ustunda	Xomaki ball
1 lar soni	☐ x5=	☐ x4=	☐ x3=	☐ x2=	☐ x1=	
2 lar soni	☐ x5=	☐ x4=	☐ x3=	☐ x2=	☐ x1=	
3 lar soni	☐ x5=	☐ x4=	☐ x3=	☐ x2=	☐ x1=	
4 lar soni	☐ x5=	☐ x4=	☐ x3=	☐ x2=	☐ x1=	
5 lar soni	☐ x5=	☐ x4=	☐ x3=	☐ x2=	☐ x1=	



O'spirinlarning kasbiy o'zlikni anglashi borasidagi holatlari tahlil qilinganda, ularning kasblar to'g'risidagi tushunchalarida sayozlik mavjudligi ko'zga tashlandi. Bundan tashqari, kasbiy o'zligini anglash bilan ma'lum kasbni tanlash jarayoni o'rtasida ta'lim-tarbiya muhiti va atrof-dagilarning ta'siri omillarini nazardan chetda tutmasligimiz lozim bo'ladi. Mazkur o'zaro ta'sir jarayonlaridagi dialektik bog'liqlikning o'ziyoq ushbu masalaning naqadar murakkabligidan dalolat beradi. Masalan, birgina kasbiy maslahatni tashkil etishning bir qator bosqichlari mavjud:

a) kasbiy ma'lumot bosqichida shaxs o'zi uchun mehnatni tashkil etish, ishga qabul qilish talablari, turli kasblarni egalashi, ularni tayyorlash bosqichlari va ta'lim olish muddati, mehnat haqi va kasbning istiqboli xususida ma'lumotlar oladi;

b) diagnostik bosqichda shaxsning o'z tanlagan kasbga nisbatan qiziqishlari, layoqati, qobiliyati va maqsadlarining mosligi o'rganiladi;

v) shakllantiruvchi bosqichda kasb tanlagan o'quvchi yoki shaxsga rahbarlik qilinadi, kasb tanlashdagi og'ishlarning oldi olinadi va tuzatishlar kiritiladi;

g) tibbiy jihatdan salomatligining kasbga mos kelishini aniqlash va psixologik bosqichda shaxs sifatlarining o'z tanlagan kasbga muvofiqligi masalalari muhokama qilinadi.

Umuman olganda kasb tanlash muammosi bilan bog'liq barcha jarayonlar quyidagi holatlarda o'z yechimini topishi ko'zda tutiladi:

1. Kasb tanlash, kasbga o'zining mosligini aniqlash, kasbiy shakllanish, kasbiy rivojlanish uzluksiz davom etuvchi muammo bo'lib, davrning o'zgarishiga qarab unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning rolini aniqlash zarurdir.

2. Kasb tanlash va kasbiy shakllanishdagi tasavvurlar atrof-dagilarning ta'sirida va mustaqil qaror qabul qilish layoqatiga ega emasligi tufayli yuz bermoqda. Natijada kasbiy shakllanish yo'nalishi bilan kasbiy maqsad o'rtasida moslik yo'qolgan.

Adabiyotlar

1. Avlayev O. U. Gender differences of social intelligence in student development. Scientific journal "Psychology". 2021. № Pages 1, 34-41.

2. Абрамова Г.С. Практическая психология. Учебник для студентов вузов. – Изд., 6-е., перераб. и доп.- М.: Академический Проект, 2001.- 480 с.

3. Аза Л.А. Особенности профессионального самоопределения молодежи. Философская и социологическая мысль.-1989.-№ 6.-С 3-10.

3. Ананьев Б.Г. О проблемах современного человекознания. -М., 1977. -287 с.

4. Burkanov A., Avlayev O., Abduljalilova Sh. Responsibility as a criterion for determining personal maturity / E3S Web of Conferences 2021.

5. Давлетшин М.Г., Захарина М.С. Профессиональная ориентация учащихся. –Ташкент: Укитувчи, 1986.-82 с.

6. Зеер Э.Ф. Психология профессий. Екатеринбург, 1999.-184 с.

7. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. Ростов. Н.Д., 1996.-382 с.

8. Кондаков И.М., Сухарев А.В. Методологические основания зарубежных теорий профессиональной развития//Вопросы психологии. 1989. №5. С.157-164.

XXI ASR KO'NIKMALARI VA BLUM TAKSONOMIYASI

I.Yu.Bobojonova, A.Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti tayanch doktranti

В статье представлена информация о навыках XXI века, таксономии Блума, освещена связь между ними. Представлены рекомендации по постановке целей обучения на основе таксономии Блума в развитии навыков у учащихся.

Ключевые слова и понятия: навыки, таксономия, знания, анализ, критическое мышление, творчество, грамотность.


The article presents information about the 21st century skills, Bloom's taxonomy, highlights the relationship between them. Recommendations on setting learning goals based on Bloom's taxonomy in the development of the 21st century skills of students are presented.

Keywords. Skills, taxonomy, knowledge, analysis, critical thinking, creativity, literacy.

XXI asr oldingi asrdan farqli ravishda insoniyat oldiga yangi talablarni qo'ydi. Chunki XXI asrda insonlarning ehtiyojlari misli ko'rilmagan darajada ortdi, texnologiyalar shiddat bilan rivojlandi, qolaversa, global muammolar ham yuzaga chiqdi. Bularning barchasini hal qilish uchun insoniyat yangi bilim cho'qqilarini zabt etishi talab etiladi. Bu esa zamonga mos, uning talablariga javob beradigan va ehtiyojlarini qondiradigan ta'lim berish bilangina hal qilinadi. Xo'sh, XXI asrda inson o'zini rivojlantirishi, "o'sishi", kamida "omon qolishi" uchun qanday ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur? Bu savolga quyida batafsil to'xtalamiz.

Biz ko'pincha "XXI asr ko'nikmalari" ning ahamiyati haqida eshitamiz, lekin ular aynan nima? XXI asrning ko'nikma-

lari oddiy so'zlardan ko'ra ko'proq, sodda qilib aytganda, borgan sari rivojlanib va murakkablashib borayotgan zamon-da o'quvchilarning muvaffaqiyatga erishishlari uchun zaruriy bo'lgan ko'nikmalardir. Ular turli yo'llar bilan aniqlanishi mumkin, ammo XXI asr ko'nikmalari odatda o'quvchilarni maktabda va o'qishlarida qo'llab-quvvatlaydigan akademik va hayotiy ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Ular XXI asrda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan muhim hayotiy ko'nikmalardir. O'quvchilarga nimani o'ylashni emas, qanday o'ylashni o'rgatishga ularni tayyorlash ta'limning oldida turgan bugungi kun talabidir. XXI asr ko'nikmalari bilimlar iqtisodiyotida eng ko'p talab qilinadigan ko'nikmalardir. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:



Bu ko'nikmalarning barchasi yuqori darajadagi fikrlashga asoslangan. Masalan, o'qish savodxonligi – bu oddiy jumlanga o'qishdan tortib, biror katta hajmdagi axborotni tushunish-gacha bo'lgan savodxonlikni anglatadi. Mediasavodxonlik o'quvchilardan axborot manbalarini baholay olish, qaysi manbalar va faktlar ishonchli ekanligini aniqlash va yangi ma'lumotlarni boshqa ma'lumotlar bilan mazmunga solishni talab qiladi. Kreativ fikrlash - turli manbalardan olingan ma'lumotlarni sintez qilish, turli g'oyalarni baholash va tushunchalarni yangi usullarda birlashtirish qobiliyatiga asoslanadi. XXI asr ko'nikmalari, asosan, yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlarini birlashtirish va ifodalashning turli usullaridir.

Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish, jumladan, fikrlashning turli uslublarini uyg'unlashtirish va qaysi kognitiv qobiliyatlarini topshiriq uchun eng mos kelishini aniqlash qobiliyati o'quvchilarni XXI asr talablariga tayyorlaydi. Shuningdek, bu ularga umrbod o'rganuvchilar bo'lishlari, jamiyatda fuqarolar sifatida to'liq ishtirok etishlari, boshqalar bilan ijobiy aloqalar o'rnatishlari va shaxsiy maqsadlariga erishishlari uchun zarur vositalarni beradi.

XXI asr o'quvchilari yangi ma'lumotlar va tajribalarga tezkorlik bilan yondashishlari sababli, ular o'qituvchilardan dars jarayonida eng samarali va qiziqarli texnologiyalardan foydalanishlarini, shu bilan birgalikda o'zlari uchun darsda yangiliklar ishlab chiqib ularni qo'llash imkonini berishlarini xohlaydilar. Bu hozirgi ta'lim tuzilmasidan XXI asr o'quvchilarining ehtiyojlariga e'tibor qaratish, innovatsiya va ijodkorlikni rag'batlantirish va texnologiya orqali sinfda o'qitishning yangi qiyofasini yaratishni talab qiladi. Bu ehtiyojlarni qondirish va o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish uchun Blum taksonomiyasidan foydalanish kutilgan natijaga olib boradi, deb aytay olamiz.

Chunki Amerikalik mashhur psixolog va pedagog Benjamin Blum tomonidan asos solingan savol va topshiriqlar tizimi - bilish faoliyati darajalariga asoslangan o'quv maqsadlari taksonomiyasi zamonaviy ta'lim olamida yetarli darajada keng tarqalgan va sinovdan o'tgan.

Blum tafakkurni bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishda oltita darajaga ajratdi. Bir necha bosqichli savollar tizimining asosiy maqsadlari: o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalariga oid bo'lgan tanqidiy fikrlashni hosil qilishga yordam berish, ijodkorlik, muloqot o'rnatish, o'zaro hamkorlikda ishlash qobiliyatini rivojlantirish hamda muammolarni yechish va maqsadli obyektiv yechimlarni topishdan iborat. Qachonki, o'qituvchi o'quvchining chuqur o'ylash jarayonini bosqichma-bosqich rag'batlantirib borsa yuqoridagi maqsadlarga erishish mumkin. Shuning uchun Blum fikrlash jarayonini sistemalashtirgan holda bir necha bosqichli savollar tizimini ishlab chiqqan.

Blum taksonomiyasiga asoslangan mashqlarni ishlab chiqish uchun ushbu kalit so'z va iboralardan foydalanish mumkin (Blumning yangilangan taksonomiyasi asosida tuzilgan):

Daraja	Kalit so'zlar/fe'llar
1. Eslab qolish	kim, nima, nima uchun, qachon, qayerda, qaysi, qanday; tanlash, topish, belgilash, ko'rsatish, moslashtirish, nomlash, bog'lash, aytib berish, eslash. <i>Masalan: "finish"-tugatmoq fe'llining o'tgan zamon shakli qanday ifodalanadi?</i>
2. Tushunish	ko'rsatish, sharhlash, tushuntirish, kengaytirish, tasvirlash, xulosa qilish, bog'lash, takrorlash, tarjima qilish, umumlashtirish, ko'rsatish, tasniflash. <i>Masalan: Nima uchun "finish"-tugatmoq fe'li o'tgan zamonda "finished" shaklida bo'lishini tushuntiring.</i>
3. Amalda qo'llash	qo'llash, qurish, tanlash, ishlab chiqish, suhbatlashish, foydalanish, tashkil qilish, tajriba qilish, rejalashtirish, hal qilish, modellashtirish. <i>Masalan: "finished" o'tgan zamon fe'lini qo'llab gap tuzing.</i>
4. Tahlil qilish	tahlil qilish, turkumlash, tasniflash, solishtirish, ajratish, tekshirish, soddalashtirish, tadqiq qilish, farqlash, munosabatlar, funksiya, motiv, taxmin, xulosa. <i>Masalan: Berilgan matnda o'tgan zamonda ifodalangan to'g'ri va noto'g'ri fe'llarni aniqlang va ularni tahlil qiling.</i>
5. Baholash	tanlash, xulosa qilish, tanqid qilish, qaror qilish, himoya qilish, aniqlash, bahslashish, baholash, hukm qilish, asoslash, o'lchash, tavsiya qilish, tanlash, rozilik berish, sharhlash, isbotlash/inkor qilish, ta'sir qilish, chiqarib tashlash. <i>Masalan: Berilgan matnda o'tgan zamonda ifodalangan to'g'ri va noto'g'ri fe'llarni noto'g'ri foydalanilganligini asoslang.</i>
6. Yaratish	qurish, birlashtirish, tuzish, qurish, yaratish, loyihalash, ishlab chiqish, taxmin qilish, shakllantirish, rejalashtirish, bashorat qilish, taklif qilish, hal qilish/yechish, o'zgartirish, yaxshilash, moslashtirish, minimalashtirish/maksimalashtirish, nazariya qilish, sinovdan o'tkazish. <i>Masalan: Berilgan o'tgan zamon fe'llaridan foydalanib hikoya tuzing?</i>



Ushbu fe'llarning har birini "yuqori darajadagi fikrlash qobiliyati" deb tasniflash mumkin. Bu kabi fe'llardan dars uchun o'quv maqsadlarini belgilashda va o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishda foydalanish zarur. O'quvchilarni eslab qolish, tushunish, amalda qo'llash, tahlil qilish, baholash va yaratishga o'rgatish ularga umrining oxirigacha foyda keltiradi.

Ko'rib turganingizdek, XXI asr ko'nikmalari va Blum taksonomiyasi bir-birini qamrab oladigan, to'ldiradigan ko'nikma va tushunchalarni o'z ichiga olgan.

Xulosa shuki, Blum taksonomiyasi asosida dars mashg'ulotlarining o'quv maqsadlarini belgilasak, o'quv topshiriqlarini ishlab chiqsak va mos metodlarni tanlasak, yuqorida aytib o'tilgan XXI asr ko'nikmalarini o'quvchilar-

imizda rivojlantirishga erishishimiz mumkin bo'ladi. Zero, bu ko'nikmalar XXI asrda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan eng muhim hayotiy ko'nikmalardir.

Adabiyotlar

1. P.Armstrong – Bloom's Taxonomy. Vanderbilt University Center for Teaching 2010.
2. <https://www.filamentgames.com/blog/blooms-taxonomy-and-21st-century-skills/>
3. <https://cft.vanderbilt.edu/guides-sub-pages/blooms-taxonomy/>
4. thinkco.com/blooms-taxonomy-in-the-classroom-8450.
5. <https://techprojectx.com/learn-more-about-projects/>

INKLYUZIV TA'LIMDA BOSHLANG'ICH SINIF ALOHIDA TA'LIMGA EHTIYOJI BO'LGAN BOLALARNI PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK QO'LLAB-QUVVATLASH

M.M.Kasimova, O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi metodisti, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti 2-bosqich magistratura talabasi

Инклюзивное образование – форма обучения, при которой каждому человеку, независимо от имеющихся физических, интеллектуальных, социальных, эмоциональных, языковых и других особенностей, предоставляется возможность учиться в общеобразовательных учреждениях.

Ключевые слова и понятия: инклюзивное образование, поддержка, особые образовательные потребности, адаптированное обучение, особый подход.

Inclusive education is a form of education in which every person, regardless of their physical, intellectual, social, emotional, linguistic and other characteristics, is given the opportunity to study in general educational institutions.

Keywords and concepts: inclusive education, support, special educational needs, adapted education, special approach.

Respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalarni inkluziv ta'limga jalb qilish borasida bir qator ilmiy-amaliy tajribalar olib borilmoqda. Juda ko'plab davlatlarda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni kamol toptirishda kompensator imkoniyatlarni rivojlantirish hamda ijtimoiy moslashtirishni to'raligicha yo'lga qo'yish maqsadida umumta'lim maktablari-da ta'lim berish davlat siyosati rejasiga kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 1 dekabrda PF-5270-son, "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimining 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 29 aprelda PF-5712-son Farmoni, "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020 yil 13 oktyabrda PQ-4860-son qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar mazmunida aholining ta'limga ehtiyojmand qatlamlariga ta'lim xizmatining moslashgan turlarini, differensial yondashuvlarga asoslangan tizimni joriy etish belgilab qo'yilgan.

Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bola maxsus yondashuvni talab etadi. Bolani shakllantirishni samarali amalga oshirish uchun har bir yosh davrlarida bola rivojlanishining psixologik qonuniyatlari haqidagi bilimlarni chuqur egallash darkor. L.S.Vigotskiy ta'kidlashicha, "nuqsonli bolani tarbiyalashning asosiy vazifasi boladagi nuqsonlarni kompensatsiya qilish va uning hayotga integratsiyasini ta'minlashdan iboratdir. Buning uchun shunday ta'lim tizimini yaratish kerakki, alohida yordamga muhtoj bola o'qish jarayonida har tomonlama rivojlan-

sin". Shuningdek, olim umumiy va maxsus ta'limni uyg'unlashtiradigan ta'lim tizimini tashkil etishda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni umumta'lim tizimida o'qitishni e'tirof etadi.

Inklyuziv ta'limga alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlari-ni to'g'ri tashkil etish orqali bolalarni maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali mahsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularni jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashu-viga xizmat qiladigan sifatli ta'lim berishni ta'minlashdan ibo-ratdir.

Inklyuziv ta'limga alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvat ishlari-ga quyidagilar kiradi.

Maktab tomonidan alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarga kerakli shart-sharoitlar yaratilgan bo'lishi. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchi uchun shart-sharoitlarni yaratish ularning ta'lim olishining birinchi sharti hisoblanadi. Bolalarga kerakli shart-sharoitlar bo'lmasa birinchi psixologik to'siq mana shu hisoblanadi. Masalan tayanch harakati a'zolarida muammolari bo'lgan bolalar uchun maktabda pandusning yo'qligi yoki bo'lsa ham talabga javob bermasligi, ya'ni tutqichlari yo'q bo'lishi yoki chiqish uchun noqulay balandlikda qurilgan bo'lishi bolani maktabga kelganda uning sinf xonasiga kirgunga qadar mashaqqat chekishiga olib keladi va shunday davom etsa bola maktabdan soviydi, uning uchun maktabga borish qiyin yo'ldek tuyiladi. Yoki zaif ko'ruvchi o'quvchi uchun zinalarda va yo'laklarda belgilarning yo'qli-

gi. Ajratilgan ranglarda belgilanmaganligi o'quvchini qiyin vaziyatga solib qo'yishi mumkin. Odatda inklyuziv sinfi bor maktablarda yo'laklar uchun yorqin ranglar sariq qizil ranglarda ko'rsatmalar, belgilar qo'yish mumkin. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bola shu belgilar asnosida sinf xonasini va zina, hojatxona, oshxona kabi kerakli joylarni topib borishiga sharoit yaratilsa bolaning maktabga kelishidagi psixologik to'siqlardan biri bartaraf etilgan bo'ladi.

Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni maktab jamoasi va sinf o'quvchilari tomonidan qabul qilinishi. Maktab jamoasining o'quv yili boshlangunga qadar inklyuziv boshlang'ich 1-sinfga qanday tashxisdagi alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bola qabul qilingani haqida habardor bo'lishi maqsadga muvofiq. Inklyuziv sinf o'quvchilarini alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bola bilan do'stona iliq muhitni shakllantirish uchun dastlab maktabga kelgan paytida sinfga kirganida uni sinfimizga xush kelibsan, degan ma'noda qarsaklar bilan kutib olish va o'qituvchi tomonidan uni ismi sharifi bilan tanishtirish va bugundan boshlab bu bola sizlarning sinfdoshingiz do'stingiz bo'ladi, do'stimizga hammamiz yordam berishga tayyormiz, birga o'qiyamiz, tanaffuslarda birga o'ynaymiz, deb dastlabki tushuntirish ishlarini olib borsa alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolani boshqa bolalar yaxshi kayfiyatda qabul qiladi.

Maktabda va sinfda iliq do'stona muhitni shakllantirish. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolani tanishtirganda, partada o'tirganda, tanaffusda, ovqatlanishga va hojatga borishda o'qituvchining ko'rsatmasi va o'zining ham birgalikda ko'rsatib berishi natijasida boshqa bolalarda ham alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarga nisbatan do'stona g'amho'rlik tuyg'ularini shakllantirish mumkin. Keyinchalik sog'lom bolalar ham, o'zlari yordamga tayyor turadigan bo'lib qolishadi.

O'qituvchining alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchini barcha bolalardek qabul qilishi (insoniylik nuqtai nazaridan). Ba'zan o'qituvchilar alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolani qabul qilgisi kelmasligi mumkin. Chunki bu bola bilan ishlash qiyinderk tuyuladi. Boshqa bolalar bilan solishtirganda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bola boshqacharoqligiga, bola bilan ishlashdan bosh tortirishi, yoki ba'zan sinfda o'tira olmasa bu bola boshqa bolalardek darslarni o'zlashtira olmasa, topshiriqlarni bajara olmasa, bola bilan ishlashni xohlamaslik holatlari ham uchray turishi mumkin. Aslida insoniylik nuqtai nazaridan ham bolani qabul qilishi va boshqa bolalar bilan birga bir sinfda bir safda ta'lim olishiga yordam berishi nazarda tutilmoqda.

Dars mashg'ulotlarida kerakli vaqtda o'quvchilarning alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolaga yordam berish uchun doimo tayyor turishi. Dars vaqtida har hil holatlar bo'lishi mumkin. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning nuqsonga qarab ehtiyojlari bor bo'ladi. O'quvchilar tomonidan ruchkani to'g'ri ushlashga yordam berishi, kitobning kerakli sahifasini ochishga, doskada birgalikda mashqlar bajarishga, tanaffusda birgalikda hojatga borib kelishi yoki oshxonaga birgalikda borib kelishiga, guruh bo'lib ishlashda unga berilgan vazifani bajarishga yordam berishi va hokazo vaziyatlarda o'quvchilarning alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarga yordamga tayyor turishi nazarda tutilmoqda.

Sinfdoshlarining qo'llab-quvvatlashi, hamkorlikda ishlashi natijasida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bola o'zini sog'lom bolalar qatorida his qilishi. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda harakatlanadi, ular bilan birgalikda guruh bo'lib ishlaydi, dars mashg'ulotlarini bajarsa u ham bajaradi, birgalikda ovqatlanadi, o'ynaydi

va hokazo. Shu bilan ular ham o'zlarini sog'lom bolalarga teng deb tasavvur qila boshlaydi.

Inklyuziv muhitda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning ijtimoiy vakolatlari va muloqot qobiliyatlari yaxshilanadi. Bu ko'p jihatdan alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning ushbu yoshga xos bo'lgan ijtimoiy va kommunikativ kompetensiya modeli tashuvchisi sifatida harakat qiladigan sog'lom tengdoshlari bilan ijtimoiy o'zaro aloqalari uchun ko'proq imkoniyatlarga ega ekanligi bilan bog'liq.

Inklyuziv muhitda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar yanada boy o'quv dasturlari bo'yicha ta'lim-tarbiya oladilar. Buning natijasida ularning bilim, ko'nikma, malaka va o'qishdagi yutuqlari yaxshilanadi. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni ijtimoiy jihatdan qabul qilish inklyuziv sinflarga xos bo'lgan kichik guruhli o'qitish orqali yaxshilanadi. Bolalar boshqa o'quvchining nogironlik chizig'ini u bilan kichik guruhda topshiriq bo'yicha ishlash orqali «kesib o'tishadi». Asta-sekin oddiy bolalar alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar bilan ko'p o'xshashliklarini anglay boshlaydilar. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan tengdoshlariga ta'lim va ijtimoiy tadbirlarda faol ishtirok etishlariga yordam berish orqali sog'lom bolalar o'zlari bilmagan holda eng muhim hayotiy saboqlarni o'rganadilar. Ushbu ijobiy tajriba ijtimoiy ongning o'sishidan, odamlar o'rtasida tafovutlarning yo'qligini anglashdan, o'z-o'zini anglash va qadr-qimmatini rivojlantirishdan, o'z prinsiplarini shakllantirishdan iborat bo'ladi. Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, zamonaviy umumiy ta'lim dasturi inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan o'zgarishlar va shartlarni, ya'ni har bir alohida o'quvchining individualligini qabul qilishni va har bir bolaning alohida ehtiyojlarini qondirishni o'z ichiga olishi kerak.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-2025 yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi. (<https://lex.uz/docs/-5044711>)
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. Lex.uz.
3. «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarori.
4. R.Sh.Shomahmudova. «Maxsus va inklyuziv ta'lim» Uslubiy qo'llanma. «Chashma print» nashriyoti- 2011 yil. 4 va 21 betlar.
5. Выготский Л.С. Дефект и сверхкомпенсация. // «Проблема дефектологии». М., 1996. –С. 42.
6. Крыжановская Л.М. Психологическая коррекция в условиях инклюзивного образования. Пособие для психологов и педагогов. – М.: «Владос», 2013. 83-6.
7. «Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari» xalqaro ilmiy amaliy konferensiya materiallari to'plami. Toshkent shahri -2011 yil 26 mart.
8. Azevedo F.S. (2018). An inquiry into the structure of situational interests. Sciencye Education, 102(1), –PP. 108–119.
- Internet saytlari:
9. <https://bmcpyschology.biomedcentral.com/articles/10.1186/s40359-020-00428-y>.
10. <https://www.routledge.com/Primary-School-Teaching-and-Educational-Psychology/Galloway-Edwards/p/book/9780582497160>.



ESHITISHIDA NUQSONI BOR BOLALAR OG'ZAKI NUTQINI SHAKLLANTIRISHDA FONETIK RITMIKA TEXNOLOGIYASINING ROLI

O.S.Ishmatova, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "Maxsus pedagogika" kafedrası o'qituvchisi

В данной статье описывается роль фонетико-ритмической методики в формировании устной речи детей с нарушением слуха.

Ключевые слова и понятия: фонетическая ритмика, специальная педагогика, сурдопедагогика, движение и речь, кинестетика, изолированное произношение, принимаем исходную позицию, звук, слог, текст, ритм, темп, интонация, метод.

This article describes the role of the phonetic-rhythmic technique in the formation of oral speech in children with hearing impairment.

Key words and concepts: phonetic rhythm, special pedagogy, deaf pedagogy, movement and speech, kinesthetics, isolated pronunciation, take the starting position, sound, syllable, text, rhythm, tempo, intonation, method.

Hozirda, ayniqsa surdopedagogika sohasidagi erishilgan texnologik yutuqlar eshitishida muammosi bor insonlarga yangi imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Eshitishida mummosi bor bolalar nutqining rivojlanmasligi ikkilamchi nuqson sifatida kelib chiqadi. Nutqning orqada qolish darajasi eshituv funksiyasining buzilganlik davriga bog'liq bo'lishi mutaxassislariga yaxshi ma'lum va aynan to'g'ri tashkil etilgan korreksion muhit, har xil turdagi nutqning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Surdopedagogika sohasida ilg'or metodikalari bilan ajralib turgan qator olimlarimiz maktabgacha va maktab yoshidagi kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqini rivojlantirish borasida tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Fonetik ritmika — bu maxsus mashqlar to'plami bo'lib, unda nutq va harakat uyg'unlashtirilgan holatda nutqiy materialni (tovush, bo'g'in, matn) umumiy tana (qo'l, barmoqlar, oyoq, bosh va korpus) talaffuz etish hisoblanib, bu borada 2022 yilda Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti "Maxsus pedagogika" kafedrası yo'nalishida tadqiqot ishi olib borildi. 2 yillik tajriba-sinovlar natijasida tanlangan ob'ektlarda bolalarning og'zaki nutq imkoniyatlari sezilarli darajada ortgani ko'zga tashlandi.¹

Endilikda ushbu metodikadan poytaxtimizning 101 va 106 maxsus ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida eshitishida muammosi bor bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda yakka va guruhli mashg'ulotlarda, ritmika va talaffuzga o'rgatish mashg'ulotlarida foydalanib kelmoqdalar.

Fonetik ritmika - nutq va harakat uyg'unlashtirilgan holatda nutqiy materialni (tovush, bo'g'in, matn) umumiy tana (qo'l, barmoqlar, oyoq, bosh va tana) harakatlari bilan birga talaffuz etishdir. Bu mashg'ulotlarning maqsadi eshitishda nuqsoni bor bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish; ko'ruv-eshituv tasavvurini boyitish; tovush funksiyalarini faollashtirish; nutqiy faoliyatni faollashtirish; kinestetik sezgilar asosida nutqning talaffuz va harakatni ohangiga moslashtirishdan iborat. Vazifalari nutqiy nafasni normallashtirish va unga aloqador nutqning birlashishi; ovoz kuchini va balandligini o'zgartirish qobiliyatini shakl-

lantirish, normal tembrni me'yordan qo'pol ravishda chetga chiqmasdan saqlash; bo'g'inlar va so'z birikmalarida, so'zlarda hamda iboralarda tovushlarni va ularning kombinatsiyalarini to'g'ri takrorlash; nutq materialini ma'lum bir sur'atda takrorlash; turli ritmlarni his qilish, farqlash va takrorlash; his-tuyg'ularni turli xil intonatsion vositalar bilan ifodalash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish. Fonetik ritmika usuli talaffuz ustida ishlash mashg'ulotlarining har biriga nutq nafasi, ovoz, tovushlar va ularning kombinatsiyasi, ritm, temp, intonatsiya kabi jarayonlarni kiritishni tavsiya etadi.

Mualliflar eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar og'zaki nutqini shakllantirishda talaffuz ustida ishlashning birinchi qadami sifatida, fonetik ritmika maxsus metodikasidan foydalanishni taklif qiladilar. Bunda, o'qituvchi-surdopedagog eshitish qobiliyati past yoki yo'q bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy materialning ortib borishini va bolalarning talaffuz qobiliyatlari shakllanayotganini kuza-tishi mumkin bo'ladi.

FONETIK RITMIKA METODIKASI BO'YICHA TAXMINIY MASHG'ULOT ISHLANMALARI

Maqsadi: Eshitishda nuqsoni bor bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish; ko'ruv-eshituv tasavvurini boyitish; Tovush funksiyalarini faollashtirish; Nutqiy jarayonni faollashtirish; kinestetik sezgilar asosida nutqning talaffuz va ritmik ohangdorligini shakllantirish.

1-dars

Guruhli mashg'ulot

Mavzu: A tovushini shakllantirish.

1. Ta'limiy maqsad: A tovushini shakllantirish, og'zaki talaffuzga o'rgatish.

2. Tarbiyaviy maqsad: Surdopedagog shaxsiga hurmat hissini tarbiyalash. Ko'rsatmalarni bajarishda hushyorlikni tarbiyalash.

3. Korreksion maqsad: Eshitishda nuqsoni bor bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish; ko'ruv-eshituv tasav-

¹ Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириш коррекцион машғулотларда эсжитишида муаммолари бўлган болаларнинг оғзак нуркини фонетик ритмика орка-ли шакллантиришда «кувнок фонетик ритмика» технологиясининг самараси. О.С.ИШМАТОВА № 2/1 — 2022 жыл. С – 135-138 индекс.пхл (google.com)



vurini boyitish; tovush talaffuzini va nutqiy jarayonni faollashtirish; kinestetik sezgilar asosida nutqning talaffuz va ritmik ohangdorligini shakllantirish; A tovushining alohida "izolyasion" talaffuzini shakllantirish va rivojlantirish.

Mashg'ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism: Salomlashish.

«Yaxshi kayfiyat ulashamiz» o'yini.

II. «Shar» mashqi.

Maqsad: Diafragma bilan nafas olish qobiliyatini shakllantirish. O'yinning borishi: Bolalar aylana shaklida turib olib, qo'llarini diafragma sohasiga qo'yib, (nafas olish va nafas chiqarishni nazorat qilish maqsadida). Bu jarayonda nafas burindan olinib, og'iz orqali chiqariladi.

III. A tovushini hosil qilish.

Surdopedagog bolaga ko'rsatma beradi: — Boshlang'ich pozitsiyani tutamiz. Nafas olamiz, qo'llarimizni yon tomonlarga yoyib, bir vaqtning o'zida pa ___ ni cho'zib talaffuz etamiz. Harakatlarimiz bo'sh, sokin va yengil bo'lishini nazorat qilamiz. Barakalla. (Bolalar rag'batlantiriladi).

*(Surdopedagoglarga eslatma: a ___ belgisi unlining uzoq davom etuvchi talaffuziga mos keladi. Harakatlarni bola bilan birgalikda bajarung!)*¹

IV. Ovozni rivojlantirish:

Mashq tavsifi.

Surdopedagog bolalarga ko'rsatma beradi:

- qo'llaringizni musht qilib, belga qo'ying. Shu holatda mushtlarni ikki yonga zarb bilan pa-pa-pa deb takrorlang.

- qo'llarni yon tomonlarga yoyib, yuqoriga ko'taring. Pa bo'g'inini talaffuz qiling, shivirlagan tovushdan boshlang va qo'llaringizni ko'targaningizda ovoz kuchini oshiring. Qo'llarni eng yuqoriga ko'targanda, ovoz ham shunga ko'ra baland bo'ladi.

Mashqni bir necha marta takrorlang.

Surdopedagog bolaga ko'rsatma beradi: Mening gaplarimni tinglang. Takrorlang: -Surdopedagog bolalarga orqasini o'girib turadi va bo'g'inlarni talaffuz etadi. Bolalar bo'g'inlarni takrorlash bilan bir qatorda harakat bilan hamda harakatsiz ravishda takrorlaydilar.

(O'qituvchi – surdopedagog, kerak bo'lganda, ko'rsatmalar beradi. Ko'pgina hollarda, ishning bir turi boshqasida ko'rsatmalarsiz, faqat taqlid orqali amalga oshiriladi).

V. Mashg'ulotni yakunlash:

Bolalarni rag'batlantirish va yakunlash.

2-dars

Guruhli mashg'ulot

Mavzu: O tovushini shakllantirish.

1. Ta'limiy maqsad: O tovushini shakllantirish, og'za-ki talaffuzga o'rgatish.

«a» tovushini takrorlash.

2. Tarbiyaviy maqsad: Surdopedagog shaxsiga hurmat hissini tarbiyalash. Ko'rsatmalarni bajarishda hushyorlikni tarbiyalash.

3. Korrektion maqsad: Eshitishda nuqsoni bor bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish; ko'ruv-eshituv tasavvurini boyitish; tovush talaffuzini va nutqiy jarayonni faollashtirish; kinestetik sezgilar asosida nutqning talaffuz va ritmik ohangdorligini shakllantirish; O tovushining alohida "izolyasion" talaffuzi shakllantirish va rivojlantirish. «A» tovushining to'g'ri talaffuzini mustahkamlash.

Mashg'ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism: Salomlashish.

«Yaxshi kayfiyat ulashamiz» o'yini.

II. «Shar» mashqi.

Maqsad: Diafragma bilan nafas olish qobiliyatini shakllantirish. O'yinning borishi: Bolalar aylana shaklida turib olib, qo'llarini diafragma sohasiga qo'yib, (nafas olish va nafas chiqarishni nazorat qilish maqsadida). Bu jarayonda nafas burindan olinib, og'iz orqali chiqariladi.

III. O tovushini hosil qilish.

Mashq tavsifi.

Surdopedagog bolaga ko'rsatma beradi: — Boshlang'ich pozitsiyani tutamiz. Nafas olamiz, qo'llarni bosim ostida yon tomonlarga yoyib, o ___ deb talaffuz qilamiz.... Harakat biroz tarang, zaif, cho'zilgan.

*(Surdopedagoglarga eslatma: a ___ belgisi unlining uzoq davom etuvchi talaffuziga mos keladi. Harakatlarni bola bilan birgalikda bajarung!)*²

IV. Ovozni rivojlantirish:

Mashq tavsifi.

Surdopedagog bolalarga ko'rsatma beradi:

- qo'llaringizni musht qilib, belga qo'ying. Shu holatda mushtlarni ikki yonga zarb bilan pa-pa-pa deb takrorlang.

- qo'llarni yon tomonlarga yoyib, yuqoriga ko'taring. Pa bo'g'inini talaffuz qiling, shivirlagan tovushdan boshlang va qo'llaringizni ko'targaningizda ovoz kuchini oshiring. Qo'llarni eng yuqoriga ko'targanda, ovoz ham shunga ko'ra baland bo'ladi.

Mashqni bir necha marta takrorlang.

Surdopedagog bolaga ko'rsatma beradi: Mening gaplarimni tinglang, takrorlang: -Surdopedagog bolalarga orqasini o'girib turadi va bo'g'inlarni talaffuz etadi. Bolalar bo'g'inlarni takrorlash bilan bir qatorda, harakat bilan hamda harakatsiz ravishda takrorlaydilar.

(O'qituvchi – surdopedagog, kerak bo'lganda, ko'rsatmalar beradi. Ko'pgina hollarda, ishning bir turi boshqasida ko'rsatmalarsiz, faqat taqlid orqali amalga oshiriladi).

IV. Mashg'ulotni yakunlash:

Bolalarni rag'batlantirish va yakunlash.

¹ Власова Т.М., Пфафенродт А.Н.

² Фонетическая ритмика: Пособие для учителя. — М.: Гуманит. изд. центр «ВЛАДОС», 1996. 8-9 бетлар Власова Т_М_Пфафенродт А_Н_Фонетическая_ритмика.пдф



3-dars

Guruhli mashg'ulot

Mavzu: U tovushini shakllantirish.

1. Ta'limiy maqsad: U tovushini shakllantirish, og'zaki talaffuzga o'rgatish.

«a» va «o» tovushlarini takrorlash.

2. Tarbiyaviy maqsad: Surdopedagog shaxsiga hurmat hissini tarbiyalash. Ko'rsatmalarni bajarishda hushyorlikni tarbiyalash.

3. Korreksion maqsad: Eshitishda nuqsoni bor bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish; ko'ruv-eshituv tasavvurini boyitish; tovush talaffuzini va nutqiy jarayonni faollashtirish; kinestetik sezgilar asosida nutqning talaffuz va ritmik ohangdorligini shakllantirish; U tovushining alohida "izolyasyon" talaffuzini shakllantirish va rivojlantirish. «A» va «O» tovushining to'g'ri talaffuzini mustahkamlash.

Mashg'ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism: Salomlashish.

«Yaxshi kayfiyat ulashamiz» o'yini. (1-darsdagidek, takroriy)

II. «Shar» mashqi.

Maqsad: Diafragma bilan nafas olish qobiliyatini shakllantirish. O'yinning borishi: Bolalar aylana shaklida turib olib, qo'llarini diafragma sohasiga qo'yib, (nafas olish va nafas chiqarishni nazorat qilish maqsadida). Bu jarayonda nafas burindan olinib, og'iz orqali chiqariladi.

III. U tovushini hosil qilish.

Mashq tavsifi.

Surdopedagog bolaga ko'rsatma beradi: —

Boshlang'ich pozitsiyani tutamiz. Nafas olamiz. Bosim bilan u _____ talaffuz qilganda qo'llarimizni oldinga cho'zamiz.

Harakat tarang, kuchsiz, uzaygan

(Surdopedagoglarga eslatma: U _____ belgisi unlining uzoq davom etuvchi talaffuziga mos keladi. Harakatlarni bola bilan birgalikda bajarish)¹

IV. Ovozni rivojlantirish:

Ovozning uzunligi ustida ishlash.

O'qituvchi bolalarga tovush va bo'g'inlarni uzoq va qisqa talaffuzini o'rgatish orqali turli xil harakatlarni bajartiradi, shu bilan birga, uzoq cho'zib talaffuz etilgan tovushlarga, cho'ziq, davomiy harakatlar, talaffuzi qisqa bo'lgan tovushlarni esa keskin va qisqa harakatlar bilan bajarish:

Bo'ri uvvilladi: bo'ridek uvvillaymiz. Chuqur nafas olib: — u _ _ _ — u _ _ _ (uzoq va cho'ziq);

- choy qaynadi: -Pu Pu Pu (qisqa va keskin);

-yerga o'tirib, koptokni qo'lingiz bilan u _____ deb aylantiring;

-Koptokni oldinga tashlang va qisqa — Pu-pu-pu deng;

-yerga yoki stol oldiga o'tirib, poezdni u _ _ _ deb (mashinani) "uzoqqa" olib boring

-qo'llaringizni oldingizda (boshingiz ustida) yumaloq qilib bog'lang -o _____, bog'langan qo'llaringizni o _____ dab keskin pastga tushiring;

- qo'llaringizni yon tomonlarga a _____ deb sekin ravishda yoying:

keyin — o _____ deb qo'llaringizni ko'krak oldida tekis olib kelib bog'lang. qo'llaringizni keskin ravishda yon tomonlarga yoying va — a deb qisqa va baland ovozda talaffuz eting, uyndan so'ng u dab ko'krak oldida ulang;

Mashg'ulotning keyingi bosqichlarida mashqlarga tobora ko'proq yangi tovushlar kiritiladi, masalan.

(O'qituvchi — surdopedagog, kerak bo'lganda, ko'rsatmalar beradi. Ko'pgina hollarda, ishning bir turi boshqasida ko'rsatmalarsiz, faqat taqlid orqali amalga oshiriladi).

V. Mashg'ulotni yakunlash:

Bolalarni rag'batlantirish va yakunlash.

Mashg'ulotni tashkillashtirishda umumiy tavsiyalar:

- fonetik ritmika mashg'ulotlarini tashkillashtirishda bolalarning nutqiy imkoniyatlarini inobatga olgan holda individual yondashish lozim;²

- tovushlar postanovkasi davrini rejalashtirishda bolaning og'zaki nutq imkoniyatlarini inobatga olish lozim;

- fonetik ritmika mashg'ulotlariga bolalar somatik jihatdan tayyor bo'lishi lozim;

- surdopedagog barcha ritmik holatlarni o'zi to'liq bajarishi va bolalarning to'liq taqlidini nazorat qilishi lozim;

- korreksion ishning boshlang'ich davrida, fonetik ritmika mashqlarini (har bir elementini aniq bajarish ko'nikmasini shakllantirish uchun) ko'zgu oldida bajarish lozim.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»-gi Qonuni — T.:Sharq nashriyot — matbaa konserni, 2020 yil.

2. PQ-4860 Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2021 yil

3. Власова Т.М., Пфафенродт А.Н. Фонетическая ритмика: Пособие для учителя. — М.: Гуманит. изд. центр «ВЛАДОС», 1996.

¹ Власова Т.М., Пфафенродт А.Н.

Фонетическая ритмика: Пособие для учителя. — М.: Гуманит. изд. центр «ВЛАДОС», 1996. 8-9 бетлар Власова Т.М. Пфафенродт А.Н. Фонетическая ритмика.пдф

² <https://infourok.ru/foneticheskaya-i-logopedicheskaya-ritmika-v-rabote-s-detmi-s-narusheniyami-sluha-3052503.html>



MAXSUS MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGIK JARAYONDA AQLI ZAIF BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH VAZIFALARI

G.Alimova, O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi
Inklyuziv ta'lim laboratoriyasi bo'limi metodisti

В статье рассмотрены задачи подготовки детей с задержкой психического развития к школе в педагогическом процессе в специальных дошкольных образовательных учреждениях.

Ключевые слова и понятия: специальное дошкольное образование, дети, с особыми образовательными потребностями, непрерывное образование.

The article considers the tasks of preparing children with mental retardation for school in the pedagogical process in special preschool educational institutions.

Key words and concepts: special preschool education, children with special educational needs, continuous education.

Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim va tarbiya ishining keng dasturini amalga oshiradi va aqli zaif bolalarni maktab ta'limiga tayyorlaydi. Hozirgi vaqtda yuz berayotgan ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar xalq ta'limi butun tizimini yoshlar va bolalarni tarbiyalash, ularga ta'lim berishni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bu vazifa xalq ta'limining boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan ko'p tarmoqli maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bevosita taalluqlidir. Ular hamisha maktab bilan uzviy bog'langan holda ishlal kelgan. Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan maktab o'rtasida o'rnatilgan izchil aloqaning har tomonlamaligi aqli zaif bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash vazifasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy shartidir. Izchillik – xalq ta'limi tizimining barcha bo'g'inlari o'rtasida o'zaro aloqa o'rnatishdir. Bu maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlariga va maktabda olib boriladigan korreksion ta'lim va tarbiya ishlari mazmuni, uni amalga oshirish uslublarining o'zaro bog'liqligi bilan belgilanadi. Shunga binoan, maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan maktab ta'limi o'rtasidagi bog'liqlik bir tomonda, aqli zaif bolalarni maktab ta'limi talablariga javob beradigan darajada umumiy rivojlantirish va odobli qilib tarbiyalagan holda maktabga o'tkazishni, ikkinchi tomondan, o'qituvchining katta yoshdagi bolalarni egallagan bilim, malaka sifatlariga va tajribalariga tayanib, ulardan o'quv-tarbiyaviy ishlar jarayonida samarali foydalanishni taqozo etadi.

Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan maktab o'rtasidagi uzviy bog'liqlik tayyorlov guruhlarda bolalar va maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berish sharoitini yaqinlashtirishga yordam beradi. Shunday ish tutilganda aqli zaif bolalarning maktab sharoitiga moslashishi ancha yengillik bilan ko'chadi. Bolalar maktab sharoitiga tabiiy moslashib ketadilar, bu esa o'z navbatida maktabda o'qishning birinchi kunidan boshlab ta'lim-tarbiya ishining samarasini oshiradi.

Zero, maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari birinchi sinfda aqli zaif bolalar oldiga qo'yiladigan talablarni yaxshi bilishlari, maktabga tayyorlov guruhidagi aqli zaif bolalarni shunga muvofiq ravishda ta'lim olishga tayyorlashlari kerak. Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan yordamchi maktab o'rtasidagi uzviy aloqa murakkab va ko'p tomonlama tuzilishga ega. Unda korreksion ta'lim-tarbiyaviy ishlarning

mazmuni, metod va usullari, tashkiliy shakllari, shuningdek, aqli zaif bolalarni tarbiyalash shart-sharoitlari va pedagogik talab kabi yetakchi tomonlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Bunda quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak:

1. Maxsus maktab talabi nuqtai nazaridan aqli zaif bolalar bilimini chuqurroq egallab olishlari lozim.

2. Maktabgacha ta'lim tashkiloti nuqtai nazaridan aqli zaif bolalarni maktab talabi darajasidagi bilim, malaka, ko'nikmalar bilan qurollantirish zarur.

3. Aqli zaif bolalarning maktabga ruhiy tayyorgarligi. Bu yerda vazifa bolalar mehnatining har qanday turiga tayyor turishlari, ularda aqliy mehnat-bilishga qiziqishni o'stirish, ularni kelajakdagi mustaqil faoliyatga tayyorlashdan iborat.

4. Maktabgacha ta'lim tashkilotida beriladigan korreksion ta'lim rivojlantiruvchi tarzda bo'lishi kerak.

5. Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan maktab o'rtasida izchil aloqa o'rnatish.

Maktabgacha tarbiya muassasasida katta guruhdagi aqli zaif bolalar boshlang'ich sinfi ta'limi maqsad va vazifalariga mos keladigan sifat jihatidan yangi xususiyatlarni shakllantiradi. Aqli zaif bolalarda axloqiy tasavvurlar va hulq-atvorda birlik bo'lishini tarbiyalash, o'z xatti-harakati uchun shaxsiy javobgarlikni seza bilish, jamoatchilik xislatlari, sifat jihatidan yangi bo'lgan xulq-atvor shakllarini tarkib toptirish uchun shart-sharoit yaratadi. Maktabda vatanparvarlik, o'z Vatan oldidagi burchini chuqur anglash kabi his-tuyg'ular shakllanadi. Bunda yuksak insoniy fazilatlar korreksion ta'lim-tarbiya asosida shakllanadi. Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlarida aqli zaif bolalarni estetik tomondan tarbiyalash bo'yicha ham izchil ish olib boriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan maktab o'rtasidagi uzviy bog'liqlik aqli zaif bolalarda mehnat tarbiyasining mazmunini murakkablashtirishga, uni ijtimoiy foydali tomonga qaratishga, aqli zaif, aloqa asosini aqli zaif bolalarning mehnatdagi mustaqilligi, o'z-o'zini tashkil eta bilishga, ahloqiy munosabatlarning ongli tus olishiga olib keladi. Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktabga tayyorlashda o'yin aqli zaif bolalar faoliyatining asosiy turi hisoblanadi.

O'yin maktabgacha tarbiya yoshdagi aqli zaif bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi.



О'yin bolaning istiqboldagi o'quv, mehnat faoliyati, insonlarga, kattalarga, do'stlariga, atrof-muhitga munosabatining qay darajada shakllanib borishini belgilaydi.

Aqli zaif bolalar o'z o'yinida oldin kattalar mehnatiga taqlid qiladi, keyinchalik ularning mehnatiga qatnashadi. O'yin aqli zaif o'quvchilarni mehnatga tayyorlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida defektolog o'yinga rahbarlik qilishda quyidagilarga rioya qilishi lozim:

1) O'yin bilan mehnat o'rtasida to'g'ri munosabat o'rnatish;

2) O'yinda bolalarning bo'lajak mehnat ahliga xos bo'lgan jismoniy va ruhiy sifatlarini tarbiyalash.

Shu tariqa o'yin tarixiy taraqqiyot jarayonida mehnat faoliyati natijasida paydo bo'lgan ijtimoiy faoliyatdir; o'yin doimo haqiqiy hayotni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy hayot o'zgarishi bilan uning mazmuni ham o'zgaradi; o'yin ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan ongli faoliyat bo'lib, uning mehnat bilan ko'p umumiylik bor va aqli zaif bolalarni mehnatga tayyorlashga xizmat qiladi. O'yin faoliyati asosida aqli zaif boladagi o'quv faoliyati rivojlanadi, bola qanchalik yaxshi o'ynasa, u maktabda shunchalik yaxshi o'qiydi. Ya'ni

aqli zaif bola o'yin orqali ijtimoiy hayotdagi kattalar mehnatiga, hayotiga taqlid qilish orqali dunyoni to'g'ri anglay boshlaydi. Aqli zaif bola uni o'rab turgan atrof-olamni o'yin orqali o'rganib, nutqi, tafakkuri va boshqa psixik faoliyatlari shakllana boradi. Bu esa maktabga kelguncha ilm olishida asosiy zamin bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida olgan bilimlari maktabda yanada rivojlantirib boriladi.

Adabiyotlar

1. Фатихова Л. Ф. Проблемы обучения и воспитания детей с нарушениями интеллекта // Проектирование и формирование развивающих сред: Материалы Всерос. науч.-метод. конф. и учебных курсов / Брянский гос. пед. ун-т. — Брянск, 2001. — 0,15 п. л.

2. Гаврилушкина О.П., Соколова Н.Д. Воспитание и обучение умственно отсталых дошкольников. М.: Просвещение, 1985. - 72с.

3. Кузнецова Л.В. Психология умственно отсталого ребенка // Основы специальной психологии / Под ред. Л.В. Кузнецовой. — М.: Изд. центр «Академия», 2002. С. 49-89.

ТЕХНОЛОГИЯ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОГО ПОДХОДА К ФОРМИРОВАНИЮ КОГНИТИВНО-РЕЧЕВЫХ ЗНАНИЙ И УМЕНИЙ У УЧАЩИХСЯ С НАРУШЕНИЯМИ СЛУХА

З.Н.Урунова, заведующая кафедрой Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами, PhD

Мазкур мақолада эшитишда нуқсонли бўлган ўқувчиларда когнитив-нутқ билим ва кўникмаларини шакллантиришда табақалаштирилган ёндашув технологияси юзасидан фикрлар билдирилган.

Калит сўзлар ва тушунчалар: эшитиш қобилияти, оғзаки нутқ, ёндашув, махсус таълим, нутқ ривожланиши.

This article presents opinions on the technology of a differentiated approach to the formation of cognitive-speech knowledge and skills in students with hearing impairment.

Key words and concepts: hearing ability, oral speech, approach, special education, speech development.

Дети с нарушениями слуха овладевают устной речью только в условиях специального обучения, которое строится на основе использования остаточного слуха с привлечением зрительного, тактильного, двигательного, кинестетического анализаторов, а также широкого применения технических средств обучения (звукоусиливающей аппаратуры, вибраторов, визуальных приборов), современных информационных технологий. В условиях модернизации специального образования на занятиях по развитию нарушенной слуховой функции и формированию произношения детей с нарушениями слуха используются специальные компьютерные программы

Дифференцированный подход рассматривается как средство преобразований. Вместе с тем, использование дифференцированного подхода в специализированных школах как средства организации разноуровневого обучения, способствующего повышению эффективности и качеству процесса формирования произносительной стороны речи учащихся с нарушениями слуха, расши-

ряющего педагогические возможности на сегодняшний день требуют постоянного совершенствования.

Существуют множество способов и методик развития речи учащихся с нарушениями слуха и требование периода диктует их совершенствование с течением времени. Учитывая важность развития речевых знаний и навыков в соответствии с индивидуальным характером ребенка на основе содержания, мотивирующего интерактивную деятельность, основанную на инновационном подходе, на систематически существующих методах в развитии речи учащихся, необходимо создать видеоуроки, которые предоставляют знания на узбекском языке. Мы понимаем, что работать с презентациями, гораздо проще. А когда у вас есть видео контент, где вы можете показать, продемонстрировать, как это происходит, в особенности при ознакомлении с окружающим миром, а также на других уроках. Детям с нарушениями слуха при передаче знаний с помощью видео контента к примеру на уроках ознакомления окружающим миром или на дру-



гих предметных уроках можно добиться расширения возможностей обучения.

Повышенная возможность восприятия напрямую влияет на запоминание, в результате, это положительно сказывается на повышении качества образования. Доступность материала обеспечивает не просто восприятие, но и осмысленное понимание. Принимая во внимание важность эмоционального воздействия для повышения уровня понимания учащихся с нарушениями слуха, необходимо преподнести предоставленную информацию в максимально привлекательной форме. Учитывая, что наша основная задача систематизировать знания учащихся по теоретическим вопросам речевой деятельности и при этом повышать активность и сознательность при усвоении звукопроизношения, развивать навыки самоконтроля за произношением, формировать интерес к словесной речи и процессу обучения, развивать слухозрительное восприятие, внимание, мышление, память, то для правильного решения этих задач требуются более современные подходы с высоким результатом воспитания самостоятельности и умения сотрудничать. Результаты исследований учёных (Л.М.Быкова, А.Г.Зикеев, С.А.Зыков, Т.С.Зыкова, Е.Г.Кузьмичева, Т.В.Нестерович, Л.П.Носкова и др.) свидетельствуют о совершенствовании деятельности учителя, о повышении активности и самостоятельности учащихся, об улучшении речевого и общего развития школьников в условиях использования системы обучения языку по принципу формирования речевого общения [2].

Если применение ИКТ в учебном процессе позволяет стимулировать интерес детей, то видео контент послужит повышению продуктивности деятельности с увеличением познавательной активности. Видео контент это же видеоролик с определенным предназначением. На сегодняшний день мы видим, что для быстрого и качественного продвижения товара или услуг, маркетологи применяют видео контенты, чтобы пользователям было интереснее посмотреть ролик, чем прочитать длинный текст. Существуют различные типы видеороликов. Каждый из них имеет своё воздействие на целевую аудиторию.

Анимационный: наподобие мультфильма видеоролик может рассказывать историю с использованием рисованных героев или с помощью схем и инфографики, наглядно показывать процесс производства, структуру планируемого проекта или результаты уже реализованных.

Документальный: как и в кинематографе данный жанр представляет собой изложение фактической информации и съёмку реальных участников. Это лучшее средство донести достоверную информацию до аудитории.

Репортажный: разновидность документального изложения с единственным отличием — данный жанр подразумевает отчёт с места событий. Его задача рас-

крыть происходящее, показать мероприятие как есть, без какой-либо искусственной, надуманной эмоциональной оценки.

Игровой: этот вид видеоконтента предполагает заранее придуманный сюжет, срежиссированный на съёмочной площадке и сыгранный его участниками — профессиональными актёрами или любителями.

Прежде чем приступать к изготовлению роликов, следует определить, какие виды видеоконтента наилучшим образом соответствуют выбранной стратегии, а также ответить зачем они нужны. По содержанию они должны соответствовать требованиям образовательных программ. Использование видеоконтента на уроках математики, интегрированных занятиях, включающих в себя элементы уроков развития речи, ознакомления с окружающим миром и предметно-практической деятельности; на уроках письма и развития речи позволили обеспечить личностную ориентированность, дифференциацию и индивидуализацию процесса обучения. Таким образом, мы можем достичь качественного повышения коммуникативной деятельности учащихся, выстроив эффективную систему работы с применением видеоконтента, в целях формирования когнитивно-речевых знаний и умений у учащихся с нарушениями слуха, которое послужит в дальнейшем расширению коммуникативных умений.

Литература

1. Зыкова Т.С. Развитие речи глухих младших школьников в системе коррекционного обучения. Дисс. док.пед.н. М., 1993 г. - 321 с.
2. Зыкова Т.С. Совершенствование коррекционной работы по развитию речи глухих школьников // Активизация учебно-воспитательного процесса глухих и слабослышащих учащихся. Межвузовский сборник научных трудов. Ред. Л.И.Полетаева. М, 1997 г. - с. 18-32.
3. Карпова Г.А. Основы сурдопедагогики. Учебное пособие для студентов высших педагогических учебных заведений. Екатеринбург 2008. 354с.
4. Речицкая Е.Г. Сурдопедагогика. Учебник для студентов вузов. Владос. 2020.
5. Бублик Л.М. Использование инновационных образовательных технологий на индивидуальных занятиях как фактор эффективного слухо-речевого развития младших школьников с нарушением слуха. Материалы III Международной научно-практической конференции. Актуальные проблемы начального общего образования. Чита, 21–22 ноября 2019 г. с- 68-74.



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTEBLARIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

A.Xolmatov, Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi "Amaliy fanlar va MTT metodikalari kafedra mudiri, p.f.n., dotsent
K. Otajonov, mazkur markaz katta o'qituvchisi

В данной статье рассматривается вопрос совершенствования профессиональной ориентации учащихся общеобразовательных школ.

Ключевые слова и понятия: профессия, интересы и склонности, умение, знание, практическое применение.

This article discusses the issue of improving the professional orientation of students in secondary schools.

Keywords and concepts: profession, interests and inclinations, skill, knowledge, practical application.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" deb nomlangan asaridagi quyidagi fikrlar e'tiborga molik: "farzandlarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o'rin egallashini ta'minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz". Respublikamizda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish jarayonida bo'layotgan o'zgarishlar, ya'ni qabul qilingan qonun va farmoyishlar jamiyatimizning rivojlanishida muhim omillardan biridir.

Respublikamizda ta'lim tizimi rivojlanishining hozirgi bosqichi ta'lim mazmuni va metodikasiga, uning samaradorligini oshirishga sifat jihatdan yangi talablar qo'ymoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari, jarayonlari hamda kasblar bilan tanishtirish, ularda dastlabki bilim, mehnat ko'nikmalari, malakalarini, mehnatga qiziqish hamda mehnatsevarlikni shakllantirish, mehnat va kasblarni qadrlashga, ularning ahamiyatini tushunishga o'rgatish hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo'lida yashash manbai bo'lgan mehnat faoliyatiga qo'shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifat va tafakkurlarini rivojlantirish, qiziqishi, mayl va qobiliyatiga xos kasb-hunar tanlashiga zamin yaratish texnologiya fanining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Umumiy urta ta'lim maktab o'quvchilari 1-9-sinflarda texnologiya fani darslarida ishlab chiqarish va agrar sohalariga oid kasb-hunarlar bilan tanishib, ularning ish uslublarini o'rganadilar.

Ishlab chiqarish jarayonlari yuqori darajada sanoatlashgan Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSh, Izrail, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy xalq Respublikasi va boshqa rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida ham texnologik ta'lim ishlab chiqarishning bo'g'ini hisoblanib, jahon mehnat bozoriga malakali mutaxassislar tayyorlash muhim bosqichlari va tashkil etuvchilaridan biri deb qaraladi. O'quvchi ta'lim standarti bilan cheklaniishi mumkin yoki bilimlarni chuqurroq egallash maqsadida mustaqil ravishda kengroq, chuqurlashtirilgan bilim olishga va yuqori reyting ball to'plash huquqiga ega. Natijada, qiyin yoki o'quvchi xush ko'rmaydigan predmetni o'rganishda unda standartda belgilangan me'yor bilan cheklanishga imkon beriladi. Bunda o'quvchi o'zining qiziqishi, layoqati, qobiliyatini

ro'yobga chiqarish, o'zi uchun eng maqbul yo'lni ongli va mustaqil tanlash imkoniga ega bo'ladi. Hozirgi kunda dunyo bo'yicha rivojlangan davlatlar agrar ishlab chiqarishdan sanoat ishlab chiqarishga, ya'ni yangi texnika va ilg'or texnologiyalarga asoslangan elektrotexnika va elektronika, robototexnika, avtomatlashtirilgan sanoat ishlab chiqarish davlatiga o'tib bormoqda. Ishlab chiqarishni rivojlantirishda mutaxassislarning texnikaviy salohiyati muhim o'rin tutadi.

Ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritadigan mutaxassislarning boshlang'ich ko'nikmalari aynan umumiy o'rta ta'lim maktablarining texnologiya darslarida shakllantiriladi.

Texnologiya va kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlari oldiga qo'yilgan yuqoridagi vazifalarning bajarilishini nazorat qilish Davlat ta'lim standarti orqali amalga oshiriladi. Bu boradagi tadqiqotlarning yosh avlodni kasb tanlashga tayyorlashning amaliy yechimini topishga qaratilgan quyidagi asosiy yo'nalishlarini qayd etish mumkin:

- o'quvchilarning kasblar olamida yo'nalish olishiga yordam beruvchi hamda o'z individual imkoniyatlarini haqqoniy baholay olish ko'nikmalari zarur darajasini ta'minlovchi kasbiy axborotlar tizimini yaratish;

- o'quvchilarning kasb tanlashiga yordam berish maqsadida shaxsni o'rganishning tashxis metodlarini ishlab chiqish;

- yoshlarga kasbiy maslahatlar uyushtirishning nazariy va metodik asoslari;

- kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatli motivlarini asoslash;

- bitiruvchi sinf o'quvchilarini ishchi kasblarga yo'naltirishning mazmuni, shakl va metodlari;

- O'zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash milliy dasturni amaliyotga tatbiq etish sharoitida o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashning pedagogik sharoitlari;

- alohida olingan hududiy markazlarda yoshlarni kasb tanlashga yo'llash ishini boshqarish xususiyatlari.

Shu sababli o'quvchilarning hayotida muhim o'ringa ega bo'lgan dars mashg'ulotlarida bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish, undan oqilona foydalanishda ularga yordam berish zarur.

Kasb tanlashga yo'llash texnologiyasi o'quvchi yoshlarni xohishlari, moyilliklari va shakllangan qobiliyatlarga asosan jamiyat va xalq xo'jaligining ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda ish bilan ta'minlashni optimallashtirishga qaratilgan pedagogik tizim loyihasini amalga oshirish deb ta'riflanadi.

Shaxsiy va jamiyat ehtiyojlariga asoslangan holda kasb tanlashga yo'llash o'quvchi hamda o'qituvchi munosabatlari,



ta'lim-tarbiya jarayoni tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yaqin o'tmishda ta'lim oluvchining ta'lim jarayonidagi ishtiroki nazariy bilimlarni qabul qilib oluvchi va o'zlashtirilgan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalarni namoyish etuvchi sub'ekt sifatidagi o'rni bilan kifoyalangan bo'lsa, ta'lim texnologiyasi talablariga ko'ra ta'lim oluvchi ta'lim jarayonining yetakchi sub'ekti, asosiy ijrochisi sifatida ko'rinadi. Endilikda ta'lim oluvchi ta'lim beruvchi tomonidan uzatilayotgan axborot (bilim)larni qabul qilmaydi, balki ta'lim beruvchining yo'llanmasi, ko'rsatmasiga muvofiq tavsiya etilgan o'quv manbalari bilan mustaqil ravishda tanishish orqali nazariy bilimlarni o'zlashtiradi, ta'lim beruvchi nazorati ostida amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qiladi. Ta'lim oluvchi mustaqil faoliyat yuritish, nazariy bilimlarni o'zlashtirish asosida o'zida fikrni ilgari surish, dalillar keltirish, o'z fikrini himoya qilish layoqatini tarbiyalay olishi, o'z-o'zini tanqid qilish, o'z-o'zini baholash sifatlarini qaror toptira olishi talab etiladi. Davr talabi ta'lim oluvchini ta'lim jarayonining sust tinglovchisi bo'lishdan faol ishtirokchisiga aylantirishni taqozo etmoqda.

O'quvchining ta'lim jarayonidagi yetakchilik roli quyidagi pedagogik vazifalarni hal etish imkonini beradi:

- 1) o'quvchida bo'lajak kasbi to'g'risidagi bilimlarni va ma'lumotlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojni qaror toptirish;
- 2) kasb tanlashga nisbatan ongli yondashuvni shakllantirish;
- 3) mustaqil faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantirish;
- 4) o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish, nazariy va amaliy bilimlar mohiyatini tahlil etish, ular borasida xulosalar chiqarish, umumlashtirish hamda ularni o'z amaliy faoliyatiga tatbiq etish ko'nikmalarini yuzaga keltirish va takomillashtirish;
- 5) o'z-o'zini nazorat qilish, qiyosiy baholash, tahlil qilish sifatlarini shakllantirish.

O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashda ta'lim shakli, metod va vositalarining ahamiyati katta. Zero, ular o'quvchining imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, bilim, ko'nikma va malakalarini bo'lajak faoliyat sohasi talablari asosida shakllantirish uchun shart-sharoit yaratib beradi. O'z navbatida

o'quvchilarning yosh, psixologik, fiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, dunyoqarashining ko'lami hamda ularning faolligi samarali, ilg'or, noan'anaviy ta'lim shakli, metod va vositalarini tanlash, ulardan maqsadga muvofiq darajada foydalanish uchun turtki bo'ladi.

Hulosa qilib aytganda, o'quvchilar kasb tanlashga oid bilimlarning asosiy hajmini umumiy o'rta ta'lim maktabining 8-9 sinflarida texnologiya ta'limi jarayonida egallaydilar. Bu jarayonning muhimligini ta'kidlovchi ikki omil tahlil qilib berildi, ya'ni birinchidan, kasb tanlashga yo'llash ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilganida o'quvchilar o'z qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari, salomatligi va boshqa sifatlaridan kelib chiqib kelajagini to'g'ri belgilab olishini ta'minlaydi; ikkinchidan, jamiyatimizning har bir jabhasida o'z kasbini mahorat darajasida egallagan, mustaqil va ijodiy fikrlovchi mutaxassislariga ega bo'ladi. Kasbga yo'naltirish ishlari tizimli ravishda, izchil takomillashtirib borilgandagina o'quvchining kelajakda mukammal kasb egasi bo'lishiga erishiladi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. — T.: "O'zbekiston", 2016.-56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. — T.: "O'zbekiston", 2017. -102 b.
3. Xolmatov P.Q. Texnologiya fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar. 3.1.modul. Majmua. JVPXQTMOMH. 2022.
4. Xolmatov P.Q..va boshq.Oquv qollanma. Kasb tanlash xususiyatlari.Poytaxt-eksklyuziv.-T.2022.
5. Xolmatov P.Q. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni takomillashtirish. Metodik qo'llanma. Navruz. 2021.

KASBIY QIZIQISHLARNI ANIQLASH AMALIYOTI

K.N.Jo'raboyev, O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi direktorining birinchi o'rinbosari

Профдиагностика - это неотъемлемая часть профориентации, направленная на оценку интересов, личностных качеств и способностей учащихся на предмет соответствия этих особенностей выполнению профессиональной деятельности.

Ключевые слова и понятия: профориентация, профессиональная диагностика, интересы, склонности, выбор профессии, тип профессии.

Occupational diagnostics is an integral part of career guidance, aimed at assessing the interests, personal qualities and abilities of students for the compliance of these features with the performance of professional activities.

Key words and concepts: career guidance, professional diagnostics, interests, inclinations, choice of profession, type of profession.

Maktab ta'limi oldidagi bosh vazifaning eng muhim bo'g'inlaridan biri, shubhasiz, kasb tanlashga tayyorlashdan iborat. Mazkur muammo qanchalik eski bo'lmasin, toki mehnat qilish inson hayot kechirishi va rivojlanishining asosiy omili bo'lib qolar ekan, moddiy va nomoddiy ishlab

chiqarishda ixtisoslashuv borgan sayin chuqurlashar ekan, uning dolzarblik darajasi pasaymaydi. Ammo o'z-o'zidan ayonki, muammo har qancha an'anaviy bo'lmasin yangicha tarixiy shart-sharoitlarda uni hal etish uchun eskicha yondashuvlar samarali bo'lmasligi mumkin. Bu esa yangi zamon



izlanuvchilarini tegishli muammoni yechishning innovatsion noan'anaviy yo'llarini qidirib topishga undaydi. Maxsus tadqiqotlarda ham o'quvchi kasbiy rivojlanishining muhim shartlaridan biri uning turli shakl va metodlarga asoslangan faoliyatga jalb etilishidan iboratligi isbotlangan.

Albatta, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish sohasidagi pedagogik-psixologik chora-tadbirlar tizimida ularni kasbiy diagnostika qilishga qaratilgan tadbirlarning ahamiyati juda katta. O'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish bu ularni qiziqishlari, moyilliklari, layoqatlari hamda shakllangan qobiliyatlariga mos holda kasb-hunar tanlashlariga ko'maklashishdan iboratdir. Bu jarayonda o'quvchi-yoshlar xalq xo'jaligi, sanoat, transport va boshqa sohalarga tegishli kasblar va ularga ehtiyojlar, shuningdek, mehnat bozorining kadrlarga bo'lgan talablari, kadrlarni shaxsga qo'yg'an talablari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishtiriladi. Kasb-hunarga yo'naltirish ta'lim muassasalarida olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishining uzviy bir qismi sanaladi. Bugungi kunda har bir o'quvchi oldida minglab kasblar ichidan qaysi birini tanlash muammosi turar ekan, tanlangan kasbga shaxs moyilligi, layoqati va qiziqishlarining mos kelishi yoki kelmasligini bilish muhim ahamiyatga ega. Bunda umumiy o'rta ta'lim maktablari psixologlari qator psixologik metodikalaridan foydalanadilar.

Shunday metodikalar biri "Kasbiy tayyorgarlikni aniqlash uchun so'rovnoma"si (L.N. Kabardova) moslashtirildi va aprobsiyadan (Toshkent shahri Olmazor tumani 191-va 196-umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-9 sinf o'quvchilari) o'tkazildi.

Quyida mazkur so'rovnomaning o'tkazish tartibi va savollarini keltiramiz.

Ushbu so'rovnomadan yakka tartibda yoki guruhda foydalanish mumkin.

Ko'rsatma: Savollarni diqqat bilan o'qing. Siz har bir savol uchun uchtdan javob berishingiz kerak bo'ladi. Savollarga bergan javoblaringizni ko'rsatma bo'yicha javoblar varaqasidagi tegishli katakchalarga ball ko'rinishida belgilanadi.

Javoblar varaqasidagi tartib raqamlari savollarning tartib raqamini, ko'rsatilgan harflar esa Sizning javoblaringiz uchun katakchalar ekanligini bildiradi.

Birinchi: "a" katakchasini ustuniga savol tariqasida berilgan topshiriqni Siz qanchalik yaxshi bajarishingizni baholaysiz:

- men qoida bo'yicha yaxshi bajaraman - 2 ball;
- o'rtacha bajaraman - 1 ball;
- men buni bajara olmayman, umuman bilmayman, men buni hech qachon bajarmaganman - 0 ball.

Ikkinchi: "b" katakchasini ustuniga buni bajarayotgan vaqtingizda o'zingizda qanday his-tuyg'ular bo'lishini baholang:

- ijobiy (qiziqarli, oson) - 2 ball;
- befarq (neytral, baribir) - 1 ball;
- salbiy (qiziq emas, qiyin) - 0 ball.

Uchinchi: "v" katakchasini ustuniga savolda ko'rsatilgan holatni ish faoliyatingizda aks ettira olishingizni baholang:

- ha - 2 ball;
- baribir - 1 ball;
- yo'q - 0 ball.

Savolni o'qiyotganizda "tez-tez takrorlanadigan", "yengil va oson", "tartibli" va hokazo so'zlarga e'tibor berishni unut-

mang. Siz savollarni o'qiyotgan vaqtingizda ushbu so'zlarning ma'nosiga e'tibor berishingiz kerak bo'ladi.

Savollar

1. Turli matnlardan ko'chirma, qirqib olish va ularni ma'lum bir xususiyatga ko'ra guruhlash.

2. Fizika fanidan laboratoriya ishlarida amaliy topshiriqlarni bajarish (sxemalarni chizish va yig'ish, ularni bartaraf etish, qurilmaning ishlash prinsipini tushunish va hokazo).

3. Uzoq vaqt davomida (bir yildan ortiq) mustaqil ravishda, o'simliklarning o'sishi va rivojlanishini ta'minlaydigan barcha ishlarni (suv, urug'lantirish, ko'paytirish va boshqalar) sabr-toqat bilan bajarish.

4. Ko'pchilik tomonidan qiziqishiga, e'tiborga loyiq deb tan olingan she'rlar, hikoyalar, eslatmalar, insholar yozish.

5. O'zingizni, g'azabingizni, noroziligingizni, yomon kayfiyatingizni boshqalarga "aks ettirmang".

6. Matndagi asosiy fikrlarni tanlab, ular asosida qisqacha konspekt, reja, yangi matn tuzing.

7. Fizik jarayonlar va qonuniyatlarni tushunish, fizikaga oid masalalarni yechish.

8. Rivojlanayotgan o'simlikni muntazam ravishda kuzatib borish va bu kuzatuvlarni maxsus kundalikka yozib oling.

9. Yog'ochdan, matodan, metallardan, quritilgan o'simliklardan, iplardan o'z qo'llaringiz bilan chiroyli mahsulotlar qilish.

10. Hatto bir necha marta takrorlash kerak bo'lsa ham sabr-toqat bilan, asabiylashmasdan, kimgadir bilmoqchi bo'lgan narsani tushuntirish.

11. Ona tili va adabiyoti fanidan yozma ishlarda xatoliklarni oson topish.

12. Kimyoviy jarayonlarni, kimyoviy elementlarning xossalarni tushunish, kimyodan masalalar yechish.

13. Ko'p sonli o'simlik turlarining rivojlanish xususiyatlari va tashqi farqlovchi belgilarini tushunish.

14. Rangtasvir, grafika, haykaltaroshlikning tayyor asarlarini yaratish.

15. Ko'p odamlar bilan tez-tez charchamasdan muloqot qilish.

16. Chet tili darslarida savollarga javob berish va ularni so'rash, berilgan mavzu bo'yicha matn va tuzilgan hikoyalarni qayta aytib berish.

17. Har qanday mexanizmlarni (velosiped, mototsikl) ta'mirlash, elektr jihozlarini (changyutgich, dazmol, chiroq) ta'mirlash.

18. Bo'sh vaqtingizning ko'p qismi qaysidir hayvonga g'amxo'rlik qilish va tomosha qilish bilan o'tadi.

19. Boshqalar uchun muvaffaqiyatli bo'lgan musiqa, qo'shiqlar yaratish.

20. Ehtiyotkorlik bilan, sabr-toqat bilan, gapini bo'lmasdan, odamlarni tinglash.

21. Chet tilidagi topshiriqni bajarishda chet tilidagi matnlar bilan unchalik qiyinchiliksiz ishlash.

22. Elektron jihozlarni (radio, magnitofon, televizor, diskoteka uchun uskunalar) sozlash va ta'mirlash.

23. Muntazam ravishda, hayvonlarga g'amxo'rlik qilish uchun zarur bo'lgan ishlarni bajarish: ovqatlantirish, qafaslarni tozalash, davolash, o'rgatish.

24. Ommaviy ravishda, ko'plab tomoshabinlar uchun rol o'ynash, kimgadir taqlid qilish, tasvirlash, she'r, matnlar o'qish.



25. Yosh bolalarni ishbilarmonlik, oʻyin va hikoyalar bilan oʻziga jalb qilish.

26. Matematika, kimyo fanlaridan turli qonunlar, formulalar, teoremlardan foydalangan holda mantiqiy harakatlar zanjirini tuzish talab qilinadigan topshiriqlarni bajarish.

27. Qulflarni, kranlarni, mebellarni, oʻyinchoqlarni taʼmir-lash.

28. Hayvonlarning zotlari va turlarini tushunish, ularning xarakterli xususiyatlari va odatlarini bilish.

29. Isteʼdodli yozuvchi, dramaturg, sanʼatkor nima qila-yotganini va nimasi yoʻqligini doimo aniq koʻrish va buni ogʻzaki yoki yozma ravishda asoslab bera olish.

30. Har qanday biznes, tadbirlar uchun odamlarni tashkil qilish.

31. Matematikadan matematik formulalar, qonunlarni yaxshi bilish va ularni yechishda toʻgʻri qoʻllay bilishni talab qiladigan topshiriqlarni bajarish.

32. Harakatlarni yaxshi muvofiqlashtirishni va qoʻlda ep-chillikni talab qiladigan harakatlarni bajarish: stanokli quril-malarda, elektr tikuv mashinasida ishlash, kichik qismlardan mahsulotlarni oʻrnatish va yigʻishni amalga oshirish.

33. Hayvon yoki oʻsimlikning xulq-atvori yoki tashqi koʻrinishidagi eng kichik oʻzgarishlarga darhol eʼtibor berish.

34. Musiqa asboblari chalish, qoʻshiqlarni omma oldida ijro etish, raqsga tushish.

35. Koʻpgina turli xil odamlar bilan majburiy aloqani talab qiladigan ishni bajarish.

36. Hisob-kitoblarni, maʼlumotlarni hisoblashni amalga oshirish, shunga asoslanib turli naqsh va natijalarni chiqarish.

37. Muayyan mahsulotlarni yigʻish uchun moʻljallangan standart qismlardan mustaqil ravishda ixtiro qilingan yangi-larini loyihalash.

38. Biologiya, anatomiya, botanika, zoologiya fanlarini chuqur oʻrganish bilan alohida shugʻullanish: ilmiy adabiyot-larni oʻqish, maʼruzalar, ilmiy maʼruzalar tinglash.

39. Qogʻozda va originalda kiyim-kechak, soch turmagi, zargarlik buyumlari va intererlarning yangi, qiziqarli model-larini yaratish.

40. Odamlarga taʼsir qilish: ishontirish, nizolarni oldini olish, kelishmovchiliklarni hal qilish, nizolarni hal qilish.

41. Ramziy maʼlumotlar bilan ishlash: xaritalar, diagram-malar, chizmalar tuzish va chizish.

42. Kosmosdagi jismlar yoki figuralarning joylashishini aqliy tasavvur qilishingiz kerak boʻlgan vazifalarni bajarish.

43. Uzoq vaqt davomida biologik toʻgaraklar, biologik stansiyalar, zoologik toʻgaraklar va pitomniklarda ilmiy-tad-qiqot ishlari bilan shugʻullanish.

44. Oddiy narsalarda gʻayrioddiy, hayratlanarli, chiroyli koʻringan narsalarni boshqalarga qaraganda tezroq va tez-tez payqash.

45. Odamlarga (hatto juda yaqin boʻlmaganlarga) ham-dard boʻlish, ularning muammolarini tushunish, har tomonla-ma yordam berish.

46. “Qogʻoz” ishlarini toʻgʻri va aniq bajarish: yozish, tek-shirish, hisoblash.

47. Muammoni hal qilishning eng oqilona (oddiy, qisqa) usulini tanlash: texnologik, mantiqiy, matematik.

48. Oʻsimliklar yoki hayvonlar bilan ishlashda qoʻl yoki jismoniy mehnatga, noqulay ob-havo sharoitlariga, tartibsiz-liklarga, hayvonlarning oʻziga xos hidiga chidash.

49. Yaratilgan yoki bajarilgan ishda (ijodkorlikning istal-gan sohasida) tirishqoqlik bilan, barkamollikka intilish.

50. Gapirish, biror narsa haqida xabar berish, fikringizni baland ovozda ifoda etish.

Javob varaqasi

Kasb tiplari																			
O-BT				O-T				O-T				O-BO				O-O			
№	a	b	v	№	a	b	v	№	a	b	v	№	a	b	v	№	a	b	v
1				2				3				4				5			
6				7				8				9				10			
11				12				13				14				15			
16				17				18				19				20			
21				22				23				24				25			
26				27				28				29				30			
31				32				33				34				35			
36				37				38				39				40			
41				42				43				44				45			
46				47				48				49				50			

O-B - Odam - Belgilar tizimi

O-T - Odam - texnologiya

O-T - Odam - tabiat

O-BO - Odam - badiiy obraz

O-O - Odam-odam

Natijalarni qayta ishlash

Javoblar varaqasidagi kataklarning har bir ustuni kasb tur-laridan biriga mos keladi. Harflar bilan belgilangan ustunlar har bir savolga uchta javobning ballarini ifodalaydi:

a - ularning mahoratini baholash;

b - oʻzining hissiy munosabatini baholash;

v - ularning kasbiy istaklarini, afzalliklarini baholash.

Natijalarni qayta ishlashni boshlaganingizda, avvalo, javoblar varagʻini diqqat bilan koʻrib chiqing va “0” deb baholangan savollarning raqamlarini qayd etishingiz kerak. Ushbu savollarni qayta ishlashdan butunlay chiqarib tashlash kerak.



Bunga misol sifatida reytinglar nisbati “0-12-11”ni keltirish mumkin. Bunday holda, tegishli shkala bo'yicha ballarni hisoblashda ikkinchi va uchinchi darajalar ham chiqarib tashlanadi. (hissiy munosabat va professional pozitsiyalar). Ular faqat har bir sohani tahlil qilishda hisobga olinadi.

Keyinchalik, har bir kasbiy yo'nalish bo'yicha ballar yig'indisi “mahorat”, “munosabat” va “kasbiy istaklar” shkalasi bo'yicha hisoblanadi.

Ushbu shkalalar bo'yicha har bir kasbiy sohada ham, har bir aniq masala (faoliyat turi) bo'yicha baholash nisbatiga e'tibor qaratiladi.

Eng ko'p ma'qul bo'lgan kasbiy sohani (yoki bir nechta sohalarni) tanlash “kasbiy imtiyozlar” shkalasi bo'yicha turli kasbiy sohalarda to'plangan ballar yig'indisini taqqoslash asosida amalga oshiriladi. Ushbu miqdorlar eng katta bo'lgan kasbiy sohalarga e'tibor qaratiladi.

Keyin har bir sohada uchta shkala bo'yicha to'plangan ballar bir-biri bilan taqqoslanadi. Afzal kombinatsiya - ikkinchi va uchinchi shkala bo'yicha ballar miqdoriy jihatdan birinchi shkala bo'yicha ball bilan birlashtiriladi.

Masalan, “10-12-11” kabi baholashlar nisbati “3-8-12” kombinatsiyasidan ko'ra qulayroqdir, chunki birinchi holatda sub'ektning afzalliklari tegishli ko'nikmalar mavjudligi bilan ko'proq asoslanadi.

Keyinchalik, individual savollar tahlil qilinadi, ularga javoblar “2-2-2”, shuningdek, “2-2-1”, “1-2-2” ball bilan baholanadi.

Masalan, “odam-belgi” sohasidagi ishlar harflar, so'zlar, matnlar (filolog, tarixchi, muharrir va boshqalar) bilan amalga oshirilishi mumkin; xorijiy belgilar, matnlar bilan (texnik tarjimon, gid-tarjimon); matematik belgilar bilan (dasturchi, matematik, iqtisodchi va boshqalar).

Ikkinchidan, bu bir sohadan tashqari, turli sohalar o'rtasida oraliq pozitsiyani egallagan kasblarga o'tish imkonini beradi, masalan, matematika o'qituvchisi (“odam-odam” va “odam-belgi” sohalari), modeler (“odam-badiiy obraz” va “odam – texnologiya”) va boshqalar.

Javoblar natijalariga ko'ra, o'quvchining kasbiy faoliyatining qaysi sohasiga moyilligi to'g'risida xulosa chiqariladi.

Ushbu so'rovnomadan yakka tartibda yoki guruhda foydalanish mumkin.

Adabiyotlar

1. Зеер Э.Ф., Павлова А.М., Садовникова Н.О. Профессиональное направление: Теория и практика: учебник для вузов. - М.: Академический проект; Екатеринбург: Деловая книга. - 2004. - 192 с. (стр. 124-130).

BO'LAJAK LOGOPEDLARNI TAYYORLASH JARAYONIDA AN'ANAVIY VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Sh.H.Turdialiyeva, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Logopediya kafedrasida o'qituvchisi

В данной статье описаны преимущества использования традиционных и инновационных технологий в процессе обучения будущих логопедов.

Ключевые слова и понятия: традиционные, инновационные образовательные технологии, форма обучения, лекция, семинар, самостоятельная работа.

This article describes the benefits of using traditional and innovative technologies in the process of teaching future speech therapists.

Key words and concepts: traditional, innovative educational technologies, form of education, lecture, seminar, independent work.

Mamlakatimizda ta'lim sohasidagi yangi islohotlar har bir pedagogdan yangilanish jarayoniga yangicha yondashuv va tayyorgarlikni talab etadi. Jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy sharoitlari mamlakatimiz ta'lim tizimida, xususan, oliy ta'limda qo'llaniladigan texnologiyalarni batafsil tahlil qilish, qayta ko'rib chiqish va o'zgartirish zarurligini taqozo etmoqda. Bu globallashuv, kompyuterlashtirish va raqamlashtirish jarayonlarining kuchayishi, ta'limning barcha yo'nalishlarida axborot hajmining uzluksiz ortib borishi, an'anaviy vositalarning mukammal emasligi, ularning real voqeyelikka mos kelmasligi va hokazolar bilan bog'liq. Shu munosabat bilan oliy ta'lim tizimida an'anaviy va innovatsion texnologiyalar o'rtasidagi munosabatni o'rganishning dolzarbligi ortib bormoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi ta'lim jarayonining samaradorligi va sifatini oshirish uchun an'anaviy texnologiyalarni innovatsion texnologiyalar bilan birgalikda qo'llashning maqsadga muvofiqligini o'rganishdir.

Ma'lumki, ta'lim jarayonidagi bo'lajak logopedlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda rejalashtirilgan maqsadni amalga oshirish uchun turlicha yangidan-yangi usullar, metodlar, texnologiyalar va shu kabilar kerak bo'ladi. Ularni tanlashda albatta qaralayotgan muammoning qo'yilishi va maqsad — vazifalarini hal qilishni optimallashtirish nuqtai nazaridan qarab chiqish hamda an'anaviy va innovatsion ta'lim texnologiyalarining muhim va mazmun xususiyatlarini hisobga olish lozim.

O'rganilayotgan texnologiyalarning asosiy afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash;

Ushbu shakllarning bir-biri bilan qanday bog'liqligini aniqlang va ulardan birgalikda yoki bir-biridan alohida foydalanishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida xulosa-lar tuzing.

I.R. Zernova ta'kidlaganidek, oliy o'quv yurtlarida uzoq vaqtdan beri amalda bo'lgan an'anaviy ta'lim shakli ma'ruza-seminar sifatida qaraladi. Ushbu shaklni amalga oshirish doirasida ma'lumotlar ma'ruza shaklida taqdim



etiladi, uni bir vaqtning o'zida bir nechta guruhlar tinglashi mumkin. Shundan so'ng o'quv materialini amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida chuqurroq o'rganiladi. Seminarlarda u o'zlashtiriladi, mustahkamlanadi va takrorlanadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, hozirgi bosqichda o'quv faoliyatining barcha shakllari orasida ma'ruza alohida o'rin tutadi. Uning mohiyati shundan iboratki, tizimlashtirilgan axborot og'zaki yoritiladi.

Ma'ruza o'qishning ustuvor maqsadi bo'lajak logopedlar tomonidan ma'lum bir fan bo'yicha o'quv materialini keyinchalik o'zlashtirish uchun mustahkam asos yaratishdir. Bunda o'qituvchi nafaqat tinglovchilarni yo'naltirib, asosiy mazmun bilan tanishtiradi balki ularni rag'batlantirish uchun asosiy shart-sharoitlarni ta'minlash vazifasi amalga oshiradi. Bu bo'lajak logopedlarga xos bo'lgan qadriyatlarini va uni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilimlarni qabul qilishlari uchun zarurdir.

Bizning fikrimizcha, ma'ruza shaklidagi dars bo'lajak logopedga o'z kasbiy vazifalarini hal qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, u turli xil kasbiy faoliyat turlarini faollashtirishni rag'batlantiradi. Uning yordami bilan idrok etish uchun juda qulay bo'lgan ma'lum bir ketma-ketlikda qurilgan o'quv materialini juda tejamkor tarzda taqdim etish mumkin. Muayyan fanga kirish kursini o'qish va uning asosiy tushunchalari va toifalarini o'rganish uchun zarurdir.

Ma'ruzalarda o'tilgan nazariy material tushunilishi va o'zlashtirilishi uchun universitetlarda amaliyot joriy etiladi. Amaliy mashg'ulotlarning asosiy shakllari orasida quyidagilarni ta'kidlash joiz: seminarlar; amaliy mashg'ulotlar; amaliyotlar; logopedik o'yinlar va boshqalar. Amaliy mashg'ulotlarning ustuvor maqsadini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Olingan bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash, tashabbuskorlik, faollik va ijodkorlikni rivojlantirishdan iborat. Bundan tashqari, amaliyot bo'lajak logopedlarning ilmiy bilimlar usullari va vositalarining butun arsenalini olishini ta'minlashga qaratilgan.

Amaliy mashg'ulotlar pedagogning ajralmas nazorati ostida amalga oshiriladigan va batafsil, tahlil qilish, kengaytirish, chuqurlashtirish, mustahkamlash, qo'llash (yoki turli xil amaliy ishlarni bajarish) uchun xizmat qiladigan o'quv jarayonini tashkil etishning maxsus shaklidir.

Amaliy mashg'ulotlar ancha moslashuvchan tuzilishga ega. Ularning asosiy ustunligi shundaki, amalda turli faoliyat turlarini, jumladan frontal, guruhli, juftlik, individual va hokazolarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuvdan foydalanish bo'lajak logopedlar bilan ishlashni farqlash va har bir shaxsga individual yondashish imkonini beradigan sharoitlarni yaratadi.

Bundan tashqari, amaliyotda nazariy bilimlarni ishlab chiqish, ko'nikma va qobiliyatlarni mustahkamlash ancha osonlashadi. Shuni ta'kidlash kerakki, ma'ruza davomida bo'lajak logopedlarning asosiy e'tibori muayyan o'quv fanining nazariy qoidalari va postulatlarini tushuntirishga qaratilgan. Bundan farqli o'laroq, amaliyot nazariyani qo'llash usullarini o'rgatadi.

Ma'lumki, amaliy mashg'ulotlar barcha asosiy kurslar va fanlarning ma'ruzalari bilan parallel ravishda olib boriladi. Ana shu uyg'unlikda o'quv jarayoni yanada samarali bo'ladi. Yangi ta'lim standartlarini oliy ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi o'quv yukini sezilarli darajada qayta

taqsimlashni oldindan belgilab berdi. Bu dars soatlarining sezilarli darajada qisqarishiga va ularning mustaqil ishlarga qayta taqsimlanishiga olib keldi. Mustaqil ish o'quv jarayonida katta rol o'ynaydi. Mustaqil ishlarning maqsadi bo'lajak logopedning o'quv materialini va ilmiy ma'lumotlar bo'yicha mazmunli va mustaqil faoliyati bo'lib, bu o'z navbatida o'z-o'zini tashkil etish va o'z-o'zini tarbiyalashni rivojlantirishga yordam beradi. Shunindек, samarali mustaqil ish bo'lajak logopedning o'zini o'zi boshqarishiga, ish va dam olish vaqtini to'g'ri va oqilona taqsimlash qobiliyatiga yordam beradi. Bo'lajak logopedlarning mustaqil ishlarni hal qilish uchun mo'ljallangan asosiy vazifalarga alohida e'tibor berilishi kerak. Ular orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq:

- ma'ruza darslarida materialni bayon qilish jarayonida olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash;

- guruhda yoritilmagan qo'shimcha ma'lumotlarni qidirish; o'quv dasturi materiallarini yanada chuqurroq o'zlashtirish;

- o'z-o'zini tashkil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish;

- fikrlash mustaqilligini, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirish va o'zini o'zi anglash qobiliyatini shakllantirish;

- nazariy, amaliy va o'quv va ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish.

Bu rivojlangan moddiy-texnika bazasi, kutubxona ma'lumotlar fondi va ular bilan sinfda va darsdan tashqari vaqtlarda ishlash uchun to'siqsiz foydalanishga tegishli. Zamonaviy sharoitda innovatsion ta'lim texnologiyalari oliy ta'lim tizimida alohida o'rin egallaydi. Ularning paydo bo'lishi iqtisodiyotning barcha jabhalarida, xususan, ta'limda axborotlashtirish, kompyuterlashtirish va raqamlashtirish jarayonlarining rivojlanishi bilan bog'liq. Amaliyotda keng qo'llaniladigan texnologiyaning quyidagi turlari farqlanadi:

- ◆ muammoli ta'lim;
- ◆ kommunikativ trening;
- ◆ intensiv mashg'ulotlar
- ◆ o'yin texnologiyalari;
- ◆ moderatsiya (interaktiv trening);
- ◆ masofaviy texnologiya
- ◆ loyihaga asoslangan ta'lim.

Masofaviy texnologiyalar deganda o'quv jarayonini tashkil etish tushunilishi kerak, uning asosiy maqsadi pedagog va bo'lajak logopedning to'g'ridan-to'g'ri o'zaro ta'sirisiz axborotni uzatish va qabul qilishning elektron kanallaridan foydalanish orqali bo'lajak logopedlarni faol bilim faoliyatiga jalb qilishdir. Biroq masofaviy texnologiyalar yordamida ta'lim tizimini takomillashtirish zarur. Bunday qadam o'quv jarayonining barcha sub'ektlari faoliyatini sezilarli darajada soddalashtiradi, tegishli tartibda tartibga soladi va optimallashtiradi va eng muhimi, ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. Shu nuqtai nazardan, bunday elektron platformaning mavjudligini har bir ta'lim muassasasining masofaviy ta'lim elementlarini ta'lim jarayoniga integratsiyalashuviga tayyorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida baholash mumkin.

O'quv jarayonini tashkil etish, samarali natijaga erishish ko'p jihatdan to'g'ri, optimal metodni tanlashga bog'liq. Eng qulay va yuqori samara beruvchi metodni tanlashda o'qituvchi bir qancha omillarni xisobga olishi,



ularni tahlil qilishi va shu tahlil asosida ma'lum vaziyatga mos tushuvchi metodni tanlash malakasiga ega bo'lishi talab etiladi. Bo'lajak o'qituvchilarda har bir dars uchun mos keluvchi eng qulay metodni tanlash malakasini shakllantirish o'ta muhim masala. Chunki to'g'ri tanlangan metod o'quv jarayonining samarali bo'lishiga olib keladi.

Adabiyotlar

1. Абидова Н.З. Организация работы учителя-логопеда в условиях инклюзивной практики // мактаб ва ҳаёт журнали, № 4 (168) / 2022

2. Turdaliyeva Sh.H. „Bo'lajak logopedlarni tayyorlashda an'anaviy va innovatsion texnologiyalarning o'zaro bog'liqligi" Pedagogika ilmiy-nazariy va metodik jurnal.

3. Perepletov A.M. Kafedra universitetlarida axborot turidagi o'yinlarni o'rganishni joriy etishning dolzarb muammolari // Gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy fanlar. 2015 yil. 3-2-son. 82-85-betlar.

4. Fertikova D.O. Masofaviy ta'limning afzalliklari va kamchiliklari // Gumanitar va tabiiy fanlar xalqaro jurnali. 2017. No 11. B. 40 – 42.

MIYA FALAJIGA CHALINGAN 2-4 YOSHLI BOLALARNING SENSOMOTOR TOMONINI RIVOJLANTIRISH

Yo.I.Abdumutalibova, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2-bosqich magistratura talabasi

В данной статье рассматривается проблема развития моторики у детей 2-4 лет с детским церебральным параличом, а также представлены преимущества внедрения метода сенсорной интегративной терапии в процесс коррекционно-логопедической работы.

Ключевые слова и понятия: сенсомоторная коррекция, ДЦП (детский церебральный паралич), реабилитация, развитие движений.

This article discusses the problem of the development of motor skills in children 2-4 years old with cerebral palsy, and also presents the advantages of introducing the method of sensory integrative therapy in the process of corrective speech therapy work.

Key words and concepts: sensorimotor correction, cerebral palsy (infantile cerebral palsy), rehabilitation, movement development.

Hozirgi vaqtda pedagog va psixologlarning diqqat-e'tibori erta yoshdagi bolalarning jismoniy va psixologik rivojlanish muammolariga qaratilgan. Bunga sabab erta yosh davri eng jadal rivojlanish, ya'ni bolaning jismoniy va psixologik jihatdan shakllanish davri hisoblanadi. Shu bilan birga hozirgi kunda bolaning turli-tuman sabablarga ko'ra jismoniy va psixologik jihatdan rivojlanishining buzilishi muammosi birinchi o'ringa chiqmoqda. Sensomotor va psixomotor rivojlanishi buzilishining eng keng tarqalgan hamda og'ir shakli bu bolalar miya falajidir (BMF).

BMF bilan kasallangan bolalarda avvalombor, muhim funksional tizim bo'lgan harakatlanish faoliyati izdan chiqadi. Harakatlanish patologiyasining yaqqol ifodalaniishi ba'zan sensorli yetishmovchilik bilan uyg'unlikda uchrab turishi mazkur kasallik bilan kasallangan bolalarda intellektual faoliyati rivojlanmay qolishiga sabab bo'ladi. O'z vaqtida malakali pedagogik ko'mak berish ular holatini korrektsiyalash (yaxshilash) va keyinchalik ijtimoiylashuvining zarur sharti hisoblanadi.

Nemis terapevti U. Kisling va amerikalik ergoterapevt E.Djin Ayres organizmning funksional tizimini sensorli integratsiya yordamida rivojlantirishga e'tibor bergan holda asosiy diqqatlarini psixik xarakterga ega bo'lgan kasalliklarga qaratishgan. Shunday qilib, erta yoshdagi bolalarni sensomotorli korrektsiya orqali jismoniy reabilitatsiyasini amalga oshirish muammosi hozirgi kunda juda ham dolzarb bo'lib, alohida e'tiborni talab etadi.

Sensorli integratsiya (sensorli integratsion davolash) – insonning asab tizimi barcha sezgi organlari retseptorlaridan (vestibulyar apparat, propriotsepsiya yoki mushak-bo'g'im sezgisi, paypaslash, hid bilish, ko'rish, eshitish, ta'm bilish) ma'lumotlarni qabul qilib olish jarayonidir. Keyinchalik ularni jamlab, maqsadli faoliyatda to'g'ri va mutanosib foydalana oladigan darajada uyg'unlashtiradi. Barcha hissiyot organlarining o'zaro harakatlanishi insonning vaziyatdan kelib chiqqan holda xatti-harakatlarini amalga oshirishni nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, muayyan bir harakatni bajarish uchun xizmat qiluvchi moslashuvchan reaksiya.

Sensorli signallarni qayta ishlov berish jarayonidagi buzilishlar yuzaga kelganda bolaning motor, ong rivojlanishi, shuningdek xatti-harakatlaridagi disfunktsiyalar, ya'ni buzilishlar ro'y beradi.

Sensorli integratsion davolashning maqsadi markaziy asab tizimidagi sensorli stimullarga ishlov berish amaliyotini kuchaytirish, rivojlantirishdan iborat.

Sensorli integratsion davolash mashg'uloti 3 ta asosiy qismdan iborat: tayyorlov, asosiy va yakuniy. Tayyorlov qismi bolani keyingi ta'sir etish jarayoniga tayyorlashga qaratilgan. Bu qismda biz bolaning taktil sezgisiga ta'sir ko'rsatamiz, uqalaymiz, bo'g'imlarini vibromassajer yordamida massaj qilamiz va natijada bola o'z tanasini yaxshiroq his qiladi. Mashg'ulotning asosiy qismi sensomotor tuzatish bo'yicha ishlab chiqilgan dasturni bevosita amalga



oshirishni o'z ichiga oladi. Bolaning individual xususiyatlari va vaznidan kelib chiqqan holda mashqlarni bajarish uchun turlicha vaqt sarflanadi. Mashg'ulotning yakuniy qismida ko'rish va eshitish qobiliyatlari stimulyasiyasi amalga oshiriladi. Mutaxassislar bolalar bilan birgalikda turli xil chiroqlardan taralgan nurlarni ko'rib kuzatish, hayvonlarning sharpalarini topish, shuningdek u yoki bu musiqa asbobi qanday sado berganligini eshitib ko'rish kabi sinamalarni bajaradilar.

Mazkur jarayonda maslahat va suhbatlardan tashqari ota-onalar uchun o'z bolalari bilan sensomotorli tuzatish mashg'ulotlarini mustaqil tarzda olib borishlari bo'yicha yo'riqnoma o'tkaziladi. Mashg'ulot davomida ota-onalarning bevosita ishtiroki ta'minlanadi: ular bolalarning u yoki bu harakatlarni bajarishlarini qo'llab-quvvatlovchi so'zlardan foydalanib, rag'batlantirib turishlari mumkin, mashqlarning ayrim qismlarini esa o'zlari bajarib ko'rsatadilar.

Sinamalarni bajarishda ko'pincha bolalarning harakatlanish imkoniyatlari juda ham past darajada ekanligi, yelka,

qorin va oyoqlar mushaklari chidamliligining yetarlicha emasligi, ko'rish-motor reaksiyasini baholash nuqsonning og'irligi sababli reaksiya to'xtab qolganligini kuzatish mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, mazkur bolalar bilan tashkil etiladigan korreksion-logopedik yordam dasturiga sensomotorli tuzatish ishlarini kiritish zarurligi to'g'risida xulosa qilish mumkin.

Adabiyotlar

1. Айрес, Д. Ребенок и сенсорная интеграция. Понимание скрытых проблем развития / Д. Айрес / пер. сангл. Ю. Даре; науч. ред. Е. Ключкова. — М.: Теревинф, 2009. — 272 с.
2. Бадалян, Л. О. Детские церебральные параличи / Л. О. Бадалян, Л. Т. Журба, О. В. Тимонина. — Киев: Здоровье, 2010. — 328 с.
3. Иваницкая, И. Н. Детский церебральный паралич (обзор литературы) / И. Н. Иваницкая // Альманах «Исцеление». — М., 2012. — С. 41—53.

NUTQI TO'LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALARDA IBORALI NUTQ RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

I.Nazrullayeva, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 2 bosqich magistratura talabasi

В данной статье выделены специфические особенности речи детей, у которых речь развита не полностью, недостатки в развитии фразеологической речи, особенности их проявления.

Ключевые слова и понятия: речь, образование, недоразвитие речи, звук, восприятие, грамматические формы, фонематика, лексика, грамматика, аграмматизм, общение, личность, логопед, развитие.

This article highlights the specific features of the speech of children whose speech is not fully developed, shortcomings in the development of phraseological speech, and the features of their manifestation.

Key words and concepts: speech, education, underdevelopment of speech, sound, perception, grammatical forms, phonetic-phonemics, vocabulary, grammar, agrammatism, communication, personality, speech therapist, development.

Ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchi har bir bolaning zamon talabi asosida har tomonlama shakllangan shaxs bo'lib, jamiyat ishlarida faol qatnashishida nutqning to'g'ri rivojlanishi juda katta ahamiyatga ega. Shu bois har bir insonni nutqni puxta egallashga, o'z fikrini to'liq ifoda etishga o'rgatish lozim. Turli jismoniy nuqsonlarga ega bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasiga bo'lgan e'tibor hozirgi kunda yanada kuchaytirilmoqda. Sog'lom bolalar bilan bir qatorda nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar ham to'g'ri ta'lim-tarbiya olishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

So'nggi davrda nutqning to'liq rivojlanmaganligini o'rganishdagi muvaffaqiyatlarga tadqiqotchilarning o'z faoliyatlarida nuqson tahliliga har tomonlama sindromol yondashuv metodologiyasiga ko'proq tayanganliklari sababli erishilgan.

Nutqning rivojlanmaganligida nutq buzilishlari sistemali xarakterda bo'lib, uning barcha tarkibiy qismlari, ya'ni

fonetik-fonematik va leksik-grammatik tomondan buzilishi o'ziga xoslikni namoyon qiladi.

Nutqning rivojlanmaganlik belgilariga ko'ra bolalarni fonetik-fonematik rivojlanmaganlik ustunlik qiluvchi guruhlariga (ular kamchilik) va leksik-grammatik rivojlanmaganlik ustun bo'luvchi guruhlariga bo'lish mumkin. Taxminlarga ko'ra, birinchi guruh-dominant yarim shar po'stlog'ining markaziy motor sohalaridagi pastki bo'limlarning dastlabki jarohatlanishlariga asoslanadi. Bunda mayda artikulyasion harakatlarning buzilishi, nutq harakat analizatorlari tonusining pasayishiga olib keladi, buning natijasida zaif va nozik kinestetik impulsni idrok qilish qiyinlashadi va hatto butunlay cheklanadi. Po'stloq tomonidan faqat birmuncha yirik kinesteziyalar qabul qilinadi va tahlil qilinadi. Buning natijasida, nutqning rivojlanmaganligida, gohida o'ziga qaratilgan nutqni yetarli idrok qilolmaslik, grammatik shakllar va keng yozilgan matnni tushunishni sekinlashuvi va qiyinlashuvi kuzatiladi.

Ko'pincha, tovushlarni aniq idrok qilolmaganidan bolalar, iboralarning faqat alohida elementlarini olib oladilar va ularni yagona mazmun tuzilishga bog'lay olmaydilar. Tushunishning bunday chegaralanganligi asosiy nuqsonning ikkilamchi ko'rinishi hisoblanadi.

Haddan tashqari kambag'al faol nutqqa ega bo'la turib, bolalar yetarlicha passiv lug'atga ega bo'lishlari mumkin. Bir qarashda nutqni tushinish holati shubha tug'dirmasligi mumkin, ammo nutqning murakkab variantlarini tushinishda baribir ayrim qiyinchiliklar bo'ladi, ya'ni tushunishning turli darajalari aniqlangan, ya'ni grammatik shakllarni butunlay tushunmaganlikdan, yagona grammatik konstruksiyalarni tushunishdagi alohida qiyinchiliklargacha.

Fonematik tasavvurlarning diffuzligi, tovushni idrok qilish va qayta takrorlashning noaniqligi, so'zning tovush va bo'g'in tarkibida zaif mo'ljall olishi holatlari, bolalarda, so'z va iboralarning strukturali shakllanmaganligi, grammatik vositalarni qo'llashda yetarlicha variativlikning kamligi asosida kuzatiladi.

Nutqning rivojlanmaganligida bolalarda lug'at boyligi sekin, nutqiy amaliyotda noto'g'ri foydalanilgan holda rivojlanadi.

Bolalar ot va fe'lni nutqda muvofiqlashtirishda qiynaladilar, qo'shimcha va bog'lovchilardan foydalanmaydilar, ularning nutqida turdosh va son qo'shimchalarining aniqligi yo'q va h.k. Mazmun farqlovchi old qo'shimchalarni noto'g'ri qo'llaydilar. Turlanganda so'z oxirining o'zgarishdan mahrum o'zak so'zlar ustunlik qiladi, bayon qilishning morfologik to'ldirilmaganligi kuzatiladi. Bolalarda grammatik vositalarni qo'llashda variativlik yetishmaydi; deyarli barcha grammatik shakllarni farqlash va qo'llash murakkablashgandir. Bolalar til hodisalarini kuzata olmaydilar, tahlil qilolmaydilar, umumlashtira olmaydilar, nutqiy material ustidan fikrlash operatsiyasini amalga oshiro olmaydilar, nutqiy belgini tushunib to'g'ri qo'llay olmaydilar. Ular ot, fe'llarning sonli shakllarini egallashda qiynaladilar. Bunday amorf iboralar, aniq grammatik birikmalarsiz (fleksiya, bog'lovchi va boshqa vositalarni talab qiluvchi) faqat ma'lum vaziyatlardagina tushunarli bo'ladi.

Nutqi rivojlanmagan bolalarda gap shakllanishi jarayoni, rivojlanishning barcha etaplarida bir qator xususiyatlarni namoyon qiladi. Agrammatizmning turli ko'rinishlari kuzatiladi (ekspressiv agrammatizm-shaxsiy nutqning grammatik qurilishini buzilishi, impressiv-grammatik konstruksiyalarni tushunishdagi qiyinchiliklar): strukturali agrammatizm, semantik agrammatizm va gapda so'zlarni noto'g'ri bog'lash bilan bog'liq agrammatizm.

Strukturali agrammatizm deganda so'z tartibining buzilishi, gapda so'zlarning miqdori va ketma-ketligining buzilishi tushuniladi. Agrammatizmning bu ko'rinishi, nisbatan og'ir nutqiy shakllanmaganlikda ko'proq kuzatiladi. Bola imo-ishora bilan birga bir, ikkita so'zlar bilan javob beradi. Leksik-grammatik, fonetik vositalarning yetishmasligidan bolada muloqotning mimika-imo-ishora shaklining rivojlanishi kuzatiladi. Fikrni ifodalash uchun u ko'pincha otning nominal shaklini to'g'ri yoki buzilgan kelishiklarda ifodalaydi. Bolalarda grammatik qurilish sekin va notekis rivojlanadi, shakl o'zgartirish va shakl hosil qilishda kamchiliklar kuzatiladi, grammatik mezonlar o'zlashtirilmaydi, sintaktik konstruksiyalar soddaligi bilan farq qiladi.

So'zlarning leksik-grammatik variativligi va grammatik konstruksiyalarni qo'llashda uyg'unlikni yetishmasligi, kamligi xarakterli hisoblanadi. Semantik ekvivalentlar to'plami va qulay grammatik vositalarning yo'qligi, mazmun o'rnini bosishga, bir qator so'zlar va grammatik modellar ichidan tanlashning (berilgan kontekst uchun muhim) chegaralanganligiga olib keladi.

Nutqi rivojlanmagan bolalarda gap tuzilishining shakllanmaganligi, ichki nutqiy operatsiyalarning yetilmaganligi oqibatidir. Ichki operatsiyalar bu— so'zlarni tanlash va bayon qilish rejasini tuzishdir. Gapni leksik-semantik va leksik-grammatik amalga oshirish noto'g'ri kechadi, bunda predmetli aloqalarning to'la emasligi ko'rinadi (bolaning tevarak atrofdan idrok etgan predmetlari).

Bayon qilish jarayonida barcha operatsiyalarning yetilmaganligiga qarab, tadqiqotchilar nutqiy faoliyat mexanizmidagi uzatish va qaytish aloqalari tizimini buzilishini ko'rsatib o'tdilar, shuningdek ichki dasturlashning buzilishi va bayon qilishni tashqi amalga oshirishning buzilishi ham ta'kidlanadi.

Bog'langan nutqda gaplarni birlashtirishda bolalar ma'lum qiyinchiliklarga uchraydilar, ularda kontekst tuzish uquvi shakllanmaganligi aniqlangan. Nutq poyma-poy, tushunarsiz, vaqt va sabab-oqibat aloqalari yetishmaydi.

Bog'langan nutqni egallash uchun bolaning ichki nutqi yetarli rivojlangan bo'lishi /so'zlarni tanlash, ularni ma'lum tizimda aniqlash, nutqiy muloqot rejasini tuzish/ talab etadi.

Kontekst nutq boladan nafaqat ichki, balki tashqi nutqni (bayonni shakllantirish motivatsiyadan boshlanadi, so'ng motiv faollik zahirasi sifatida fikr bilan mustahkamlanadi, ichki nutq orqali tashqi bayon amalga oshiriladi) rivojlantirishini ham talab etadi.

Nutqi rivojlanmagan bolalarda nutqni shakllantirishning boshlang'ich bosqichlarida muloqotga ehtiyojning yo'qligi kuzatiladi. Bu esa umumiy buzilishlar va nutqiy faollik bilan bog'liq. Nutqning yo'qligi hisobiga paralingvistik vositalardan /imo-ishora, mimika, pantomimika, intonatsiya/ foydalaniladi. Bolalar ketma-ket keladigan rasmlar mazmuni bilan mantiqiy tanishtirishda qiyinchiliklarga duch keladilar: ayrimlari rasmlarni to'g'ri ketma-ketlikda tahlil olmasalar, ayrimlari to'g'ri ketma-ketlikdagi rasmlarni to'g'ri bayon eta olmaydilar.

Kontekst nutqning shakllanmaganligi ichki rejani tashqi nutqda noto'g'ri amalga oshirilishi bilan bog'liq. Bayon qilishning fragmentarligi, maydalashganligi kuzatiladi, bundan tashqari bir tekisdagi ketma-ketlik buziladi, vaziyatning bir yoki bir nechta mantiqiy qatorlarining tushib qolishi, fikrlar tarqoqligi kuzatiladi. Ketma-ketlik asosida hikoya tuzishdagi qiyinchiliklar sababi emotsional omil bo'lishi ham mumkin. Bola birinchi o'ringa o'z o'tmish amaliyotida duch kelgan yorqin holatni qo'yishi mumkin. A.R. Luriya bu holatni birlamchi nutq buzilishi emas, balki umumiy faol faoliyatni dasturlashning buzilishlari deb baholaydi.

Predmetlarning fazoviy munosabatini ifodalovchi murakkab mantiqiy-grammatik konstruksiyalarni egallash bolaga katta qiyinchiliklarni tug'diradi. Hikoyaning tartibsizligi, ifodalilikning kambag'alligi, aloqa vositalarining soddaligi va bir turliligi kuzatiladi. Bolalar mavzuni yechib berish uchun muhim bo'lgan dalillarni tanlashni bilmaydilar, kerakli so'zlarni topa olmaydilar, ikkilamchi tafsilotlarda turib qoladilar, asosiy mazmunni unutadilar.



Nutqiy imkoniyatlarning rivojlanishi asosida monologik bayon qilishning sabab-oqibat munosabatlarini egallash natijasida mustaqil nutq birmuncha toʻgʻri-rilanadi, lugʻat oʻsadi va murakkablashadi, soʻz va gaplarning tovush-boʻgʻin tuzilishi yaxshilanadi, turli aloqa koʻrinishlarini qoʻllash bilan birmuncha murakkablashgan gaplar paydo boʻladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni aytish joizki, nutqi rivojlanmagan bolalarda nutqning rivojlanmaganligi muloqot motivatsiyasining shakllanmaganligi bilan, faoliyatning turli komponentlari faolligini buzilishi bilan uygʻunlashar ekan.

Adabiyotlar

1. Ayupova M.Yu. Logopediya. Oʻzbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti.T.: 2011
2. Жукова Н.С., Мастюкова Е.М. Филичева Т.Б. Преодоление общего недоразвития речи у дошкольников. М. 1990.

3. Логопедия // Ред. Л.С. Волкова, С.Н. Шаховская. – М., ВЛАДОС, 1998.

4. Миронова С.А. Развитие речи дошкольников на логопедических занятиях. – М., Просвещение, 1991.

5. Мўминова Л.Р., Аюпова М.Ю. Логопедия. Т. 1993.

6. Сазанова С.Н. Развитие речи дошкольников с общим недоразвитием речи. М. 2003.

7. Туманова Т.В. Особенности словообразования у дошкольников с общим недоразвитием речи. М. 2002.

8. Филичева Т.Б., Чиркина Г.В. Коррекционное обучение детей пятилетнего возраста с общим недоразвитием речи. – М., Педагогика, 1991.

9. Филичева Т.Б., Чиркина Г.В. Подготовка к школе детей с общим недоразвитием речи в условиях специального детского сада. – М., 1993.

KASBNING INSON OLDIGA QOʻYADIGAN TALABLARI

M. Tolipova, Oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻnaltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi metodisti

В данной статье всесторонне анализируются требования профессий к учащимся, чтобы правильно выбрать профессию и стать зрелыми специалистами своего дела, какие профессиональные и личные требования следует знать при выборе профессии.

Ключевые слова и понятия: трудовая деятельность, профессиональное образование, профориентация, профессиональный отбор, профессиональная адаптация.

This article comprehensively analyzes the requirements of professions for students in order to choose the right profession and become mature specialists in their field, what professional and personal requirements you should know when choosing a profession.

Key words and concepts: labor activity, vocational education, career guidance, professional selection, professional adaptation.

Bugungi kunda mamlakatimizda uzluksiz taʼlim tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri yoshlarni chuqur bilim olishlari, isteʼdodlarini roʻyobga chiqarishda har tomonlama qoʻllab-quvvatlash boʻlib, shu bilan birgalikda ularning mustaqil hayotga tayyorlash koʻnikmalarini ham shakllantirib borish ustuvor yoʻnalishlardan biri hisoblanadi.

Kasb shaxs tomonidan tanlanadi va quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- maktabda kasbiy maʼlumotlar berish;
- kasb- hunar maorifi bilan shugʻullanish;
- radio, televidenie, kino, matbuotda tashviqot qilish;
- kasb yuzasidan maslahatlar;
- kasbga saralash (qobiliyatiga binoan);
- kasbga moslashish (adaptatsiyalash).

Kasbning mazmunini va mohiyatini tushunmaslik oʻquvchilarda tanlagan kasbiga munosabatining salbiylashishiga olib keladi. Bunday holatning oldini olish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- Oʻquv materiallarini, umuman taʼlimni hayot bilan bogʻlash.
- Maʼlumotlarni oʻzlashtirishda shaxsiy faollikni shakllantirish.

- Oʻtgan bosqichdagi faoliyatdan qoniqish va kelgusi faoliyat uchun ijobiy zamin hozirlash.

- Istiqbol rejani muvofiqlashtirish va yosh bosqichining yuqorilashuviga qarab buni takomillashtirib borish.

- Oʻquv-metodik qiyinchilik bilan shaxsiy nomurosasizlik belgilari oʻrtasidagi uzviylikni yoʻqotish.

- Kasbiy faoliyat hayotning muhim qismi boʻlib, ishdagi muvaffaqiyatlar oʻziga ishonishga yordam berishligini inobatga olish.

Professiogramma oldiga quyidagi talablarni qoʻyish maqsadga muvofiq:

1. Ishning qanday nomlanishi va uning nimalardan tuzilishi
2. Ishning maqsadi, samaradorligi xususida maʼlumotlar;
3. Mehnat quroli sifatida nimalar qoʻllanilishi;
4. Mehnat predmetining tarkiblari va ularning oʻziga xos jabhalari;
5. Mehnat faoliyati qaysi usullar yordami bilan bajarilishi;
6. Nimalarning negizida ish (mehnat, faoliyat; amalga oshirilishi);
7. Mehnat mahsullarini baholash mezonlari;
8. Ishning qanday ixtisoslik talab qilishi xususiyatlari.
9. Ish qanday vositalar yordami bilan bajarilish imkoniyati va uning motivirovkasi.



- MAKTAB VA HAYOT ♦ №8 ♦ 2022**



v) asosiy qurollar va vositalar: qo'l aslahalaridan - slesar, xirurg, skripkachi, g'ijjakchi kabi kasb egalari foydalanadi;

g) mehnat sharoitlari: kasb tanlovchini o'rab turgan tabiiy muhit va sharoitlar, kishilar va hokazo.

O'quvchilarga qanchalik o'z qiziqishlari, layoqati, xohish-istaklari va qobiliyatlarini to'g'ri anglab yetish asosida kasb-tanlashlariga imkoniyat berilsa, shu sohaning taraqqiyotiga zamin hozirlangan hisoblanadi. Bu esa kelajakda yoshlarning o'z sohalari bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lishlariga imkon demakdir.

Adabiyotlar

1. F.R.Abduraxmonov, Z.Ye.Abduraxmonova. Kasb psixologiyasi. Darslik. T. 2018. 176 b.
2. Xolyigitova N.H., Abdumadjidova D.R. Kasbiy psixologiya. O'quv qo'llanma. T.2019. 544 b.
- 3.G'oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent 2003.
- 4.Jo'rayeva S.N., Yunusxodjaev Z.Sh. Kasbiy psixologiya. T.2014.214 b
- 5.Abdullayeva R.M. Kasbiy psixologiya. O'quv qo'llanma. T.2019. 253 b.

NOGIRONLIGI BO'LGAN TALABALARNING OLIY KASBIY TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

G.Abdullayeva, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Обеспечение равных возможностей в получении образования для инвалидов является важной составной частью реализации принципов независимой жизни, доступа к профессиональному образованию и социально-трудовой адаптации.

Ключевые слова и понятия: лица с инвалидностью, конкурентоспособность, подготовка преподавателей, профессиональное образование и социально-трудовая адаптация.

Ensuring equal opportunities in education for disabled people is an important part of the implementation of the principles of independent living, access to vocational education and social and labor adaptation.

Key words and concepts: persons with disabilities, competitiveness, teacher training, vocational education and social and labor adaptation.

Bugungi kunga kelib, alohida ta'limga muhtoj va nogironligi mavjud yoshlarning kasb-hunar ta'limi masalalari O'zbekiston Respublikasi ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Yuqori sifatli kasb-hunar ta'limini olish imkoniyati, mehnat bozoridagi talab nogironlarga iqtisodiy turmush sharoitlarini yaxshilashga, mehnat va ijtimoiy izolyasiyani yengishga va jamoat hayotiga iloji boricha faolroq qo'shilishga imkon beradi.

Aytish mumkinki, ta'lim ushbu toifadagi odamlarni reabilitatsiya qilishning asosiy vositalaridan biriga aylanmoqda Nogironlar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini ta'minlash mustaqil yashash, kasb-hunar ta'limi va ijtimoiy mehnatga moslashish tamoyillarini amalga oshirishning muhim tarkibiy qismidir[1].

O'zbekiston Respublikasida nogironlarning inklyuziv kasbiy ta'limini amaliy qo'llab-quvvatlash vositasi o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida asosiy kasbiy ta'lim tashkilotlarini (KTT) va shunga muvofiq Oliy ta'lim tizimida inklyuziv Oliy ta'lim resurs markazlarini (OTRM) yaratish tashabbusini amalga oshirishdan iborat [2]. Loyihalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan modellar va algoritmlarni yaratish jarayonida nogironlar uchun oliy ma'lumotni qo'llab-quvvatlashning asosiy bosqichlari va mutaxassislarning tegishli ish yo'nalishlari aniqlandi:

1. Asosiy umumiy va o'rta umumiy ta'lim bosqichida nogironligi bor bo'lgan shaxslarni kasbga yo'naltirish ishlarini qo'llab-quvvatlash;

2. Nogironligi bor bo'lgan talabalar ta'limini har tomonlama qo'llab-quvvatlash..

Tanlangan yo'nalish (mutaxassislik)bo'yicha o'qitishni qo'llab-quvvatlash:

- universitetga moslashishning diagnostikasi va yordami, moslashuv fanlari dasturiga maxsus texnologiyalar, usullar va metodlarni kiritish;

- ta'limni tiklash, o'quv dasturlari va o'quv fanlarining ish dasturlarini moslashtirish uchun sharoit yaratish; individual ta'lim yo'nalishini ishlab chiqish;

- nogiron talabalar uchun moslashuv fanlari va ixtisoslashtirilgan moslashuv modulini joriy yetish;

- kasbiy faoliyatning ayrim turlari bilan shug'ullanishga qarshi ko'rsatmalar va nogironlarning mehnat sharoitlariga gigienik talablarni hisobga olgan holda amaliy mashg'ulotlarning individual variantlarini aniqlash;

- nogiron va nogiron talabalar uchun o'quv qiyinchiliklarini bartaraf etish va akademik xavflarning oldini olish bo'yicha maslahat berish;

- nogiron o'quvchilarni madaniy, ijodiy va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va ishtirok etishga jalb qilish;

- adaptiv jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish.

Amaliyotni qo'llab-quvvatlash:

- ta'lim (kasb /mutaxassislik) yo'nalishlari bo'yicha amaliyot rahbarlariga, ish beruvchilarga nogironlar amaliyotini qo'llab-quvvatlash bo'yicha uslubiy tavsiyalar tayyorlash va tarqatish;

- muqobil amaliyot imkoniyatini yaratish, shu jumladan ta'lim tashkiloti asosida;

- menejerlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni amalga oshirish, amaliyot asoslari va

Bitiruv ishini qo'llab-quvvatlash, malakaviy topshiriq, ishga joylashish, yosh mutaxassisni birlamchi qo'llab-quvvatlash:

- ish joyida kasbiy o'zini o'zi belgilash va mustahkamlash masalalari bo'yicha talabalarga maslahat berish;



- talabalarni turli darajadagi kasbiy mahorat tanlovlarida ishtirok yetishga jalb qilish;

- “Karera texnologiyasi” kursini o’zlashtirish; - kafedralar, nogiron talabalarni va ushbu toifadagi shaxslarni qo’llab-quvvatlash resurs markazi, bandlikka ko’maklashish markazi va nogiron bitiruvchilarini ishga joylashtirishga yordam beradigan tashkilotlar, birlashmalar, korxonalarning o’zaro hamkorligi;

- nogiron bitiruvchilarga ish qidirish va ish bilan ta’minlashga ko’maklashish.

Bugungi kunda O’zbekistonda imkoniyati cheklangan yoshlarning oliy ta’lim olish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi, chunki har yili mamlakatdagi oliy o’quv yurtlariga davlat granti asosida qo’shimcha ikki foizlik kvota asosida mingdan ortiq talaba qabul qilinadi. “Oliy o’quv yurtlarida imkoniyati cheklangan talabalarining ijtimoiy moslashuvi” loyihasi doirasida mamlakatimizning 3 ta oliy o’quv yurtida (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Jizzax davlat pedagogika instituti) tadqiqotlar (anketalar, suhbatlar, kuzatishlar) o’tkazildi. Tadqiqot talabalarining oliy ta’lim olishlari uchun yaratilgan ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlarni o’rganish imkonini berdi.

So’rovnoma 525 nafar birinchi kurs talabalari ishtirok etib, ulardan 43 nafari (8,1%) eshitish qobiliyatida, 105 nafari ko’rish qobiliyatida (20,2%), 248 nafari tayanch-harakat tizimida (47,1%), 129 nafarida (25,1%) boshqa nuqsonlari bor. Talabalar kontingenti tarkibiga 43 nafar (8,1%) I-guruh nogironi, 440 nafar (84,2%) II guruh nogironi, 15 nafar (3,0%) III guruh nogironi, 27 nafar (5,4%) bolalik nogironi kiritildi.

Talabalar so’roviga ta’lim muassasalari binolari va binolarining kirish darajasi, jamoada maqbul psixologik sharoitlarning mavjudligi va maxsus o’quv dasturlari, moslashtirilgan o’quv materiallari, o’quv qo’llanmalari va texnologiyalaridan foydalanish, repetitor xizmatlarini ko’rsatish va boshqa shartlar bilan bog’liq savollar kiritilgan.

Tajriba shuni ko’rsatadiki, eshitish va ko’rish nazorati yo’qligi sababli kar va ko’r talabalar nutq terapiyasi bilan to’liq shug’ullana olmaydilar. Shu sababli nogiron o’quvchilarni o’quv jarayoniga moslashtirish; fanlarni rivojlantirish uchun qo’shimcha darslar tashkil yetish; tarjimon xizmatlarini ko’rsatish, darsliklarni audio yozib olishda yordam berish, Brayl va katta shriftida bosilgan materiallarni tayyorlash, yordamchi texnologiyalarga yordam berish; ko’zi ojiz o’quvchilarni hududda, ta’lim muassasasi binosi va binolarida harakatlanishga o’rgatish, arxitekturaviy qulaylikni ta’minlash, imkoniyati cheklangan o’quvchilarning shaxsiy avtomobillari uchun to’xtash joylari ajratish, o’quvchilarni tashishni tashkil yetish zarur.

Shu sababli, nogiron talabalar uchun oliy kasbiy ta’lim olish huquqini ta’minlashda ijtimoiy va pedagogik sharoitlarni, samarali ta’lim texnologiyalarini joriy yetish shart.

Adabiyotlar

1. Архипова Е. Ф. Ранняя диагностика и коррекция проблем развития. Первый год жизни ребенка. – Москва: МОЗАИКА–СИНТЕЗ, 2012. – 160 с. 2..

2. Abdullayeva G.S. Kar bolalar maktabida yakka tartibdagi mashg’ulotlarda eshitish qobiliyatini rivojlantirish va talaffuzga o’rgatish dasturi // O’quv-qo’llanma. – Toshkent: “Respublika ta’lim markazi” 2013.-38 b.

3. Бабенкова Н. Е. Настольная книга здоровьесбережения. Новые стандарты. – Москва: УЦ «Перспектива», 2013. – 192 с.

4. Бабич Е. Г., Тактаров В. Г. Социально-психологическая работа по формированию толерантного отношения общества к семьям, воспитывающим детей с ограниченными возможностями здоровья: от преодоления изолированности к решению вопросов инклюзивного образования: учебно-методическое пособие. – Москва; Берлин: Директ–Медиа, 2015. – 72 с.

BOSHLANGICH SINF O’QUVCHILARIDA UCHRAYDIGAN NUTQ NUQSONLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH

N.B.Zairova, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, “Logopediya” kafedrasida o’qituvchisi

Речевое общение занимает центральное место в жизни человека, как фактор его психического развития, условие саморегуляции, как средство приобщения личности к общественным знаниям и усвоения общественного опыта, как условие развития мышления.

Ключевые слова и понятия: речь, развитие речи, дефекты речи, младший школьный возраст, логопедические пункты, логопед.

Speech communication occupies a central place in a person’s life, as a factor in his mental development, a condition for self-regulation, as a means of familiarizing the individual with social knowledge and assimilation of social experience, as a condition for the development of thinking.

Key words and concepts: speech, speech development, speech defects, primary school age, speech therapy centers, speech therapist.

Maktab o’quvchilarida nutqning buzilishi turli sabablar bilan bog’liq bo’lib, o’quvchilarning umumiy rivojlanishi va muvaffaqiyatiga har xil ta’sir qiladi. Ba’zida maktab o’quvchilarida so’z boyligining qashshoqligi, grammatik tuzilish va izchil nutqning buzilishi, tovush talaffuzining shakllanmaganligi, fonemik idrokning pastligi qayd etiladi. Bu bolaning fikrlarini aniq, to’liq va to’g’ri ifoda eta olmasligiga olib keladi.

Nutq to’liq rivojlanmasligi turli holatlar tufayli yuzaga kelishi mumkin: nutq organlarining noto’g’ri tuzilishi yoki harakatchanligi buzilishi, eshitish yoki ko’rishning pasayishi, bolada asab tizimining buzilishi.

Boshqa hollarda, nutqning kamchiliklari pedagogik beparvolikning natijasidir, ya’ni bola bilan kam muloqot qilish, bola atrofida gilarining ham nutqi yaxshi emasligi,



uni odatdagi “bola nutqi” deb hisoblab, buzilishiga e’tibor bermaslik.

Maktab yoshidagi bolalar nutqining o’z vaqtida bartaraf etilmagan fonetik o’ziga xosliklari allaqachon barqaror xususiyatiga ega va ularni tuzatish qiyinroq, chunki bola tovushlarni noto’g’ri talaffuz qilishi shakllanib bo’lgan va mustahkamlangan. Maktab o’quvchilarida mavjud bo’lgan turli xil nutq buzilishlari quyidagilar:

- fonetik yoki fonemik yetishmovchilik; (mexanik va funksional dislaliya, rinolaliya va dizartriya);
- nutqning umumiy rivojlanmaganligi (alaliya, rinolaliya, dizartriya);
- nutqning tempo-ritmik tashkil etilishining buzilishi - bu konvulsiv bo’lmagan yoki konvulsiv kasalliklar (nevrotik yoki nevrozga o’xshash tabiatdagi duduqlanish).

Nutqida buzilish kuzatilgan maktab o’quvchilari orasida yozma nutqning buzilishi (o’qish va yozish) juda keng tarqalgan hodisa. Bu bolalarning og’zaki nutqi buzilishi, ularning til umumlashtirishlari: fonemik, morfologik va sintaktik shakllanmaganligi bilan bog’liq.

Maktabga umumiy tayyorlik bolaning yaxlit, uyg’un rivojlanishini o’z ichiga oladi, unda shaxsning alohida tomonlarini emas, balki hamma narsani rivojlantirish kerak.

Har qanday sohaning rivojlanmaganligi (aqliy, hissiy-ixtiyoriy, amalda samarali, nutq) maktabda muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin.

Nutqda unga yaxshi tayyorlanmagan bolaning maktabga kirishi, agar zarur psixologik, tibbiy va pedagogik choralar ko’rilmasa, uning keyingi rivojlanishi uchun salbiy oqibatlariga olib keladi. Nutqning tovushli va leksik-grammatik jihatlari shakllanmaganligi sababli bunday bolalar ona tili va matematikada doimiy ravishda muvaffaqiyatsizlikka uchraydilar.

Nutq buzilishining og’irligiga qarab, maktab yoshidagi bolalarga turli xil logopedik yordam berilishi shart.

Logoped mashg’ulotlari qo’shimcha ravishda maktab ta’limi bilan parallel ravishda o’tkaziladi, ammo hyech qanday holatda ular sinf o’qituvchisining ishini takrorlamaydilar. Logoped mashg’ulotlari korreksion va rivojlantirish mashg’ulotlaridir.

Umumta’lim maktabidagi logopedik shoxobchalarning vazifalari o’quvchilarning og’zaki nutqidagi buzilishlarni tuzatish, o’qituvchilar va ota-onalar o’rtasida tuzatish va korreksion logoped bilimlarni targ’ib qilish, buzilishlarni o’z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, nutq nuqsoni bo’lgan o’quvchilarda ikkinchi nuqsonlarni kelib chiqishini oldini olishni.

Logopedik mashg’ulotlar nutqni rivojlantirishda tuzatish bilan birga, bolaga ta’lim-tarbiya berib, bilim, ko’nikma va malakalarni rivojlantiradi. Doimiy muvaffaqiyatsizlik holati natijasida bir qator o’quvchilar o’qishga salbiy munosabatda bo’lishadi, shuning uchun tuzatish darslarida bolalarning kognitiv faolligini rivojlantirishni rag’batlantirish, grammatikani o’zlashtirish uchun zarur bo’lgan aqliy mehnat usullarini shakllantirishga qaratilgan ishlar olib boriladi.

Bolalar shifokorlar tomonidan tibbiy ko’rikdan so’ng, o’qituvchilar tomonidan yoki ota-onalarning tashabbusi bi-

lan logopediya shoxobchasiga yuboriladi. Bolalarda mavjud bo’lgan nutq buzilishlarni bartaraf etishda eng muhimi, ularni o’z vaqtida aniqlash va to’g’ri tashxis qo’yish, logoped tomonidan bola o’qiyotgan sinf o’qituvchisi, ota-onalari bilan hamkorligidir. Bunday kompleks yondashuv davom etayotgan tuzatish va tarbiyaviy ta’sirning muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Ota-onalar bola bilan logopedik mashg’ulotlarda qatnashadilar, ular uchun maxsus suhbatlar o’tkaziladi, ularda bolaning nuqsoni va uni bartaraf etish yullari ochib beriladi.

Maktab o’quvchilarining nutq faolligini rivojlantirish juda muhimdir. Bolalarda, hatto kichik nutq buzilishlari bo’lsa ham, ba’zida muloqot qilish qobiliyati pasayadi.

Shu munosabat bilan logopediya mashg’ulotlari na faqat nutqni, balki maktab o’quvchilarining nutqiy fikrlash faoliyatini faollashtiradigan turli xil muloqot holatlarini yaratadi.

Logoped mashg’ulotlarida tovushlarning talaffuzi aniqlanadi, fonemik idrok rivojlanadi, lug’at va grammatik tuzilish, izchil nutq, o’qish va yozish ustida ish olib boriladi. Shu bilan birga, nutq terapiyasi ishi psixoterapevtik yo’nalishga ega bo’lib, nutqning buzilishi va doimiy yomon rivojlanish holati tufayli bolaning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Nutqni rivojlantirish darslarining asosiy vazifasi bolalar nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishga yordam berish, ularning tilni bilish darajasini oshirish, o’quvchilarni nutqdan aloqa va umumlashtirish vositasi sifatida foydalanishga o’rgatishdir. Bolalarda nutq ko’nikmalari va qobiliyatlarini shakllantirish faqat nutq amaliyoti asosida sodir bo’ladi, shuning uchun maxsus maktabda o’qish davrida maxsus tashkil etilgan nutq amaliyotiga katta e’tibor beriladi. Nutq amaliyoti tufayli bolalar to’g’ridan-to’g’ri nutq aloqasi sharoitida so’z boyligini mustaqil to’plash imkoniyatlarini oshiradilar.

Ko’pgina hollarda, umumiy ta’lim maktablaridagi logopediya shoxobchalarida ham, maxsus maktablarda ham ish jarayonida ijobiy rivojlanish dinamikasi aniqlanadi. 2-3-sinflarda 1-sinfda eng ko’p ifodalangan kamchiliklarni bartaraf etish mumkin.

Bolalar bilan lug’at bo’yicha ish ularning passiv va faol lug’at zaxirasini kengaytirishga, so’zlarning ma’nosini tushunishga, o’z fikrlarini aniq ifodalash va izchil fikrni shakllantirish uchun so’zlardan foydalanish qobiliyatini o’zlashtirishga qaratilgan. Maxsus tashkil etilgan leksik ish bolalarda so’zlar bilan ishlash, ularning semantik tomonlarini ajratib ko’rsatish, solishtirish, baholash, so’zlarni tanlash qobiliyatini shakllantiradi. Bola nutqni qurish uchun til vositalarini tanlashni o’rganadi. Maktab o’quvchilari bilan olib boriladigan leksik ish, bir tomondan, grammatik tuzilishni shakllantirish va tuzatish ishlari bilan, ikkinchi tomondan, tovush talaffuzini takomillashtirish va uning buzilishlarini tuzatish bilan chambarchas bog’liq.

Agar yoshligida murakkabroq bo’g’inli so’zlarni o’zlashtirish yetarli darajada samarali bo’lmasa, kichik maktab o’quvchilari bilan ishlash davom ettiriladi. Bolalar nutq tovushlarini tinglashni, unli va undoshlarni



farqlashni, soʻzlarni tovushlar boʻyicha taqqoslashni, soʻzdagi tovushning mavjudligini va oʻrnini aniqlashni, unlilarni farqlashni, ogʻzaki va mantiqiy urgʻuni aniqlashni oʻrganadilar. Asta-sekin, logopedik mashgʻulotlar taʼsirida bolalar nutqning tovush tuzilishiga yoʻnaltirilganligiga ega boʻladilar, tovushni toʻgʻri talaffuz qilish va ovozni ajratishni oʻzlashtiradilar.

Adabiyotlar

1. Коррекционная педагогика: Основы обучения и воспитания детей с отклонениями в развитии: Учеб. пособие для студ. сред. пед. учеб. заведений / Б.П.Пузанов, В.И.Селиверстов, С.Н.Шаховская,

Й.А.Костенкова; Под ред. Б.П.Пузанова. - М.: Издательский центр «Академия», 1998.- 144с.

2. Логопедия. /Под ред. Л.С. Волковой, С.Н. Шаховской. – М., 2003.

3. Система коррекционной работы в логопедической группе для детей с общим недоразвитием речи. – СПб: детство – пресс, 2005

4. Бельтюков В.И. Взаимодействие анализаторов в процессе восприятия и усвоения устной речи. М., 1977.

5. Преодоление общего недоразвития речи дошкольников. Учебно- методическое пособие /Под ред. Т.В. Волосовец – М.: Институт общегуманитарных исследований 2002.

INGLIZ TILINI OʻQITISHDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARNING OʻRNI

M.A. Shkurullayeva, Jaloliddin Manguberdi Universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Современное образование немислимо уже без широкого применения информационных технологий. Они усиливают мотивацию учения, позволяют по-новому вести занятия, управлять учебным процессом.

Ключевые слова и понятия: образование, методика преподавания, учебный процесс, информационные технологии, иностранные языки, качество обучения.

Modern education is unthinkable without the widespread use of information technology. They enhance the motivation of learning, allow you to conduct classes in a new way, manage the learning process.

Key words and concepts: education, teaching methods, educational process, information technology, foreign languages, quality of education.

Taʼlim jarayoniga zamonaviy kommunikatsion texnologiyalarni olib kirish, ulardan maqsadli va toʻgʻri, unumli foydalanish, ular orqali oʻquvchida chet tiliga boʻlgan qiziqishni orttirish, oʻqitish samaradorligini oshirish eng muhim masala hisoblanadi. Bu orqali taʼlimda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga imkoniyat tugʻiladi va talab ortadi. Hozirgi kunda oʻsib kelayotgan yosh avlodni chet tillariga oʻqitish sifatini taʼminlash, chet tillarida erkin soʻzlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, chet tillarni oʻzlashtirish orqali jahon taʼlim standartlariga javob beradigan yetuk kadrlarni tayyorlash yurtimizda amalga oshirilayotgan taʼlim islohotining maqsadlaridan biridir. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan soʻng, chet tillarini oʻrgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun koʻplab imkoniyatlar yaratib berildi. 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan “Chet tillarini oʻrgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari toʻgʻrisida” PQ 1875-son qarori chet tillarini oʻrganish imkoniyatlarini kengaytirdi. Shuningdek, “Oʻzbekiston Respublikasida xorijiy tillarni oʻrganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-son qaroriga muvofiq, xorijiy tillarni oʻrganishni ommalashtirish boʻyicha tashkiliy chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish maqsadida

qaror qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq 2022/2023-oʻquv yilidan boshlab, davlat taʼlim muassasalarining xorijiy tillar oʻqituvchilari lavozimlariga ishga yangi qabul qilinayotgan talabgor kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega boʻlishi lozim; 2022/2023 -oʻquv yiliga qadar davlat oliy taʼlim muassasalarida faoliyat yuritayotgan barcha xorijiy tillar oʻqituvchilari kamida S1 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega boʻlishi lozim.

Oʻzbekiston sharoitida milliy mintalitetimiz, urf-odatlarimizni inobatga olgan holda xorijiy tajribalar asosida taʼlim sifatini tubdan isloh qilish davr talabidir. Bu borada 2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot strategiyasida mamlakatimizda “...taʼlim va oʻqitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy qilish asosida oliy taʼlim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni ragʻbatlantirish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy qilishning samarali mexanizmlarini yaratish...”, kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur shart- sharoitlarni yaratish, har bir oliy taʼlim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-taʼlim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari oʻrnatishi va



talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, yoshlar auditoriyasi bilan ish olib borishda interfaol usullardan samarali foydalanish, ularga chet tilidan sifatli ta'lim bera olish, oliy ta'lim darajasini namunali bosqichga olib chiqish va tubdan takomillashtirish asosiy vazifalar sifatida belgilandi.

Chet tili o'qitish maqsadlari jamiyat taraqqiyotiga va rivojlanishiga bog'liq. Oliy ta'lim muassasalarida chet tilini o'qitish o'z maqsadlariga ega, chet tilidan ta'lim berayotgan barcha murabbiylar, albatta, uni oldindan aniqlab olmog'i darkor. Zero, olimlar O'.Hoshimov va I.Yoqubov «Ingliz tili o'qitish metodikasi» kitobida aytganidek, chet tili o'qitish maqsadlari o'qitish mazmunini, vositasini, metodlarini, tamoyillarini aniqlaydi» Talabalar oliy ta'lim muassasasini tugatayotganlarida inglizcha fikrni og'zaki, yozma qabul qila olishi, tushuna olishi va og'zaki, yozma ravishda bayon qila olishi talab qilinadi. Tillarga ixtisoslashmagan oliy ta'lim muassasalarida dars soatlarining soni shu muassasalarga oid dasturlarda beriladi. Nofilologik ta'lim muassasalarda chet tillari maxsus dastur va darsliklar asosida o'qitiladi.

O'qitish mazmuni metodikaning muhim masalalaridan biridir. Hozirgi davrda tillarga ixtisoslashmagan oliy ta'lim muassasalarida chet tilini o'qitish mazmuni deganda: talabalar oladigan tarbiyaning maqsad va vazifalari bilan aniqlanadigan bilimlar, materiallar, mashqlar va ko'nikmalar xususiyati hamda hajmi tushuniladi. Chet tili o'qitilayotgan vaziyat, sharoit, oliy o'quv yurtlari talabalari va ularning tanlagan sohalariga mos, oson, qulay metod, yo'l, usul, tizim, tamoyil, vosita, mashqlarni izlash va tanlay bilish, qo'llashdir. Optimallashtirish turli tipdagi oliy o'quv yurtlari uchun o'ziga xosdir, chunki dars soatlari turlicha bo'ladi, talabalarining ona tili xususiyatlari ham turlicha ta'sir qiladi. Talabalar oliy ta'lim muassasasini tugatayotganlarida inglizcha fikrni og'zaki, yozma qabul qila olishi, tushuna olishi va og'zaki, yozma ravishda bayon qila olishi talab qilinadi.

Hozirgi paytda oliy ta'lim muassasasi uchun chet tillari (ingliz, nemis, fransuz) bo'yicha til materiallari tanlab olingan.

Talabalarga Speaking -gapirish til bilish ko'nikmasini aniqlash maqsadida 10 ta og'irlik darajasi o'rta bo'lgan ingliz tilida mavzular beriladi.

Ular:

1. Family – Oila
2. Childhood Memory – Bolalik xotiralar
3. A memorable event – Esda qolarli voqyea
4. A teacher – O'qituvchi
5. Hobbies – Sevimli mashg'ulotlar
6. Holiday – Bayram
7. A friend – Do'st
8. A school – Maktab
9. Sport – Sport
10. Food – Oziq-ovqat

Bugungi kunda tilni o'rganish uchun har qanday qurilmadan tarmoqqa kirish kifoya. Internetda video darslaridan foydalanib, chet tillarni chuqur o'rganishga yordam

beradigan saytlar mavjud. Mobil qurilmalar uchun ilovalar qiziqarli vazifalarni topshirib, dasturni qiziqarli tarzda o'zlashtirishni taklif qiladi.

Adabiyotlar

1. Байдурова, Л. А. Метод проектов при обучении учащихся двум иностранным языкам. / Л. А. Байдурова, Т. В. Шапошникова // ИЯШ. – 2002. – №1. – С. 5–11.
2. Барыкова, Н. А. Проблемы организации проектной деятельности [Электронный ресурс] / Н.А. Барыкова // Информационные технологии в образовании: Международная конференция-выставка – 2007 – Режим доступа : <http://www.ict.edu.ru/vconf/files/10931.doc> – Загл. с экрана.
3. Биболетова, М. З. Английский с удовольствием / Enjoy English : учебник для 7 класса общеобраз. учрежд. / М. З. Биболетова, Н. Н. Трубанева. – М. : Титул, 2011. – 160 с.
4. Биболетова, М. З. Энжой Энглиш – 3 : учебник англ. яз. для 5-6 кл. общеобраз. учрежд. / М. З. Биболетова, Н. В. Добрынина, Н. Н. Трубанева. – 2-е изд. – М. : Титул, 2005. – 208 с.
5. Бим, И. Л. Личностно-ориентированный подход – основная стратегия обновления школы / И. Л. Бим // ИЯШ. – 2002. – № 2. – С. 11–15.
6. Гаврилова, М. А. Метод проектов в теории и практике современного обучения: учебно-методическое пособие / М. А. Гаврилова, Е. А. Павкина – М. : Пенза, 2005. – 64 с.
7. Гальскова, Н. Д. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика / Н. Д. Гальскова. – 5-е изд., стер. – М. : Академия, 2008. – 336 с.
8. Калмыкова, С. В. Метод проектов с использованием информационных технологий в преподавании истории [Электронный ресурс] / Калмыкова С. В. // Образовательный портал Фестиваль педагогических идей «Открытый урок». – Режим доступа : – <http://festival.1september.ru/articles/511037/> – Загл. с экрана.
9. Кузовлев, В. П. Английский язык : учебник для 8 класса общеобразоват. учрежд. / В. П. Кузовлев, Н. М. Лапа, Э. Ш. Перегудова. – 12-е изд. – М. : Просвещение, 2008. – 238 с.
10. Лерман, С. П. Проект как одна из современных технологий обучения [Электронный ресурс] / С. П. Лерман // Образовательный портал Фестиваль педагогических идей «Открытый урок». – Режим доступа : <http://festival.1september.ru/articles/414629/> – Загл. с экрана.



MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNING AXLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH

G.X Jumasheva, Nukus davlat pedagogika insituti dotsenti, p.f.d.

A.Ulikpanova, mazkur institut magistratura bosqichi talabasi

В данной статье освещен вопрос формирования нравственных качеств детей школьного возраста.

Ключевые слова и понятия: непрерывное образование, дошкольное образование, нравственные качества, формирование.

This article highlights the issue of the formation of moral qualities of school-age children.

Key words and concepts: continuous education, preschool education, moral qualities, formation

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, jahon ta'limi standartlari darajasida shaxsga ta'lim berish va ijtimoiy tarbiya samaradorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni qondirish talabi ta'lim tizimini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ushbu vazifa faqatgina maktabgacha yoshdan boshlab, amalga oshirilsagina, muvafaqqiyatga erishish mumkin. Bunda oiladagi tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki oilada bolada dastlabki ijtimoiy-ma'naviy tajriba shakllanadi; bola madaniyat, milliy an'analar va axloqiy qadriyatlar bilan tanishadi; uning fikrlashi rivojlanadi; uning ma'naviy dunyosiga tamal toshi qo'yiladi. Ma'naviyat tamal toshiga go'zallikni anglay bilish, ya'ni insonda maktabgacha yoshdan boshlab shakllanishi mumkin bo'lgan estetik asos qo'yilishi tasodifiy emas. U shaxs ma'naviyatining barcha tashkil etuvchilarining integratsiyasi va rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Mustaqillik yillarida yangi avlod erkin, tanqidiy, ijodiy va mustaqil tafakkurga ega, mustamlakachilik davrida o'sgan avloddan farqli, ijtimoiy qo'rquvdan va milliy nomukammallik tuyg'usidan xoli, siyosiy va ijtimoiy faol, izlanuvchan va omilkor, milliy va jahon madaniyatidan xabardor, yuksak ma'naviyatli shaxs bo'lib shakllanishi lozim, degan vazifa ko'ndalang qo'yildi. Bunday muhim vazifani hal etishda milliy tarbiyaning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Tarbiya, jadid bobolarimiz e'tirof etganidek, ta'lim va tarbiyani boshqa sivilizatsiyalarga moslashtirish emas, balki dunyodagi ilg'or sivilizatsiyani o'rganib, uni milliy madaniyatga xizmat ettirish, ta'lim va tarbiyani yangi sharoitda, mustaqillikni mustahkamlash talablari bilan boyitib, amalga tatbiq etishdir.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining oila bilan olib boradigan ish mazmuniga quyidagilar kiradi:

- bola tarbiyasi, oilani mustahkamlash, onalik va bolalikni himoya qilish bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasida amalga oshirilayotgan ishlarning mazmuni bilan tanishtirib borish;

- ota-onalarga o'z farzandlarining tarbiyasi uchun davlat va jamiyat oldida javobgar ekanliklarini tushuntirib borish;

- ota-onalarni bola tarbiyasi uchun zarur bo'lgan bilim, malakalardan xabardor qilish (bolalarning yosh, anatomik-fiziologik va ruhiy xususiyatlari, ularni oilada tarbiyalashning mazmuni, metodi, shart-sharoitlari bilan tanishtirish);

- bola tarbiyasida oila bilan hamjihatlik, bolani to'g'ri tarbiyalashni nazorat qilib borish, oila tarbiyasining eng yaxshi namunalarini o'rganish va ommalashtirish.

Bola maktabgacha ta'lim tashkilotida egallagan eng yaxshi fazilatlarini oila sharoitida davom ettirib, oilada egallagan eng yaxshi fazilatlarini esa maktabgacha ta'lim tashkilotida qo'llansa, istalgan ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Tarbiyachilar oila tarbiyasiga doir tajribalaridagi ijobiy ishlarni ko'ribgina qolmay, balki uni qo'llab-quvvatlash va shu asosida ota-onalar e'tiborini bola tarbiyasida hali xal etilmagan vazifalarga qaratishlari lozim. Yuqoridagi ishlarni rejalashtirish, tashkil etish va ularga rahbarlik qilishda maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari javobgar shaxs hisoblanadi.

Ota-onalar bilan ishlash bo'yicha yillik reja tuziladi. Bu reja pedagogik kengashda muhokama qilinadi. Rejada umumiy va guruhij majlislar, ota-onalar uchun ochiq eshiklar kuni, suhbat va maslahatlar, otaliq tashkilotlarida ko'rgazmalar tashkil etish va konsertlar qo'yib berish, shuningdek, bu tadbirlarni o'tkazish vaqtlari va unga mas'ul bo'lgan shaxslar belgilanadi.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mavzulari va mazmuni tarbiyachi-metodistning rejasida va tarbiyachining kalendar rejasida aks etadi. Ota-onalar bilan ishlash bo'yicha juda ko'p ishlarni tarbiyachi – pedagog amalga oshiradi, chunki u bola tarbiyasida yuz berayotgan o'zgarishlarni hammadan ko'proq ko'radi va bolalar hayoti bilan yaqindan tanish bo'ladi. U ota-onalarga bolalar tarbiyasida ko'proq nimalarga e'tibor berish kerakligi, ularni maktab ta'limiga tayyorlash, sog'lig'ini saqlash, ovqati va kun tartibini to'g'ri tashkil etish va boshqalar sohasida tavsiyalar berib boradi.

Ta'lim tashkilotlari va oila o'rtasida hamkorlik o'rnatishda rahbar, pedagoglar jamoasi va ota-onalar birgalikda faol ishtirok etishlari lozim. Shundagina bola tarbiyasida kutilgan natijalarga erishish mumkin.

Ota-onalar bilan ishlashda quyidagi alohida ish shakllaridan foydalaniladi: suhbatlar, maslahatlar, oilalarga borish, ayrim ota-onalarni maktabgacha ta'lim tashkilotiga taklif etish, alohida eslatmalardan foydalanish.

Bolaning uyiga borishdan ko'zlangan maqsad oila sharoiti, bolaning oiladagi hulqi, qiziqishlari, ota-onasi va oila a'zolari bilan tanishish, shuningdek, ota-onalarni bola tarbiyasining samarali usullari bilan tanishtirish va oilaning bola tarbiyasidagi ijobiy tajribalarni o'rganib, ommalashtirishdir.



Tarbiyachi bolaning uyiga tekshiruvchi sifatida emas, balki do'st, bola tarbiyasidek murakkab ishda yordam beruvchi sifatida borishi, oila a'zolari bilan nazokat va xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lishi kerak. Tarbiyachi har bir oilaga har gall borishidan avval o'z oldiga aniq maqsad qo'yishi, qaysi mavzuda suhbatlashishini oldindan belgilab olishi lozim. Ota-onalarga beriladigan savollar puxta o'ylan-gan bo'lishi kerak.

Suhbat shunday tuzilishi kerakki, tarbiyachi bilan ota-onalar bir-birlarini yaxshi tushunishlari, ular o'rtasida ishonchli aloqa o'rnatilishi dardkor. Oilaga borishdan oldin tarbiyachi shu oila to'g'risida (ota-onalarning fe'l-atvori, oilaviy munosabatlar, bolaning rivojlanish darajasi) to'g'risida ma'lum tasavvurlarga ega bo'lishi kerak. Tarbiyachi ota-onalar hurmati va ishonchini qozonmoq uchun avval ota-onalarning bolaning ijobiy fazilatlarini to'g'risida fikr, mulohazalarini bilib oladi va bolaning uyidagi hayotini qanday tashkil etish kerakligi, unga nimalarni o'qib, hikoya qilib berish mumkinligi, bolaning kun tartibi, uni oila mehnatida qatnashtirish, kattalarga hurmat ruhida tarbiyalash kabi ta'lim-tarbiya ishlari mazmuni va usullari bo'yicha tavsiyalar beradi.

Albatta, tarbiyachining oila bilan olib boradigan ishi-da bolaning yoshi, imkoniyatlari, o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olinadi. Oilaga borishning maqsad va mazmuni tarbiyachining rejasini va hisobotida, kundalik daftarida aks ettirilishi kerak. Tarbiyachi har bir bolaning oilasiga yiliga kamida 2 marta borishi kerak.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni rang-barang bo'lib, unda ayrim masalalar birgalikda muhokama qilinishi taqozo etiladi. Masalan:

- bolalarni tarbiyalashda oilaning roli, ota-onalarning vazifasi, bolalarni maktabga tayyorlash to'g'risidagi qonunlar;
- maktabgacha tarbiya tashkilotlarining yillik ish rejasini to'g'risida;
- ota-onalar jamoatchiligining ishi haqidagi masalalar shular jumlasidandir.

Bu masalalarni jamoa bo'lib muhokama qilish uchun ota-onalarning guruhi va umumiy majlislari, maslahatlar, konferensiyalar, ota-onalar kechalari kabi ish shakllari jamoa ish shakllariga kiradi.

Ota-onalar majlisi. Ota-onalar majlisiga Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi hamma guruh bolalarining ota-onalari, boshqa guruhlar ota-onalari va bitta guruh bolalarining ota-onalari taklif etilishi mumkin.

Umumiy majlisda ota-onalarni maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash vazifalari, shu yilgi rejalar, ota-onalar qo'mitasining faoliyati, oila tarbiyasidagi ilg'or tajribalar bilan tanishtiriladi. Bunda majlisda mudira yoki metodist-tarbiyachi ma'ruza qiladi, ota-onalar so'zga chiqishadi, bolalar gapirishadi. Bular ta'lim-tarbiya ishidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab olishga imkon beradi, oila va jamoatchilik aloqasini mustahkamlaydi, ota-onalarning o'z bolasining tarbiyasi uchun javobgarligini oshiradi, ularda maktabgacha ta'lim tashkilotiga qiziqish uyg'onadi.

Guruhdagi ota-onalar majlisida mazkur yoshdagi bolalarning ota-onalari uchun dolzarb bo'lgan masalalar muhokama qilinadi.

Masalan, umumiy majlis mavzusi «Bolalarga axloqiy tarbiya berishda oilaning roli» bo'lsa, o'rta guruhda o'tkaziladigan majlisda bu mavzu murakkablashtirilib, «Bolalarda

mexnatsevarlikni tarbiyalashda ta'lim tashkilotlari va oilaning birgalikdagi ishlari», «Bolalarda kattalarga hurmatni tarbiyalash» va hokazo bo'lishi mumkin.

Ota-onalar uchun tayyorlangan ma'ruzani, bolalar ishini, tegishli mavzudagi kinofilm, diapozitivlar ko'rish bilan qo'shib olib borish mumkin. Bolalar hayoti, faoliyati to'g'risidagi misollardan foydalanganda ijobiy materiallar ko'proq bo'lishi kerak, salbiy faktlarni gapirishda ehtiyotkorlik va odob doirasidan chetga chiqmaslik, tanqid qilinuvchilarning nomlari ko'rsatilmaligi lozim. Tanqidiy mulohazalar majlisdan keyin yakka tartibdagi suhbat orqali ota-onalarga yetkazilishi, bola tarbiyasidagi xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha aniq tavsiyalar taklif etilishi mumkin.

Yilning oxirida o'tkaziladigan guruh majlisida ota-onalarga bir yil mobaynida amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya ishlari va kelgusi yilning rejalarini haqida gapirib beriladi. Bu majlisda faol ota-onalar ham hisobot beradilar va faollarning yangi tarkibi saylanadi.

Ota-onalar burchagi va ko'rgazma tashkil etish. Ota-onalar burchagi ularni tarbiyaga oid yangiliklar va pedagogik masalalar bilan tanishtirish maqsadida tashkil etiladi. Ularga kitoblar, jurnallar, rasmlar, bolalarning ishlari, bolalar ovqatining xillari, bolalarning uyidagi va oiladagi kun tartibi, ota-onalar uchun eslatmalar, e'lonlar joylashtiriladi. Burchak vaqti-vaqti bilan tarbiya vazifasiga qarab o'zgartirib turiladi.

Pedagogik bilimlarni targ'ib qilish bo'yicha tashkil etiladigan ko'rgazmalar ko'pincha ota-onalar konferensiyalari, majlislari, konsultatsiyalar oldidan tashkil etiladi. Unda xalq ta'limi to'g'risidagi qonun va qarorlar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmoqlari va undagi tarbiyalanuvchilar sonining o'sishini ko'rsatuvchi diagrammalar, bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonlari, bolalar hayotini aks ettiruvchi tasvirlar, kitob va o'yinchoqlar, bolalarning ishlari o'rin oladi. Ota-onalar burchagi oila bilan olib boriladigan ishning ko'rgazmali usuli, uning did bilan bezatilishiga alohida e'tibor berilishi kerak. Bundan tashqari, ota-onalarga tarbiya to'g'risidagi filmlar namoyish etiladi, bular ko'pincha ota-onalarni qiziqtiradigan baxslar boshlanishiga sababchi bo'ladi.

Ota-onalar uchun ochiq eshiklar kunining tashkil etilishi ham maktabgacha ta'lim tashkilotlari ishida muhim o'rin egallaydi. Bunday kunlarda ota-onalarga bolalarning mashg'ulotlari, mehnat, o'yin faoliyatlari, sayrlar va bolalarning jamoada o'zlarini qanday tutushlari va shunga o'xshashlar ko'satiladi.

Ota-onalar qo'mitasi. Ota-onalar qo'mitasi «Maktabgacha ta'lim tashkilotining Ustavi»ga binoan mudiraga yordam berish uchun tuziladi. U ota-onalarning umumiy majlisida bir yil muddatga saylanadi. Bu qo'mitaga har bir yosh guruh ota-onalaridan 1-2 vakil saylanadi. Qo'mitaning asosiy vazifasi mudiraga maktabgacha ta'lim tashkilotining xo'jalik va ta'lim-tarbiya ishlarida yordam berish, qo'mita a'zolari, ota-onalar majlisi va kechalarni tayyorlash, o'tkazish va boshqa ishlarda tarbiyachilarga ko'maklashishdir.

Tarbiyachining ota-onalarga beradigan tavsiya va maslahatlari ishonarli bo'lishi uchun ota-onalar yoki oilaning boshqa a'zolari maktabgacha ta'lim tashkilotiga taklif qilinadi. Bunda ota-onalar bolaning navbatchilik vazifasini qanday bajarayotganini yoki sayrga chiqishdan avval u qanday kiyinayotganini ko'radilar va bolalarning uquv va imkoniyatlariga ishonch hosil qiladilar.



Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008y.
2. Нажмиддинова Г.О. Дошкольная педагогика. Ташкент.: 2017 йил.

3. Quronov M. Milliy tarbiya. – T.: Ma'naviyat, 2007y.
4. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – T.: Universitet, 1998y.
5. D.R. Babayeva «Bolalarni nutqini o'stirish» – T.: 2021y. «NIF MSh» o'quv qo'llanma.

YOSHLARNING SPORT HAQIDAGI FIKRINI ANIQLASH BO'YICHA IJTIMOIIY TADQIQOT

H.Valiyeva, Toshkent shahridagi “MEI” milliy tadqiqot universiteti” federal davlat byudjeti oliy ta’lim muassasasi filiali assistenti

В статье представлены результаты опроса, проведенного с целью определения отношения молодежи к спорту, результаты исследования, проведенного для определения видов спорта, частоты занятий и мест занятий, отношения к здоровому образу жизни.

Ключевые слова и понятия: социологическое исследование, опрос, молодежь, спорт, образ жизни.

The article presents the results of a survey conducted in order to determine the attitude of young people to sports, the results of a research conducted to determine the types of sports, the frequency of training and the places of training, and the attitude to a healthy lifestyle.

Key words: sociological research, survey, youth, sport, lifestyle.

Sport - bu inson faoliyatining keng ma'nodagi tushunchasidir. U jamiyatning uzoq tarixidan ma'lum bo'lib, jamoalar, guruhlar o'rtasidagi bellashuvlarda shakllanib, odam organizmi faoliyatining, qobiliyatining eng yuqori pog'onasini namoyon qilish bilan ifodalanadi [1].

Sport – bu millatning o'zligini anglashda, uning aniq maqsadlar sari jipslashuvi va birlashuvida, o'zidagi bor salohiyatini hamda qudratini jahon uzra namoyon bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, mamlakat sportini rivojlantirish dolzarb va nihoyatda muhim masaladir. Zero, jismonan baquvvat va sog'lom millat qudratli bo'ladi, uning davlati har tomonlama mustahkam bo'lib, buyuk taraqqiyot sari rivojlanib boradi.

Mustaqil davlatimizning ertangi kuni, uning gulab-yashnashi va rivojlanishi ko'p jihatdan o'sib kelayotgan avlodning sog'lom bo'lishiga bog'liq. Bu esa o'z navbatida Vatanimizning kelajagi - farzandlarimizning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratishni taqozo etadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tadqiqotiga ko'ra, jismoniy salomatlik insonning umumiy rivojlanishi va hayotining asosidir. Jismoniy faollik salomatlikda muhim rol o'ynaydi va boshqalar qatorida yuqumli bo'lmagan kasalliklarning oldini olishga yordam beradi. Shuningdek, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, jismoniy faollikning yetarli emasligi dunyodagi o'lim ko'rsatkichining asosiy sabablaridan biri - yurak-qon tomir, saraton va diabet kabi kasalliklarning rivojlanishi hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyodagi har to'rtinchi odam yetarli darajada jismoniy faol emas va butun dunyo bo'ylab o'smirlarning 80% dan ortig'i jismoniy faoliyatning yetishmasligini boshdan kechirmoqda.

Ushbu ijtimoiy tadqiqotning maqsadi talaba yoshlarning sportga bo'lgan munosabatini ochib berishdir. Respondent-

larning 62% erkaklar; 38% ayollar. Bundan xulosa qilish mumkinki, erkaklar ko'proq sport va sport seksiyalariga qiziqishadi.

Tadqiqot ishi natijasida respondentlarning o'rtacha 19-26 yosh ekanligi aniqlandi.

Aksariyat respondentlar, ya'ni 84 % sport bilan shug'ullanadi; 16% esa umuman shug'ullanmaydi. Respondentlarning 42% ota-onalari ularga sport bilan shug'ullanishni taklif qilishganini tasdiqladi; 36% do'stlariga qiziqib shug'ullanishadi; 20% hamkasblariga qiziqib sport bilan shug'ullanadi; 2 % umuman sport bilan shug'ullanmaydi.

Respondentlar eng ommabop sport turi bu deb futbol-48%; keyingi o'rinda basketbol-12%; suzish -18%; voleybol-11%.; yugurish -9%; 2%- raqs san'atiga ovoz berdilar.

Yoshlarning 36% haftasiga 1-2 marta sport bilan shug'ullanadi; 26% haftasiga 5-6 marta mashq qilishni afzal ko'radi; Respondentlarning 22% haftasiga 3-4 marta mashq qiladi; 10% har kuni mashq qilishni afzal ko'radi, 6% esa umuman mashq qilmaydi.

Yoshlarni sport bilan shug'ullanishlari maqsadlarini o'tganishda quyidagilar aniqlandi: respondentlarning 38% mukammal jismoniy baquvvat ko'rinishiga ega bo'lish uchun sport bilan shug'ullanadi; 22% - bo'sh vaqtlarini o'tkazishga harakat qiladi; 16% - yaxshi kayfiyat uchun; 10% sportda immunitetning oshishini ko'radi, shuningdek, 10% tanishlar doirasini shu tarzda kengaytiradi; 4% sportdan yaxshi martaba olishni xohlaydi. Ertalabki badantariya bilan shug'ullanishni degan savolga respondentlarning 64%- ha, 22%-ba'zida va 14% yo'q deb javob berdilar.

Sport va jismoniy faollikni turmush tarzining bir qismi deb hisoblamaydigan yoshlar borligiga qaramay, sport bilan faol shug'ullanadiganlarning soni ko'p ekanligi aniqlandi. O'tkazilgan ijtimoiy tadqiqot natijalariga ko'ra, eng omma-



bop sport turi basketbol ekanligi, sport bilan faol shug'ullanayotganlarning aksariyati erkaklar ekanligi, faol hayot tarzi bilan shug'ullanuvchilarning yoshi, asosan, 19-26 yosh ekanligi ma'lum bo'ldi. Respondentlarning ko'pchiligi uchun sport sevimli mashg'ulot ekanligi, ammo sport bilan shug'ullanishlari uchun vaqt, mablag' va sharoit yetishmasligini ko'rsatganlar.

Adabiyotlar

1. Агаев Н.Ф.О., Челнокова Е.А., Житникова Н.Е. Физическая культура как фактор формирования культуры здоровья у студентов // Проблемы современного педагогического образования. 2018. № 58-2. С. 8-11.
2. Белоусова К.В., Булганина С.В. Развитие фитнес – туризма и его продвижение в интернете // В сборнике: Индустрия туризма и сервиса: состояние, проблемы, эффективность, инновации. сборник статей по материалам V Международной научно-практической конференции. Нижегородский государственный

педагогический университет имени Козьмы Минина. 2018. С. 7-11.

3. Лукина Е.В., Уткина Е.О., Булганина С.В. Маркетинговое исследование критериев выбора секции по волейболу потребителями Нижнего Новгорода // Наука Красноярья. 2020. Т. 9. № 4-4. С. 174-178. 9.
4. Уткина Е.О., Лабазова А.В., Белоусова К.В., Булганина С.В. Исследование спроса на услуги фитнес-центра // Наука Красноярья. 2020. Т. 9. № 3-2. С. 133-137.
5. Фролова Н.В., Разоренов В.А. Специфика физической подготовки студентовбаскетболистов и методы оценки их физического развития // Современный ученый. 2017. Т. 1. № 1. С. 106-109. 11.
6. Челнокова Е.А., Лукина Е.В., Терехина А.Е. Формирование здоровьесберегающих компетенций студентов высшей школы в области физической культуры // Проблемы современного педагогического образования. 2018. № 61-2. С. 232-235.
7. <http://arm.sies.uz/wp-content/uploads/2020/11/18-y-Jismoniy-tarbiya-oquv-qollanma-A.N.Normurodov-T-2011y.pdf>

PEDAGOGLARNING KASBIY KREATIV MALAKASINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

B.O'.Genjemuratov, Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti "Tibbiyotda axborot texnologiyalari, biofizika va radiologiya kafedrasida katta o'qituvchisi

В данной статье высказываются мнения по вопросу повышения профессионально-творческого навыка педагогов.

Ключевые слова и понятия: креативность, навык, педагог, профессиональный навык, педагогическая креативность.

This article expresses opinions on the issue of improving the professional and creative skills of teachers.

Key words and concepts: creativity, skill, teacher, professional skill, pedagogical creativity.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida belgilanishicha, ta'lim va fan sohasini rivojlantirish orqali, uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishda maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish ustuvor vazifa etib belgilandi.

Ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini hozirgi zamon talablari asosida tashkil qiladigan, yangicha fikr-

laydigan, mustaqil va ijodiy faoliyat ko'rsatadigan yuqori malakali pedagoglarga ehtiyoj katta. Hozirgi kunda ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga qaratilgan zamonaviy ta'limni yo'lga qo'yish ishlari amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlashda yosh avlodning zamonaviy ta'lim va tarbiya olishlari, zamonaviy yetuk kadrlar bo'lib shakllanishlari muhim masalalardan biridir. 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan yangi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda belgilangan barcha vazifalarni amalga oshirish nuqtai nazaridan pedagogika fani zimmasiga yanada mas'uliyatliroq vazifalar klanmoqda. Zero, bugungi kunda oldimizga qo'yan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri – bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligi katta ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy pedagogikada "Kreativ pedagogika" tushunchasi qo'llanila boshlaganiga hali u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Biroq, o'qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo'lgan ehtiyoj "Kreativ



pedagogika”ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta’minladi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o’zgarishining o’zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogenezi – tug’ilishidan boshlab, to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog’liq. Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o’zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur’ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatleri, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog’liq.

Pedagogik kreativlik – pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g’oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo’lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati.

“Kreativlik” – muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o’zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o’zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlik. Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin. O’qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvda aks etadi. So’nggi yillarda ushbu holat “pedagogik kreativlik” tushunchasi bilan ifodalanmoqda.

“Kreativ pedagogika” quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

1) o’qituvchilar tomonidan o’quv fanlarini past o’lashtirayotgan va ularni o’rganishni zerikarli deb hisoblayotgan o’quvchilar e’tiborlarini fan asoslarini o’lashtirishga jalb etish;

2) o’qituvchilarga o’quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag’batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish orqali ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish.

Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo’lishi taqozo etiladi. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to’laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma’nosini tushunib olish talab etiladi. “Kreativlik – o’z qiymatiga ega original g’oyalar majmui” sanaladi.

“Kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo’lib, u o’zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma’lum amaliy qiymatga ega bo’lishi lozim”. Kreativlik muayyan soha bo’yicha o’lashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko’nikmalarga ham ega bo’lish demakdir.

“Kreativlik” tushunchasi o’zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G’arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan’anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg’usi va erkinlik mavjud bo’lishiga e’tiborni qaratadilar. Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug’ilish jarayoni, deb tushunadilar. Garchi g’arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo’lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar. Kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to’g’ri g’oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada

yuritishda masala yuzasidan bir va ko’p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo’lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda yechimning bir necha varianti izlanadi (ko’p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to’g’ri yechim topiladi (bir tomonlama fikrlash). Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg’ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo’ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi.

Qolaversa, kreativlik zehni o’tkirlilikni belgilab beraadi, bolalarning e’tiborini ta’lim jarayoniga faol jalb etishni ta’minlaydi hamda faoliyatlar jarayonida o’qituvchilar ham o’zlarida kreativlik sifatleri mavjudligi va uning darajasini aniqlab boradilar.

Kreativlik tushunchasi negizida quyidagi mazmun yoritiladi:

- muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o’zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o’zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlik.

Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin. O’qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvda aks etadi. So’nggi yillarda ushbu holat “pedagogik kreativlik” tushunchasi bilan ifodalanmoqda. Pedagogik kreativlik – pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g’oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo’lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati. Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo’lmashligi tufayli bolalar ham qiziqarli va ajoyib g’oyalarga ega bo’lsalar-da, biroq, ularni ifodalashda sustkashlikka yo’l qo’yadi. Bu sababli ta’lim jarayonida qo’llanilayotgan metodlar bolalarda erkin, mustaqil fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi. Vosita va strategiyalar bolalarda kreativlikni rivojlantirishda o’qituvchilar uchun qo’l keladi hamda bolalarda o’quv fanlarini o’rganishga bo’lgan qiziqishni rivojlantiradi.

Adabiyotlar

1. Yarmatov R. Bo’lajak o’qituvchi shaxsini tarbiyalash va rivojlantirish. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2009y.
2. Valijonov R. va boshq. Menejment asoslari. – T.: Sharq, 2002.
3. Innovatsion ta’lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To’raev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015y.
4. Zufarov Sh. Pedagogik innovatika. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2012y.
5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o’qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: “Iste’dod” jamg’armasi, 2009y.

BOLANING IJTIMOYIY MUNOSABATLAR JARAYONIDA SHAKLLANISHI

D.R.Babayeva, Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universiteti, "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedra professori

M.G'.Zaripova, magistratura bosqichi talabasi

Процесс социализации ребенка, его формирования и развития, становления как личности происходит во взаимодействии с окружающей средой, которая оказывает на этот процесс решающее влияние посредством самых разных социальных факторов, что в свою очередь воздействует и на развитие ребенка как субъекта взаимоотношений.

Ключевые слова и понятия: становление личности, развитие личности, ребенок, дошкольный возраст, социализация.

The process of socialization of the child, his formation and development, becoming as a person takes place in interaction with the environment, which has a decisive influence on this process through a variety of social factors, which in turn affects the development of the child as a subject of relationships.

Key words and concepts: personality development, personality development, child, preschool age, socialization.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi. Rivojlanish oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ta'minlovchi murakkab harakat jarayoni sanaladi. Rivojlanishning manbai qarama-qarshiliklar o'rtasidagi kurashdan iboratdir. Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotidir, degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholalar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi. Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur. Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadi. Chunki ta'lim jarayonida bolalarga jamiyatda birga yashash bilan bog'liq bo'lgan holat va hodisalar o'rgatiladi. Bu jarayonda o'quvchi jamiyatga «kirishadi» va u bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Ular ma'lum ijtimoiy tajriba (bilim, qadriyat, axloqiy qoida, ko'rsatma) orttiradilar, ya'ni, ijtimoiylashadilar. Ijtimoiylashuv uzoq davom etadigan murakkab jarayon. Chunki har qanday jamiyat rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, ideallar, axloqiy me'yorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqadi, har bir bola

yuqoridagi qoidalarni qabul qilib, o'rganib mazkur jamiyatda yashash, uning a'zosi bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning uchun jamiyat u yoki bu shaklda shaxsga maqsadga muvofiq ta'sir etadi. Bu ta'sir ta'lim vositasida amalga oshadi. Ikkinchi tomondan, shaxsning shakllanishiga turli g'oyalar, ijtimoiy muhit ta'sir ko'rsatadi. Odamlar ijtimoiy me'yorlar va axloqiy qoidalar bilan munosabatga kirishadilar va uni o'rganadilar. Ijtimoiylashuv jarayonida bola jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy maqom va rol, ijtimoiy xulq-atvorning me'yor va qoidalari haqida ko'p bilimlarni o'zlashtiradi. U shuningdek, uning jamiyatga ko'nikishiga yordam beruvchi turli ko'nikma va malakalarni ham o'zlashtiradi. Bu jarayon ayniqsa bolalikda juda jadal amalga oshadi. Ma'lumki, bola besh yoshgacha uning keyingi hayotida o'z aksini topuvchi nihoyatda ko'p bilimlarni oladi.

Bolalar ijtimoiylashuvining ajralib turuvchi xususiyati shuki, bola jamiyat ilgari surayotgan yurish-turish me'yorlariga baho berishi va nazorat qilishi qiyin. U bularni faqat o'zlashtirib boradi. Shuning uchun bolalarning ijtimoiylashuv jarayonida ota-onalar, qarindoshlar, ular bilan ishlayotgan mutaxassislarining (psixolog, shifokor, pedagoglar, «agent»lar) ta'siri katta bo'lib, bolalarni hayotda zarur ijtimoiy bilimlarni ertaroq va yaxshiroq o'zlashtirishlari, ularni hayotda qo'llashga intilishlari aynan ularga bog'liqdir. Buning ijtimoiy pedagogika bilan bog'liqligi shundaki, maktab yoki boshqa ta'lim muassasida ta'lim olish jarayonida ma'lumki bola avvalo akademik bilimlarni o'zlashtiradi. Biroq shu bilan bir paytda u muayyan tizimlashgan ijtimoiy bilim, ko'nikma va malakalarni qo'lga kiritadi. Bu bilim, ko'nikma va malakalar ijtimoiylashuv jarayonida bolaga maxsus yordam kerak bo'lganda juda zarur bo'ladi. Bolaning ijtimoiylashuviga yordam beradigan ijtimoiy bilimlarni bolaga yetkazish, unda ijtimoiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni ijtimoiy ta'lim deyiladi.

Ijtimoiylashuv jarayoni bolaning ijtimoiylashuvi, xususan, insonning ijtimoiy moslashuvi uning bilishga bo'lgan ob'ektiv ehtiyoji jarayonida paydo bo'ladi. Biroq bu bilan uzviy ravishda bola boshqa bir ob'ektiv ehtiyoj -o'ziga xosligini namoyon qilish hissi ham shakllanadi. Bola uni yuzaga chiqarish uchun turli usul va vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi ro'y beradi.



Shaxsning faqat o'ziga tegishli bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari individual tarzda namoyon bo'ladi, uning ijtimoiy yurish-turishi takrorlanmas jihatlariga ega bo'ladi.

Shunday qilib, bolaning ijtimoiy rivojlanishi o'zaro bog'liq ikki yo'nalishda olib boriladi: ijtimoiylashuv (ijtimoiy madaniy tajriba madaniyatni o'zlashtirish) va individuallashuv (mustaqillik, nisbiy o'ziga xoslikni qo'lga kiritish). Shu tarzda ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy fanda moslashuv va individuallashuv jarayonlari bilan bog'liq ijtimoiylashuv jarayonining mazmunini tashkil etadi. Inson(bola)ning aniq bir jamiyat sharoitlariga moslashuvi sub'ekt va ijtimoiy muhitning o'zaro faol yaqinlashuv jarayoni va natijasidir.

Ijtimoiy moslashuv esa ijtimoiy muhit talablariga insonning munosabat bildirishidir. Shunday qilib, ijtimoiylashuv (moslashuv) individning ijtimoiy mavjudotga aylanish jarayoni va natijasidir.

Individuallashuv insonning hali yoshligidayoq paydo bo'ladigan ob'ektiv ehtiyojlari bilan bog'liq jamiyatdagi o'z-o'zini egallashidir. Bu ehtiyoj:

a) o'z qarashlariga ega bo'lish;

b) o'ziga xosliklariga ega bo'lish;

v) unga tegishli bo'lgan masalalarni hal qilish, uning o'z darajasini aniqlab olishiga xalaqit beradigan hayotiy holatlarga qarshi turish xohishi sifatida namoyon bo'ladi. Agar shaxsning jamiyatga kirishida ijtimoiylashuv va individuallashuv jarayonlari o'rtasida tenglik yuzaga kelsa, insonning jamiyatga yaqinlashuvi ro'y beradi. Shu bilan birga bu yerda shaxs va muhitning o'zaro ta'sir etishi ham sodir bo'ladi. Shunday qilib, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv moslashuv va individuallashuv o'rtasida muvozanat saqlangandagina amalga oshishi mumkin. Bu jarayon uch asosiy sohada amalga oshadi:

1. Faoliyat turlarining kengayishi, uning shakl va vositalarini qo'lga kiritish, erkin mo'ljal olish.

2. Muloqot doirasini kengaytirish, uning mazmunini chuqurlashtirish, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish.

3. Shaxsiy «Men» obrazini faoliyatning faol ishtirokchisi sifatida shakllantirish, o'z ijtimoiy mansubligi va o'rni anglash, o'ziga baho berishni shakllantirish.

Tarbiya va ijtimoiy tarbiya pedagogikaning asosiy ob'ekti sifatida pedagogikaning rivojlanish tarixi mobaynida olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Shu bilan birga "tarbiya" tushunchasining mazmuni amaliy ahamiyatga ega. Chunki bu tushuncha pedagogik faoliyatning vazifa va maqsadlariga asosiy yondashuvlarni belgilaydi. Boshqa tomondan tarbiya ijtimoiy hayotning doimiy va umumiy kategoriyasidir. Tarbiyaning ijtimoiy qamrovi uning lug'aviy ma'nosidan ancha kengdir.

Ijtimoiy tarbiyani insonning qobiliyati, bilimi, yurish-turish namunasi, qadriyatlar u yashayotgan jamiyatga

munosabatidan iborat imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi, maxsus tarbiya tashkilotlarida amalga oshiriladigan jarayon sifatida ko'rib chiqish lozim. Boshqacha aytganda, ijtimoiy tarbiyaning maqsadi insonni ijobiy rivojlanishga qaratilgan sharoitlar yaratish jarayoniga yo'naltirishdir. Bu sharoitlar individual va guruhviy sub'ektlarning uchta o'zaro bog'liq va shu paytning o'zida mazmuni, shakli, usuli jihatidan nisbatan mustaqil bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi: bolalar, o'smirlar, o'spirinlar ijtimoiy tajribasini tashkil qilish, ularning ta'lim olishlarini ta'minlash, ularga individual yordam ko'rsatish. Ijtimoiy tajribani tashkil qilish guruh (jamoal)ning maishiy va hayotiy faoliyatini tashkil qilish, guruhdagi o'z-o'zini boshqarish faoliyatini rag'batlantirish va norasmiy mikrogruhlarga ta'sir etish orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy tajriba keng ma'noda turli ko'nikma va malakalar, bilim va fikrlash usullari, yurish-turish me'yor va stereotiplari, qadriyatlar, odamlar bilan munosabatga kirishish tajribasi, moslashish tajribasi, shuningdek o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini belgilash yig'indisidir.

Tabiiyki, ijtimoiy tajriba ta'lim va individual yordamning usul, shakl, mazmuni, xarakter, jadalligi bevosita tarbiyalanuvchilarning yoshi, jinsi, qaysi kasb egasi ekanligi ularning va ijtimoiy-madaniy mansubligiga bog'liq. Bu jihatlar turli ta'lim muassasalari va tashkilotlari farqlanadi. Farqlar ham tashkilot turiga, ham unda faoliyat yuritadigan pedagoglarning o'z faoliyatlarida amalga oshirayotgan ishlariga bog'liq. Ijtimoiy tarbiya jarayonidagi o'zaro munosabat uning sub'ektlari orasidagi axborot, faoliyat usullari, qadriyatlar almashuvidir. Bunaqa munosabat ijtimoiy jihatdan tabaqalashgan, alohida ko'rinishga ega. Chunki o'zaro munosabatning aniq ishtirokchilari muayyan etnik, ijtimoiy va ijtimoiy psixologik guruhlar vakili bo'la turib, o'z munosabatlarida u yoki bu darajada ular mansub guruhlariga tegishli ijtimoiy yurish-turishni amalga oshirishadi. Umuman olganda, o'zaro munosabat tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning, birgalikdagi faoliyati, uning mazmuni, xarakteri, tarbiyaviy samaradorligi, unda kimlar ishtirok etishi va ular o'zlarini qay darajada shaxs deb hisoblashiga bog'liq. O'zaro munosabat jarayonida amalga oshirilayotgan ijtimoiy tarbiya insonning ijobiy ijtimoiy, ma'naviy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishda qulay sharoitlar yaratadi.

Adabiyotlar

1. N.M. Egamberdiyeva Ijtimoiy pedagogika.- T.:2014 Darslik.
2. N.M.Qayumova. Maktabgacha pedagogika.- T.: 2018 Darslik.
3. Ю.В. Василькова, Т.А. Василькова Социальная педагогика. Москва 2006.

O'zbekiston matbuot va axborot agentligining 2016-yil 27-apreldagi
0037-sonli guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan.
Nashriyot hisob tabog'i 5,11.

Bosmaxona manzili: "POYTEXT EXCLUSIVE" M.Ch.J.
Toshkent shahar, Navoiy ko'chasi, 30. Buyurtma №00-00
Bosishga ruxsat etildi 24.11.2022. Format 60x84, 1/8.
Shartli hisob tabog'i 5,5. Adadi 443 nusxada.